

KONFERENSIYALAR.UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-214-5

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 71 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyul

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

ISBN 978-9910-09-214-5

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TARIX FANLARI

<i>Doniyorov Nosirjon</i> BOLSHEVIKLAR MADANIY SIYOSATINING AYRIM NAZARIY ASOSLARI TO'G'RISIDA	4-9
<i>Najmiddinov Boburmirzo</i> SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTON SSRDA DINIY SIYOSATI TARIXSHUNOSLIGIDAN (SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR MISOLIDA)	10-13
<i>Sobirov Sardorbek</i> YETTISHAHAR DAVLATINING BUYUK BRITANIYA IMPERIYASI BILAN ALOQALARI	14-17
<i>Umarqulova Gulchiroy</i> JIZZAX VILOYATI CHO'L HUDUDI TUMANLARINING MUSTAQILLIK YILLARIDA MADANIY HAYOT RIVOJI (DO'STLIK TUMANI MISOLIDA).....	18-20
<i>Begaliyeva Aysha</i> ROSSIYA TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMI: SANOAT INQILOBI SHAROITIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	21-25

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Nazarov Nazar</i> KICHIK VA O'RTA BIZNES FAOLIYATINI STATISTIK BAHOLASHNING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	26-29
--	-------

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jamahmatov Karomiddin</i> SALJUQIYLAR DAVR ADABIY MUHITI RIVOJIDA TERMIZIY ALLOMALAR MA'NAVIY MEROSINING O'RNI	30-37
<i>Maxamatqulova Zarina</i> O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDAGI FRAZEMALARNING QIYOSIY TAHLILI	38-40
<i>Yuldasheva Kamola</i> STRATEGIES AND EVALUATION IN SIMULTANEOUS INTERPRETING	41-44

YURIDIK FANLAR

<i>Salimjonov Axadjon</i> ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI	45-55
<i>Акрамова Хилола Убайдуллаевна</i> ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	56-59
<i>Qahorova Saodat</i> ONLAYN KREDIT SHARTNOMALARINING FUQAROLIK-HUQUQIY TABIATI VA RAQAMLI MUHITDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	60-62

SOTSILOGIYA FANLARI

<i>Artikbayeva Nazokat</i> INTERNETGA QARAMLIKNING ZAMONAVIY TA'LIMGA TA'SIRI	63-67
<i>Raxmatullayeva Shaxlo</i> INSON KAPITALINING YANGI O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOY O'RNI	68-70

TARIX FANLARI

BOLSHEVIKLAR MADANIY SIYOSATINING AYRIM NAZARIY ASOSLARI TO'G'RIDA

Doniyorov Nosirjon Abduxoliq o'g'li

O'zbekiston FA, Tarix instituti tayanch doktoranti,

E-mail: nosirdoniyorov28@gmail.com

Tel: +998940370203

Annotatsiya. Mazkur maqolada sovet hokimiyati tomonidan yurgizilgan madaniyat siyosati nazariy asoslarining shakllanish tarixi va uning asoslari atroflicha ko'rib chiqiladi hamda ushbu nazariyaga tanqidiy ruhda yondashiladi. Tanqidning asosini shakllantirilgan sovet xalqi madaniyatining sinfiy asosdaligi, internatsionalizmni qo'llab quvvatlanishining salbiy tomonlarini ochib berilishi tashkil qiladi. Shuningdek, sovet hokimiyati tomonidan olib borilgan savodsizlikka qarshi kurash siyosatining mohiyati ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: madaniyat siyosati, sinfiylik, internatsionalizm, milliy madaniyat.

ON SOME THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE BOLSHEVIKS' CULTURAL POLICY

Doniyorov Nosirjon Abduxoliq ogli

PhD student, Institute of History,

Academy of Sciences of Uzbekistan

Annotation. This article examines in detail the history of the formation of the theoretical foundations of the cultural policy developed by the Soviet authorities and its foundations, and approaches this theory in a critical spirit. The basis of the criticism is the class-based nature of the culture of the Soviet people, and the disclosure of the negative aspects of its support for internationalism. The essence of the policy of combating illiteracy led by the Soviet authorities is also analyzed.

Key words: cultural policy, classism, internationalism, national culture.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-01>

Bolsheviklar madaniy siyosati marksistik-leninistik nazariyaga asoslangan madaniy o'zgarishlarni o'z ichiga olgan, ishchilar sinfi manfaatlari va kommunistik qadriyatlarga mos keladigan yangi sotsialistik tuzum yaratishga intilishlariga asoslangan edi. Ushbu madaniyat siyosatining nazariy asoslari yangi sotsialistik fuqaroni shakllantirish, shuningdek, kapitalistik jamiyatdan sotsialistik jamiyatga o'tishni ta'minlash vazifalarini amalga oshirishdan iborat bo'lgan. Bolsheviklar siyosatining madaniyat sohasidagi nazariy asoslarini tanqidiy ko'rib chiqish O'zbekiston SSR madaniyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan ijobiy va salbiy tomonlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi. Quyida tanqidning asosiy jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Madaniy inqilob va savodsizlikka barham berish. "Madaniy inqilob" iborasi dastlab 1917-yilda A.Bogdanov tomonidan qo'llangan bo'lsa, 1923-yili esa V.I.Leninning "Kooperatsiya to'g'risida"¹ nomli maqolasida ham uchraydi. RSFSRDA Oktab to'ntarishining dastlabki

¹ Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. Элик беш томлик. 45 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 422 бет.

kunlaridanoq boshlangan madaniy inqilob V.I.Leninning sotsializm va kommunizm qurish dasturining ajralmas bir bo'lagi edi. Sotsializm madaniyatini g'oyaviy jihatdan shakllanishida V.I.Lenindan tashqari, A.V.Lunacharskiy, N.K.Krupskaya, M.P.Pokrovskiy, A.A.Bogdanov, V.F.Pletnev, M.A.Kalinin va boshqa olim va siyosiy arboblarning mehnatlari bor edi. Madaniy inqilob – bu marksistik dunyoqarash bilan insonni ma'naviy jihatdan qayta proletar ideologiyasi bilan jadal va ulkan madaniy o'sishni anglatar edi. Madaniy qurilish jarayoni (keyinchalik “Madaniy inqilob” deb nomlandi) sanoatni industrlashtirish, qishloqlarni kollektivlashtirish bilan birgalikda sanaladigan masalaga aylantirildi.

Madaniy masalalar ham xalq xo'jaligi masalalari bilan birgalikda partiya yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan bo'ldi. Bu madaniy inqilob olib chiqadigan masalalarning ham ko'lamining ulkanligini anglatar edi. Shunday masalalardan biri bu omma orasidagi savodsizlik muammosini hal qilish edi. Umuman olganda mazkur siyosat omma orasida savodlilikni yoyish, ularning madaniy saviyasini oshirish uchun xizmat qilsada, asl maqsad shahardagi ishchilar va dehqonlar o'rtasida chuqur aloqa o'rnatilish orqali shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutni yo'qotib yuborilishi va bu orqali bolsheviklarni qo'llab-quvvatlaydigan omma hajmi oshirilishi kerak edi. Mehnatkash ommada targ'ibot-tashviqotning ta'sirini oshirish va sovet davlati olib borayotgan kommunistik jamiyat qurilishiga tortish uchun uni, avvalo, savodli qilish, ongini rivojlantirish va internatsional tarbiya berish maqsadida sovet hokimiyati tomonidan ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. Bu xususida shaxsan V.I.Leninning o'zi shunday degan edi: “Modomiki, bizning mamlakatimizda savodsizlikday bir holat bor ekan, siyosiy oqartirish to'g'risida gapirish ortiqcha. Bu siyosiy vazifa emas, bu shunday bir shartki, usiz siyosat to'g'risida gapirish mumkin emas. Savodsiz kishi siyosatdan tashqarida turadi. Dastalab, unga alifboni o'qitish kerak. Busiz siyosat bo'lishi mumkin emas. Balki busiz shivir-shivir gaplar, g'iybat-cho'pchaklar, xurofotlar bor, siyosat bo'lmaydi”¹.

1920-yil 19 iyulda Sovet davlatining “RSFSR aholisi o'rtasida savodsizlikni tugatish to'g'risida”² dekreti chiqdi. Respublika bo'ylab 8 – 50 yosh oralig'idagi yozish va o'qishni bilmaydigan barcha aholi o'zining ona tilisida yoki istalgan bir boshqa tilda savodini chiqarishga majburligini belgilab qo'yildi. Ushbu ta'lim RSFSR Maorif xalq komissarligi rejalariga asoslanib, davlat maktablarida olib borilishi belgilandi. Xalq uylari, cherkovlar, klublar, ta'limni tashkil etishga mos keluvchi fabrika va zavod binolari ham jalb etildi. 1920-yil dekabrda esa “Savodsizlikni tugatish favqulodda komissiyasi to'g'risida” dekreti imzolandi³. Komissiya kengashida Rossiya kommunistik partiyasi Markaziy Qo'mitasidan, ayollar bilan shug'ullanuvchi bo'limdan, Rossiya kommunistik yoshlari ittifoqidan, kasaba uyushmsidan, Siyosiy boshqaruv idorasidan hamda umumta'limdan a'zolar kiritildi. Komissiya targ'ibot-tashviqot yo'li bilan ko'plab ishchilarni jalb qilish, kattalar o'rtasida savodsizlikni tugatishning o'ziga xos usullarini o'ylab topish va alifbo kitoblarini yaratish vazifalarini bajarar edi. Bu savodsizlikka qarshi kurashish ishlarining muammo sifatida kun tartibidagi asosiy muammolardan biri ekanligi va uni hal qilish ishlarining kengayganini anglatar edi.

¹ Lenin vasiyatlari / Madaniy inqilob. 1935-yil, 22-yanvar.

²Фрид Л.С. По истории развития политико-просветительной работы в РСФСР (1917 – 1929). – Ленинград: 1941. – С. 173-174.

³ Культурное строительство в РСФСР 1917 – 1927 (Документы и материалы 1917 -1920). Том I. часть 1. – Москва: Советская Россия, 1983. – С. 246.

Shuni tan olish kerakki, bolsheviklar madaniy siyosatining yutuqlaridan biri savodsizlikni yo'q qilish, ta'lim-tarbiyani yoyish istagi millionlab odamlarga bilim olish imkonini berdi. Garchi savodsizlikni yo'q qilish haqiqatan ham muhim yutuq bo'lsa-da, bolsheviklar ommaviy ta'lim turli va har tomonlama bo'lishi kerakligini har doim ham hisobga olmadilar. Ta'limni shaxsiy rivojlanish vositasi emas, balki kommunistik targ'ibot uchun muhim bir bosqich sifatida qarashganligini ko'rsatadi, bu esa ta'limning haqiqiy ma'nodagi sifatini tushurib, mafkuraviy tarbiya vositasiga aylantirdi hamda o'ziga kerakli mutaxassislarni shu yo'l bilan tarbiyalab ko'paytirdi. Savodsizlikka qarshi kurashish ishlari yigirmanchi yuzyillikning 20-30 yillarida aynan iqtisodiy qiyinchiliklar va RSFSR hududida fuqarolar urushi, Turkistonda esa milliy istiqlolchilik harakatlari kechayotgan davrda amalga oshirildi. Bu esa, tabiiyki, malakali o'qituvchilar va moddiy resurslarning joylarda yetishmagan, oqibatda o'rganilgan bilimlarning saviyasi ham o'shanga yarasha bo'lganligi aniq.

Madaniyat shaklini sinfiylik asosda majburiy "qayta taqsimlash". Bolsheviklar san'at va madaniyatning burjua shakllarini rad etib, proletar madaniyatini yaratishga intildilar. V.I.Leninning ta'kidlashicha, har bir milliy madaniyatda hech bo'lmaganda rivojlanmagan demokratik va sotsialistik madaniyat elementlari mavjud. Chunki har bir xalqda ezuvchi hamda eziluvchi sinflar bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar natijasida demokratik, sotsialistik g'oyalar tug'iladi. Shuningdek, burjua madaniyati va klerikal (diniy boshqaruvga oid) madaniyati elementlari ham bo'lib, mazkur elementlar "hukmron" shakilda bo'ladi. Madaniyatni "demokratlashtirish" uchun mehnatkash omma, ishchi va dehqon nafaqat davr qahramoni, balki san'at qahramoniga aylantirilishi, ya'ni sinfiy madaniyatni shakllantirish kerak edi. Biroq, madaniyat manbalarini "oddiy omma" tomonga qayta taqsimlash va sotsialistik qadriyatlarni targ'ib qilish har doim ham yuqori sifatli natijalarga olib kelmadi. Klassik musiqa, teatr, tasviriy san'at kabi ko'plab an'anaviy san'at turlari e'tibordan chetda qoldi. Qachonlardir buni ta'kidlab bolsheviklar rahnamosi V.I.Lenin shunday degan edi: "Bu yerda (Yevropa san'atida) ikkiyuzlamachilik va bema'nilik bor. Men o'zimni "varvar" deb e'lon qilishga jur'at etaman. Men ekspressionizm, futurizm, kubizm va boshqa "izmlar" asarlarini badiiy dahoning yuksak namoyon bo'lishi deb hisoblay olmayman. Men ularni tushunmayapman. Men ulardan hech qanday quvonch olmayman"¹.

Madaniy shakllarni "oddiy xalq" uchun majburiy soddalashtirish va standartlashtirish, umuman olganda, madaniy darajaning pasayishiga olib keldi. Ko'pincha san'atning targ'ibot maqsadi shunchalik ravshan ediki, u o'zining haqiqiy estetik qiymatini yo'qotdi va siyosiy tashviqot vositasiga aylandi, bu esa uning sifati va ijodiy erkinligini pasaytirdi. Bu o'rinda o'zbek dramaturgi Komil Yashinning "Ichkarida" pyesasini keltirish mumkin. Asarda quruq tashviqiy so'zlar, sinfiy dushmanlarning biologik tomonlari(ustidan)dan kulish, fabrikalarni sun'iy ravishda plakatchilik bilan ko'rsatish, ikki qahramonni birin-ketin qurbon qilish kabi nuqsonlar bo'lgan. Bu kabi bir xil qoliqli san'at asarlari, tabiiyki, tomoshabinni zeriktirib, o'zidan bezdirar edi.

Internatsionalizm va milliy madaniyat qarama-qarshiligi. Bolsheviklar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda yangi proletar madaniyatini yaratish yo'lidan bordi. Oktabr g'alabasidan so'ng inqilobchilar oldiga savol tashlandi: yangi sotsialistik madaniyat qaysi

¹ В.И.Ленин об искусстве // Культурный фронт. (Москва) – 1924. – № 1. – С. 10-11.

yo'ldan boradi: eski madaniyatga taqlid qilinadimi yoki mutlaqo yangi madaniyat shakllantirilish yo'li, ya'ni proletkultchilar yo'li tanlanadimi?

Proletkultchilar kim edi? Proletkult studiyalari 1917-yil oktabrda tashkil etilgan bo'lib, zudlik bilan adabiy va badiiy san'at hamda ma'naviyat tashkilotlarining tarmog'ini birlashtira boshladi. Proletkult nazariyasining asoschilari A.A.Bogdanov, V.F.Pletnev, P.Lebedov-Polyanskiy, F.Kalininlar bo'lib¹, ular avvalgi madaniyatni tubdan o'zgartirgan holda "laboratoriya usuli"da maxsus proletar madaniyatini yaratishga intildilar². Eski madaniyatni feodal, burjua va katta yer egalari madaniyati sifatida ko'rishgan va proletar – ishchilar ehtiyojiga mos kelmasligini hamda batamom eski madaniyatni yo'q qilishni iddao qilishgandi. Shu tariqa proletkultchilar madaniy rivojlanishning uzluksizligini rad etishgan. Proletkult madaniyati o'ta ketgan radikal ruhdagi monopol madaniyat loyihasi edi. Buni ularning quyidagi fikrlari orqali fahimlash mumkin: "Ertangi kunimiz uchun biz Rafayelni yoqamiz, muzeylarni vayron qilamiz, san'at gullarini oyoqosti qilamiz"³.

Proletkultchilar o'zlarini partiyadan mustaqil ekanligini talab qilishdi. V.I.Lenin mazkur o'ta ketgan radikal ruhdagi monopol madaniyat loyihasini qo'llab-quvvatlamadi va ularning nazoratini doimiy ushlab turdi. 1920-yil kuzida RKP(B) MQda proletkult masalasi bir necha bor ko'rib chiqildi hamda turli proletkult to'garaklari va guruhlari Maorif xalq komissarligi tarkibiga qo'shib yuborildi. Shuni ta'kidlash joizki, proletkultchilar konsepsiyasi bilan bolsheviklar taklif qilayotgan madaniyat shakli o'rtasida deyarli farq bo'lmagan ham aslida. Asosiy farq shunda ediki, tarixan meros bo'lib o'tgan madaniyat, uning eng yaxshi namunalari va an'analari, V.I.Leninning ta'kidlashicha, inqilobiy omma tomonidan saqlanib, o'zlashtirilishi, yangi madaniyat va san'atning asosini tashkil qilishi kerakligida edi.

Partiya yig'ilishlarining birida V.I.Lenin: "Biz milliy madaniyat tarafdorlari emasmiz va milliy madaniyat muxtoriyatini yo'q qilishimiz kerak. Unda asosan millatchilikni targ'ib qiluvchi unsurlar – burjua madaniyati ustunlik qiladi. Shunday ekan har bir milliy madaniyatdan demokratik va sotsialistik talablarga javob beradigan internatsional qismlarini o'zlashtiramiz,"⁴ – degan edi. Natijada ishchilar demokratiyasi bu milliy madaniyat emas, aslida internatsionalizm madaniyati butun dunyo ishchilarining demokratiyasidir; ishchilarning turli tilda gaplashuvi, turli millatilik bo'lishi tushunmovchiliklarga, konfliktlarga olib kelib, rivojlangan sivilizatsiyaga erishishga to'sqinlik qiladi degan g'oyalar tug'ila boshlandi⁵. Bolsheviklar fikricha, bunda milliylik tamoyillari yo'qolib ketmasdan internatsionallik bilan uyg'unlashib boradi. Aslida esa bu ikki tushuncha bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilganligi keyingi yuz bergan xalqlarning milliy madaniyatiga sovet hokimiyati tomonidan uyushtirilgan tajovuzni ko'rsatdi.

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi raisi M.I.Kalinin internatsionalizm g'oyalariga quyidagicha fikr bildiradi: "Bizning mamlakatimiz juda katta. Uzoq Sharqdan to Yevropa mamlakatlarigacha borib taqaladi. Bu ulkan hududda shunday joylar borki yil bo'yi quyosh

¹ Курукин И.В., Волкова И.В., Леонов С.В. История отечества. – Москва: Дрофа, 2004. – С. 680.

² Батафсил қаранг: Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур тарихшунослик таҳлили. –Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 135.

³ Минца И.И., Гапонско Л.С., Гимпельсона Е.Г., Кляцкина С.М., Соболева П.Н. Истрия СССР с древнейших времен до наших дней. Том VII. – Москва: Издательство Академии Наук СССР, 1963. – С. 495.

⁴ Ленин В.И. О культурной революции.- Москва: Издательство политической литературы, 1967. -С.246.

⁵ Ленин В.И. О культурной революции.- Москва: Издательство политической литературы, 1967. -С.249.

charaqlab boshni qizdirsa, boshqa bir joylar borki, yil bo'yi faqatgina uch oy quyosh chiqadi va boshqa paytlar izg'irin qish bo'ladi. Shuning uchun ham respublikamizda faqatgina bitta xo'jalik turi bilan shug'ullanish mumkin emas: bir hududda xalq yer-suv ishlari bilan shug'ullanishsa, boshqa bir joyda yer osti boyliklarini qazish ishlari bilan va uchinchi bir hududda ko'mir qazib, paxta ekib kun ko'rishadi. Shunday ekan ittifoqdagi bir xalq boshqa bir xalq bilan muomala qilmasdan kun ko'rishi mumkin emas. Konchi nonsiz, dehqon metalsiz va shaharlik qishloq mahsulotlarisiz yashay olmaydi. Barcha xalqlar bir-biriga bog'liq"¹. SSSR tarkibidagi sovet respublikalar shunday mehnatga ixtisoslashtirilgan ediki, natijada birida ishlab chiqarilgan mahsulot ikkinchisida ham ishlab chiqarilishi mushkul edi. Bu esa o'sha respublikalarni o'zaro birlashtirib turgan Kremlga qaramligini mustahkamlashga, boshqaruvda uning buyruqbozligining oshishiga, sovet davlati tarkibidagi respublikalarning o'z mustaqilligini talab qilmaslikka va boqimandalikka olib kelar edi.

Bolsheviklarning milliy madaniyatga munosabatlari niglistik ruhda bo'lib, milliy ruhiyatni mistika tumaniga bog'lab, millatni qandaydir abadiy, o'zgarmaydigan tarixdan horij bir hodisa bo'lishi mumkin emas, deya mustaqil nomoddiy olamning mavjudligi inkor etilgan edi². Shuningdek, "Milliy ruhiyat xususiyatlari geografik muhit, xalqning turmushi va xo'jalik mashg'uloti bilan bog'liq. Xalqning turmush tarzi o'zgarsa u ham o'zgarib boradi. Shuning uchun madaniyat masalasida sinfiy xususiyatlar milliy xususiyatlardan ustunlik qilmog'i kerak". Aynan mana shu qarashlar ta'sirida keynchalik bolsheviklar tomonidan shaklan milliy, mazmunan esa sotsialistik bo'lgan madaniyat g'oyasi yaratildi. Aslida milliy ruhiyat millatning o'ziga xos identifikatsiyasini, milliy g'ururini, urf-odat va an'analarini saqlab qolishni anglatar, uning shakllanishi va rivojlanishi millatning birlashishi hamda o'zining mustaqil bo'lishini ifodalar edi. Bu esa barcha xalqlarni baynalmilal qilib sovet kishisini yaratmoqchi bo'lgan sovet davlatini falsafasiga to'g'ri kelmas edi va shuning uchun ham sovet hokimiyati har qachon milliy madaniyat, milliy ruhiyat masalalari bilan kurashib o'tdi.

Internatsionalizm siyosati xalqlarning milliy madaniyatlari yashashi va rivojlanishiga katta g'ov bo'ldi. Bu siyosat orqali barcha madaniyatlar aralashuvi hamda, aslida, "bir qolip mahsuloti"ga aylanib qolishi ko'zda tutilgan edi. To'g'ri, sovet davlatida turli millat madaniyatlarining o'zaro tanishuvi va g'oyalar almashinuvi orqali ijobiy holatlar kuzatilsada, o'sha xalqlar madaniyatining internatsionallashuvi va yagonalashuvi oqibatida milliy qadriyat va an'analarning sekin-astalik bilan yo'qolib borishiga olib borishi kutilayotgan edi. SSSRdagi barcha xalqlarni milliy an'ana va madaniyatidan voz kechishga, bevatanlikka – kosmopolit bo'lishga olib boradigan yo'nalish edi, aslida.

¹ М.И.Калинин. Избранные произведения / Ващенко Ф.Г., Гуськова Л.И. и др. – Москва: Издательство политической литературы, 1975. – С. 29.

² 19-uzaylikda K.Marks va F.Engels tomonidan Gegel dialektikasini yaxlit materialistik dunyoqarashga aylantirish asosida shakllangan dialektik materializm sovet davlatining rasmiy falsafasi bo'lib xizmat qildi. Bunda V.I.Lenin dialektikani bir-biriga qarshi fikrlar to'qnashuvi orqali haqiqatni topish va muammolarni inqilobiy o'zgartirish haqidagi ta'limot orqali to'g'rilash kerak deb hisobladi. Mazkur ta'limotga ko'ra insoniy muammolar, ruhiy hodisalar, mavjudlilik, ong va qadriyatlarning chuqur ma'nosini tahlil etishga nochorligi tufayli ularni hayoliy muammolar tarzida inkor qildi. Boshqacha qilib aytganda, voqelikni moddiy sababga asoslanib tushuntiradigan ta'limot. Sotsialistik ta'limot mana shu dialektik materializm negizida shakllantirildi. Batafsil qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. III жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.284 –285.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyati tomonidan o'rnatilgan madaniyat siyosatining nazariy asoslari, garchi ijtimoiy adolat va tenglik g'oyalari asoslangan, aholi o'rtasida savodsizlikni tugatish, madaniy huquqlarni kengaytirish kabi ba'zi yutuqlarga erishilsa-da, jiddiy kamchiliklarga ega edi. Kommunistik manfaatlarga xizmat qiluvchi sinfiylikka, ya'ni faqatgina dehqon va ishchilar sinfiga xizmat qiluvchi; xalqlarning milliy madaniyat va an'analari bilan hisoblashmaydigan baynalmilal sovet madaniyati asoslari qurila boshlandi.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Lenin vasiyatlari / Madaniy inqilob. 1935-yil, 22-yanvar.
2. Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур тарихшунослик таҳлили. –Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 135.
3. В.И.Ленин об искусстве // Культурный фронт. (Москва) – 1924. – № 1. – С. 10-11.
4. Егоров А. Санъатнинг миллий хусусиятлари тўғрисида / Совет Ўзбекистони маданияти. 1956 йил, 1-, 4-август.
5. Культурное строительство в РСФСР 1917 – 1927 (Документы и материалы 1917 - 1920). Том I. часть 1. –Москва: Советская Россия, 1983. – С. 462.
6. Курукин И.В., Волкова И.В., Леонов С.В. История отечества. – Москва: Дрофа, 2004. – С. 735.
7. Ленин В.И. О культурной революции. – Москва: Издательство политической литературы, 1967. -С.272.
8. Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. Элик беш томлик. 45 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 422 бет.
9. М.И.Калинин. Избранные произведения / Ващенко Ф.Г., Гуськова Л.И. и др. – Москва: Издательство политической литературы, 1975. – С. 29.
10. Минца И.И., Гапонско Л.С., Гимпельсона Е.Г., Кляцкина С.М., Соболева П.Н. История СССР с древнейших времен до наших дней. Том VII. – Москва: Издательство Академии Наук СССР, 1963. – С. 495.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. III жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.284 –285.
12. Фрид Л.С. По истории развития политико-просветительной работы в РСФСР (1917 – 1929). –Ленинград: 1941. – С. 173-174.
13. Mahmud R. Gulsara // Guliston. – 1935. – № 8-9. – В. 54.

SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTON SSRDA DINIY SIYOSATI TARIXSHUNOSLIGIDAN (SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR MISOLIDA)

Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li

Tarix instituti tayanch doktoranti

E-mail: boburmirezonajmiddinov95@gmail.com

Tel: +998 90 000 94 84

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-8669-9707>

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR da amalga oshirgan diniy siyosatini yoritib beruvchi Sovet hokimiyati davrida amalga oshirilgan ilmiy ishlar tarixshunosligi haqida to'xtalib o'tiladi. Bu ishlar talqini asosan mafkura nuqtayi nazaridan qilingan bo'lib, o'sha davr siyosatiga bir yoqlama baho berilganini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, O'zbekiston SSR, tarixshunoslik, ilmiy ishlar, monografiyalar, maqolalar, sovet tarixshunosligi, ateistik qarash, mafkuraviy yondashuv

FROM THE HISTORIOGRAPHY OF THE RELIGIOUS POLICY OF THE SOVIET GOVERNMENT IN THE UZBEK SSR(ON THE EXAMPLE OF WORK CARRIED OUT DURING THE SOVIET PERIOD)

Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li

PhD student of the Institute of History

Tashkent, Uzbekistan

Annotation. This article examines the historiography of scientific works conducted during the Soviet era, highlighting the religious policies pursued by the Soviet government in the Uzbek SSR. The interpretation of these works was mainly made from an ideological perspective, and one can see a one-sided assessment of the politics of that time.

Key words: Soviet power, Uzbek SSR, historiography, scientific works, monographs, articles, Soviet historiography, atheistic views, ideological approach.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-02>

Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR da diniy siyosat olib borilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu ilmiy ishlar yaratilish davri va o'z xususiyatiga ko'ra din va unga nisbatan olib borilgan siyosatning turli jihatlarini qamrab olganligini ko'ramiz. Mavzuni o'rganilish masalasi birinchi navbatda tarixchilar, islomshunos, sharqshunos, dinshunos, siyosatchi va sotsiolog olimlar e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan.

Hozirgi kunda mavzuga oid asarlar, ilmiy tadqiqot ishlarini uch guruhga ajratish mumkin:

- 1) Sovet hokimiyati davrida chop etilgan adabiyot, maqola va amalga oshirilgan tadqiqotlar;
- 2) Mustaqillikdan keyingi davrda nashr qilingan adabiyot, maqola va ilmiy ishlar;
- 3) Xorijda amalga oshirilgan tadqiqot, maqola va adabiyotlar.

1917-yilgi inqilobdan so'ng dastlabki o'n yillikda yozilgan ilmiy ish, risola va maqolalarda diniy muassasa va tashkilotlar faoliyati bir qadar xolisona yoritilgan. Jumladan, L.Dembo, N.Borisov, V.Bilik, G.Safarov, Sh.Rahim, T.Risqulov, R.Inogomov, V.Bartold, P.Serbov, A.Nikiforov [1;1] kabilar tomonidan yozilgan bir qator kitob va maqolalarda diniy muassasalar, diniy ta'lim, uning moddiy asosi bo'lgan vaqf mulklariga munosabatda tarixiy ma'lumotlar nisbatan obektiv bayon qilib o'tilgan.

V. Bartoldning "Мусульманский мир" ("Musulmon dunyosi") nomli diniy masalaga bag'ishlangan tadqiqotida sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi diniy siyosat mohiyati ochib berilgan. Mazkur asarda islom tarixi, uning sharq xalqlari orasida tarqalishi, XX asrning 20-yillari arafasidagi diniy ahvolga umumiy tavsif berib o'tilgan [2; 9].

O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilganidan so'ng, sovetlar hokimiyatini barqarorlashtirish jarayonida dinning mohiyati, uning jamiyatga ta'siri masalalari ilk bor tanqidiy ruhda bayon qilindi. Ularda dindor kishilar kamsitilib, din tarixi soxtalashtirildi va diniy muassasalarga salbiy munosabat oshkora tus ola boshladi. Yem.Yaroslavskiy, A.Ashulin, L. Klimovich, K.Vasilevskiy kabilarning asarlarini [3; 1] ushbu guruhga kiritish mumkin.

Sovet tarixshunosligida bir yoqlama, ko'p dalillarni chetlab o'tilgan murakkablik va ziddiyatlar hisobga olinmagan holda yaratilgan asarlar qatoriga Rashidxon, A.Adxamov, P.Kuxarekiylarning ishlarini ko'rsatish mumkin [4; 1]. Ularda sovet hokimiyati dinga qarshi siyosatining tashviqot markazlari hisoblangan klublar, qizil burchak va qizil choyxonalar, kolxozchilar uyi kabi muassasalarning faoliyatiga asosiy e'tibor qaratilgan. Chunki, sovet hokimiyatining ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tobora mustahkamlanib borishi bilan bolsheviklar madaniy-oqartiruv muassasalari zimmasiga xalq ommasi ongiga daxriylik aqidalarini singdirish, uni yanada mustahkamlash, shuningdek, diniy tushunchalarni insonlar ongidan butunlay chiqarib tashlash vazifasini yuklagan edi. Shuning uchun ham yuqorida qayd etilgan mualliflarning asarlarida madaniy muassasalar tarixi, ularning faoliyati masalalari daxriylikka yo'naltirilgan holatda ko'rsatib o'tilgan.

Sovet hokimiyati yillari davrda faqat mafkuraviy maqsadga qartilgan ommabop risola, kitoblar yozilgan va bu partiya organlari tomonidan buyurtma qilingan, aksariyat ishlar komunistik mafkura talabi bilan yozilar edi. Ijtimoiy fan vakillarining ko'plab ilmiy ommabop risolalari islom dini, uning tarixi, Qu'roni Karim ta'rifiga qaratilgan edi [5; 1]. Bu asar va risolalar mualliflari sovet hokimiyatining o'sha davrdagi hukmron mafkura nuqtai-nazaridan kelib chiqib islom dini va uning ta'limotiga salbiy baho berganlar. Islom dinining barcha qarashlarini "reaksion kuchga ega" deb baholaganlar. K. Marksning "din xalq uchun afyundir" degan shiorini islom dini uchun ham taaluqli deb hisoblaganlar.

A.Abdusamedovning "Sotsial taraqqiyot va islom" nomli asarini shunga misol qilib keltirish mumkin [6; 152]. Unda respublika hududida islom dinining oktabr to'ntarishidan oldingi va sosializm sharoitidagi holati markscha-lenincha nuqtai nazardan tahlil qilingan. O'zbek xonliklari davrida O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotida islom dini tanho hukmronlik qilganligi tanqidiy ruhda bayon etilgan. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin rus madaniyatining ta'siri, mahalliy taraqqiyparvar, ma'rifatchi shoirlar Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Hamza, Ayniy va boshqalarning ijodida ruhoniylarning tanqid qilinganligi bir tomonlama ko'rsatilgan. "Rossiya imperiyasi hukmronligi davridagi Turkiston

xalqi ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar islom dini mafkurasining pasayishiga va materialistik-ateistik dunyoqarashning shakllanishiga ko'maklashgan" deya ta'kidlangan.

Shunga qaramay, bir qancha tadqiqotlarda o'rganilayotgan muammoning ayrim jihatlarini ochib beruvchi dalillar va faktik ma'lumotlar bor. Masalan, A.Ardashirov va A.Ortiqovning tadqiqotlarida [7;1] Turkiston ASSR, keyinchalik O'zbekiston SSRdagi diniy muassasa, eski usul va otinbibi maktablari, qorixonalar, madrasalarning miqdori, moddiy ahvoli hamda ushbu muassasalarda joriy etilgan o'qitish tartiblari haqida tarixiy dalillarga boy ma'lumotlar mavjud.

"Qayta qurish" yillarida milliy o'zlikni va qadriyatlarni qayta tiklash jarayonining boshlanishi din va diniy muassasalar tarixini bir qadar xolisona o'rganish imkoniyatini berdi. Jamiyatda din va dindorlarning o'rni, vazifasi, qonuniy asoslari, shuningdek, diniy muassasalarga nisbatan xolisona yondashilgan fikrlarni ifodalovchi ba'zi tadqiqotlar paydo bo'lganligini ham aloxida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, A.Leshinskiy sovet hokimiyatining 70 yillik tarixi davomida bu hukumatning diniy siyosatdagi xatolik va kamchiliklarning ildizlarini ochib berdi [8; 1]. S.Eaniev va O.Umarjonov asarlarida esa kommunistlarning ateistik siyosati xatoliklardan iborat bo'lganligi o'ziga xos tarzda izohlab o'tigan [9; 1]. B.Alekseev tadqiqoti [10; 400] orqali 1960-yillargacha sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan salbiy munosabati, "Xudosizlar" tashkilotining daxriylik kurashi oqibatlarini tarixiy manbalar asosida o'rganilgan. Ayniqsa, ushbu asarda sovet hokimiyatining din va dindorlarga nisbatan qatag'on siyosatidagi xatoliklari arxiv xujjatlari orqali yoritib o'tigan.

Shuni aytish mumkinki, sovet hokimiyati hukmronligi davrida O'zbekistonda SSRdagi diniy siyosatga bag'ishlangan ko'plab kitoblar chop etildi. Biroq bu adabiyotlarda muammo mohiyati xolis yoritilmay, u kommunistik mafkura asosida talqin etildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Дембо Л. И. Земельный строй Востока. - П., 1923; Бо-рисов Н. Октябрь в Туркестане. - Т., 1922; Билик В.П Роль конфессиональной школы в жизни Туркестана // Наука и просвещение. - Т., 1922. № 1 - С.18-33; Сафаров Г. Колониальная революция (опыт Туркестана). - М., 1921; Рахим Ш. Ўзбек Маорифининг ўтгандаги ва ҳозирги ҳолати (маориф ҳафтаси муносабати билан чиққан). -Т., 1923; Рыскулов Т. Революция и коренное населения Туркестана. Часть I. 1917-1919 гг. - Т., 1925; Инагамов Р. Узбекская интеллигенция.-Т., 1926; Бартольд В.В. Культурная жизнь Туркестана. - JL, 1927; Сербов П.И, Никифоров А.Д. Народное просвещение в Узбекистане. - Самарканд-Ташкент, 1927.
2. Солмонов Ахмаджон. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати (Матн) : монография А.Солмонов. - Т.: Тафаккур, 2015.
3. Ярославский Ем. Фирка ахлоки тугрисида (Марказий назорат комиссиясининг пленумида килинган маъруза). - Самарканд-Тошкент, 1928; Ашулин А. Хотин-кизлар уртасида динга карши ташвиқот. Самарканд-Тошкент, 1929; Климович Л. И. Социалистическое строительство на Востоке и религия. - Москва-Ленинград, 1929; Василевский К. Ислам на службе контрреволюции. - М.: 1930; Зелкина Е. Очерки по аграрному вопросу в Средней Азии.-М., 1930.

4. Рашидхон. Диний қурбонлар. - Самарқанд-Тошкент, 1928 Б-58; Ўша муаллиф. Худосизлар тўғараги учун дарслик. - Тошкент-Самарканд, 1929; Ахадов А. Дин ҳам шурулар ҳукумати. - Самарканд-Тошкент, 1929; Кухарский П. Худосизлар байналмилал тарбия ва байналминал халқ. - Т., 1933.
5. Шлатонов Г.В. Дарвинизм ва дин. -Т., 1956; Долгих Ф.И. Нима учун динга қарши курашамиз. -Т., 1961; Петрушев Д.А. Ислом дини ва унинг реакцион моҳияти. -Т., 1961; Юсупов Э. Ислом динининг келиб чиқиши ва унинг зарарлари. -Т.1962; Ерисиев А. Дин халқлар тенг ҳуқуқлиги ва дўстлигининг душманлари.- Т., 1962; Болтанов Р. Гилвфанов И. Реакционная сушностБ корана. -Казань, 1962; Абдуллаев В.М. Что такое Коран. -Махачкала, 1963; Ортиқов А. Қуръон ҳақида танқидий мулоҳазалар. -Т., 1963; Шермухамедов С.Ш. Дин ва шахс. -Т. 1963; Агаронян А. Дин йўлидан дил йўлига. -Т., 1970; Абдусамедов А.И. Фан ва дин. – Т., 1971; Шермухамедов Я. Яхшилик ва ёмонлик. – Т., 1972; Дин – маънавий оғунинг бир тури. Мақолалар тўплами. -Т.: Ўзбекистон, 1972; Умаров М. Сароб ва ҳақиқат. -Т., 1972; Усмонов М.А. Ислом ақидалари ва уларнинг моҳияти. -Т.:Ўзбекистон, 1972; Саидбаев Т. Совет турмуш тарзи ва ислом дини. -Т.1979; Ортиқов А. Ижтимоий тараққиёт ва диннинг кризиси. –Т.1979; Ортиқов А. Ўзбекистонда ислом ва мусулмонлар аҳволини сохталаштиришларни танқиди. -Т.1981; Алимов Қ.З. Ислом дини ва ҳозирги идеологик кураш вазифалари. -Т., 1983; Саидбаев Т. Ислам и общества. -М.:Наука, 1984; Жабборов С. Қуръон афсоналари ва ривоятлари. -Т.:Фан, 1986; Ахмедов О. Ислом ва ҳозирги ғоявий-сиёсий кураш. -Т.: Ўзбекистон, 1986; Ежов А.Ф. Ислом реакция ва антикоммунизм хизматида. -Т. Ўзбекистон, 1986; Ҳикматов Ш.М. Ислом ақидалари ва антикоммунизм. –Т.: Ёш гвардия, 1986; Усмонов М. Ислом динининг реакцион моҳияти ва атеистик тарбия. -Т., 1986; Жуманазаров У. Дин ва унинг социал пуч моҳияти. - Жиззах, 1987; Дин ҳақида ўйлар Тўплам тузувчилар: Х.А.Аликулов ва б. -Т.. 1988; Ш.Иброҳимов. Дин ва миллий муносабатлар. – Т., 1991. Б-19,
6. А.И.Абдусамедов “Социал тараққиёт ва ислом” Т.: Ўзбекистон, 1984. Б-152,
7. А.Ардаширов А.Ф. К вопросу о роли новометодных школах (Ученные запички). - Андижан, 1957; Ортитов А. Октябрь революцияси ва Ўзбекистонда атеизм тантанаси. - Т., 1977
8. Лещинский А.Н. Время новых подходов: о советской государственной церковное отношение. -М.: Политиздат, 1990.
9. Ганиев А.С. Место религии в истории духовных ценностей. // Сборник научных трудов ТашПИ. - Т., 1990; Умаржонов О. Атеистик тарбияда кайта куриш масаласи. - Фаргона: Фаргона нашриёти, 1990.
10. Алексеев В.А. Иллюзии и догмы. - М.: Политиздат, 1991. С-400.

YETTISHAHAR DAVLATINING BUYUK BRITANIYA IMPERIYASI BILAN ALOQALARI

Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li

Andijon davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrası o'qituvchisi

Email: sobirov88@adu.uz

Tel: +998 94 436 06 23

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-7437-1529>

Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning 60–70-yillarida Yettishahar davlati bilan Buyuk Britaniya imperiyasi o'rtasidagi siyosiy va diplomatik aloqalar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada Muhammad Yoqubbek boshchiligidagi Yettishahar davlatining tashqi siyosiy strategiyasi, ingliz razvedkasi va diplomatik doiralari bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek, "Katta o'yin" doirasidagi ingliz manfaatlari yoritiladi. Asosiy e'tibor ingliz manbalarida aks etgan Yoqubbek siyosati, Qoshg'ardagi ingliz josuslari faoliyati va ingliz tashqi siyosatining sinchkov pozitsiyasiga qaratiladi. Savdo, qurol-aslaha ta'minoti va razvedka faoliyatining mintaqadagi kuch muvozanatiga ta'siri ochib beriladi. Manba sifatida ingliz, rus va o'zbek tarixchilari asarlari, shuningdek, zamonaviy tahliliy tadqiqotlar asos qilib olingan.

Kalit so'zlar: Yettishahar davlati, Buyuk Britaniya, Muhammad Yoqubbek, "Katta o'yin", ingliz razvedkasi, Qoshg'ar, diplomatik munosabatlar, Sharqiy Turkiston.

RELATIONS OF THE YETTISHAHAR STATE WITH THE BRITISH EMPIRE

Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li

Lecturer at the Department of World

History, Andijan State University

Andijan, Uzbekistan

Annotation. This article analyzes the political and diplomatic relations between the Yettishar state and the British Empire during the 1860s–1870s based on historical sources. It examines the foreign policy strategy of the Yettishar state under the leadership of Muhammad Yakub Beg, its interactions with British intelligence and diplomatic circles, and the broader British interests within the framework of the "Great Game." Special attention is given to Yakub Beg's policies as reflected in British sources, the activities of British agents in Kashgar, and the cautious stance of British foreign policy. The article explores the impact of trade, arms supplies, and intelligence operations on the regional balance of power. The study is based on the works of British, Russian, and Uzbek historians, as well as modern analytical research.

Key words: Yettishar state, Great Britain, Muhammad Yakub Beg, the Great Game, British intelligence, Kashgar, diplomatic relations, Eastern Turkestan.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-03>

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida tub o'zgarishlar, kuchli geosiyosiy siljishlar va yirik imperiyalar o'rtasidagi raqobat davri bo'ldi. Ayniqsa, "Katta o'yin" nomi bilan tanilgan Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari o'rtasidagi geostrategik raqobat Sharqiy Turkiston – ya'ni Yettishahar davlatining shakllanishi va faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1860–1870-yillar oralig'ida Sin imperiyasining Sharqiy Turkistondagi nazoratining zaiflashuvi natijasida mahalliy isyonlar vujudga keldi. Bu jarayonlardan unumli foydalangan Muhammad Yoqubbek Badavlat 1865-yilda Yettishahar davlatiga asos soldi [8; B.81-86.]. Dastlab Qo'qon xonligi bilan ittifoqda bo'lgan Yoqubbek tez orada mustaqil tashqi siyosat olib borishga harakat

qildi va o'z davlatining xalqaro maqomini mustahkamlash yo'lida diplomatik aloqalarni yo'lga qo'ya boshladi [5. B.57-58.].

Aynan shu davrda Buyuk Britaniya imperiyasi Shimoliy Hindistonda o'z mustamlakachilik siyosatini chuqurlashtirar ekan, Qoshg'ar tomonga strategik razvedka va siyosiy izlanishlar olib borishni boshladi. Boulgerning qayd etishicha, inglizlar Yettishaharni Rossiya imperiyasi janubga siljishining oldini olish uchun muhim bufer zonasi sifatida ko'rgan [7. B.233-236]. Bu qarashlar Buyuk Britaniyaning Sharqiy Turkistonga bo'lgan qiziqishini keskin oshirdi.

Yoqubbek o'z navbatida Rossiya bilan aloqalardagi cheklovlardan norozi bo'lgan holda, inglizlar bilan yaqinlashishga harakat qildi. 1870-yillarda ingliz razvedka vakillari – ayniqsa Hindistondan yuborilgan “pandit”lar –Qoshg'ar va uning atrofidagi siyosiy va harbiy vaziyatni o'rganib, Londonni xabardor qilib turdilar [10. B.265-270.]. Mazkur maqolada Yettishahar va Buyuk Britaniya o'rtasidagi aloqalarning shakllanishi, diplomatik urinishlar, ikki tomonning manfaatlari va bu aloqalarning mintaqa geopolitikasiga ta'siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

MATERIAL VA TAHLIL USULLARI

Mazkur tadqiqotda Yettishahar davlatining Buyuk Britaniya imperiyasi bilan olib borgan aloqalari tarixiy manbalar, zamonaviy ilmiy adabiyotlar hamda diplomatik yozishmalar asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy manba bazasini XIX asr oxiriga oid ingliz va rus sayohatnomalari, razvedka hisobotlari, memuarlar hamda Yettishahar hukmdori Yoqubbek va Britaniya vakillari o'rtasidagi aloqalarni yorituvchi ilmiy-tarixiy asarlar tashkil etdi. Birinchi darajali manbalar sifatida ingliz tarixchisi D.C. Boulgerning *“The Life of Yakoob Beg”* asari hamda Sin davridagi voqealarni o'z ichiga olgan *“Tarikh-i Hamidi”* (Musa Sayrami, tarj. E. Schluessel, 2023) asaridan foydalanildi. Ushbu matnlar Yettishahar ichidagi siyosiy muhit va Buyuk Britaniya bilan aloqa o'rnatish yo'lidagi harakatlar haqida muhim dalillar beradi. Shuningdek, rus harbiy razvedka ma'lumotlariga asoslangan Kuropatkin va Kaulbars asarlari vositasida inglizlar bilan raqobat kontekstidagi rus pozitsiyasi ham yoritildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-xronologik yondashuv, qiyosiy tahlil hamda analiz va sintez kabi tarixiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Bu orqali har bir diplomatik aloqaning geosiyosiy va strategik kontekstda o'rni aniqlanib, Rossiya va Britaniya imperiyalari o'rtasidagi kuchlar muvozanati doirasida Yettishahar pozitsiyasi baholandi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Yettishahar davlatining Buyuk Britaniya imperiyasi bilan o'rnatgan munosabatlari XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda kuchayib borayotgan geosiyosiy ziddiyatlar va imperiyalararo manfaatlar to'qnashuvi sharoitida shakllandi. Yoqubbek o'zining mustaqilligini mustahkamlash, davlatini tashqi e'tirofga erishgan subyekt sifatida tan oldirish va ayniqsa Sin imperiyasining tahdidiga qarshi harbiy-siyosiy tayanch topish maqsadida Rossiya va Buyuk Britaniya bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga intildi [4. B.302–304.].

Kaulbars boshchiligidagi Rossiya missiyasi (1872) Yettishahar–Rossiya munosabatlarining ilk bosqichini belgilagan bo'lsa, undan ko'p o'tmay 1873-yilda Mulla Turob Ho'ja boshchiligidagi ruslarga javoban elchilik jo'natildi [1. B.32–37.; 3. B.213–216.]. Ushbu diplomatik aloqalar natijasida taraflar o'rtasida savdo va harakat erkinligini tartibga soluvchi bitimlar tuzildi. Biroq bu kelishuvlar siyosiy ittifoq darajasiga yetmadi – Rossiya Sin imperiyasi

bilan bevosita to'qnashuvdan qochishga harakat qildi va Yettishaharni faqat geostrategik bufer sifatida ko'rdi [2. B.185–189.].

Yoqubbekning Buyuk Britaniya bilan o'rnatishga uringan aloqalari esa diplomatik uzilishlar va ehtiyotkorlik bilan kechdi. Britaniya o'z manfaatlarini himoya qilish maqsadida T.D. Forsaytni mintaqaga yubordi, biroq uning missiyasi faqat razvedka va siyosiy kuzatuv bilan chegaralandi [7. B.210–215.]. Britaniya diplomatiyasi Yoqubbek davlatini mustaqil siyosiy subyekt sifatida tan olishga jur'at etmadi va Sin imperiyasi bilan nisbatan neytral munosabatni saqlab qolishni ma'qul ko'rdi [6. B.105–107.].

Sin imperiyasi esa bu orada mamlakat ichidagi isyonlarni bostirib, moliyaviy va harbiy salohiyatni tiklab bo'lgan edi. General-gubernator Szo Szuntan boshchiligidagi Sin qo'shinlari 1876–1877-yillarda keng qamrovli harbiy yurish boshladi. Zamonaviy qurollar, moliyaviy resurslar va qat'iy harbiy tayyorgarlik tufayli Sin kuchlari Yettishaharni bosib olishga muvaffaq bo'ldi [8. B.196–200.]. Bu harbiy yurish tarixchilar tomonidan Sinning imperial tiklanishining eng muhim bosqichi sifatida baholanadi [9. B.129–132.].

Yoqubbek 1877-yil bahorida vafot etdi – ayrim rus va uyg'ur manbalarida zaharlangani, ingliz ma'lumotlarida esa infeksiya kasallik tufayli o'lgani qayd etilgan [2. B.328.; 11. B.364.]. Uning o'limi davlatning ichki siyosiy tizimini izdan chiqardi. O'g'li Bekqulibek va boshqa yaqin qarindoshlari o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlangan bir paytda, Sin kuchlari Yettishaharni deyarli qarshiliksiz egalladi.

Rossiya esa bu jarayonda o'zining geosiyosiy manfaatlarini saqlash maqsadida bevosita harbiy aralashuvdan tiyildi. Ili vodiysini egallab turish orqali Sin bilan muzokaralarda ustunlik qilishga urindi va natijada 1881-yilgi Sankt-Peterburg shartnomasi bilan Ili hududining 70 foizi Xitoyga qaytarildi, qolgan qismi esa Rossiya tasarrufida qoldi [4. B.334–339.]. Bu voqelik Rossiyaning "yumshoq ta'sir" va ehtiyotkorlik diplomatiyasiga sodiqligini tasdiqladi.

Yettishahar – Buyuk Britaniya munosabatlarning natijasi esa mustaqil davlatlar uchun xalqaro e'tirof va real harbiy yordamning naqadar muhim ekanini ko'rsatdi. Yoqubbek bir vaqtning o'zida ikki imperiya bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishga urinib, suverenitetni saqlab qolishga harakat qilgan bo'lsa-da, hech biri tomonidan to'liq tan olinmadi va himoya ko'rsatilmasligi davlatning qulashi bilan yakunlandi [11. B.206–208.].

XULOSA

XIX asrning 60–70-yillarida Yettishahar davlati bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi munosabatlar Markaziy Osiyo tarixida kuchli geosiyosiy raqobat, diplomatik ehtiyotkorlik bilan belgilangandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Yoqubbek boshchiligidagi Yettishahar davlati Britaniya bilan aloqalarni rivojlantirish orqali xalqaro e'tirof va harbiy ko'makka erishishni maqsad qilgan bo'lsa-da, Buyuk Britaniya bunday aloqalarni ochiq va bevosita shaklda rivojlantirishdan tiyilgan. Yettishaharning tashabbuslari, jumladan, diplomatik elchilik yuborish, savdo va harbiy sohalarida hamkorlik takliflari, asosan rad javobiga uchradi yoki befarqlik bilan qarshilandi. Bunda Britaniyaning Hindiston xavfsizligini ustuvor qo'ygan tashqi siyosat strategiyasi, Sin imperiyasi bilan to'qnashuvdan cho'chish holati va Rossiyaning faol siyosiy razvedkasi muhim rol o'ynadi. Shuningdek, Yettishaharning ichki siyosiy barqarorligining yetarli emasligi, armiyaning texnik tayyorgarlik jihatidan zaifligi va Yoqubbekning shaxsiy siyosiy platformaga asoslangan boshqaruvi bu davlatni mustahkam

xalqaro subyektga aylanishdan to'sdi. Natijada, Yettishahar Buyuk Britaniya uchun na barqaror ittifoqchi, na ishonchli bufer zona rolini bajara oldi.

Sin imperiyasining harbiy yurishi bilan bu davlat yo'q qilinganidan so'ng, Buyuk Britaniyaning Sharqiy Turkistondagi harakatlari ham cheklangan razvedkaviy faoliyat bilan tugadi. Bu holat Britaniya va Rossiya o'rtasidagi "Katta o'yin" doirasida Yettishahar hududining geosiyosiy rolini pasaytirib, Sharqiy Turkistonni yana Xitoyning to'g'ridan-to'g'ri siyosiy nazorati ostiga qaytardi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Yettishahar davlati Buyuk Britaniya imperiyasi bilan rasmiy va strategik hamkorlik o'rnatishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu aloqalar diplomatik tashabbuslar darajasidan nariga o'tmadi. Bu esa, umumiy mintaqaviy barqarorlikka ta'sir ko'rsatmagan holda, faqat tarixiy tajriba sifatida muhimdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Каулбарс А. В. Поездка в Кашгарию: С западного берега Иссык-Куля через Терсей-Ала-Тоо, Турфан и Кульджу. – СПб.: Тип. В. С. Балашева, 1873. – 94 с.
2. Куропаткин А. Н. Кашгария: Историко-географический очерк страны, ее военные силы, промышленность и торговля. – СПб.: Типография В. С. Балашева, 1879. – 435 с.
3. Халфин Н. А. Английская колониальная политика на Среднем Востоке. – Ташкент: САГУ, 1957. – 256 с.
4. Исиев Д. А. Уйгурское государство Йэйтишар (1864–1877). – Москва: Наука, 1981. – 91 с.
5. Ходжаев А., Қўлдошев Ш. Муҳаммад Ёқуббек. – Тошкент: Наврўз, 2021. – 112 б.
6. Эгамбердиев И. Англия ва Россиянинг Марказий Осиёда мустамлакачилик сиёсатидаги рақобатлари. – Тошкент: Камалак, 2018. – 120 б.
7. Boulger D. C. The life of Yakoob-Beg: Athalik Ghazi and Badaulet, Ameer of Kashgar. – London: W.H. Allen & Co., 1878. – 332 p.
8. Kim H. Holy war in China: The Muslim rebellion and state in Chinese Central Asia, 1864–1877. – Stanford, California: Stanford University Press, 2004. – 364 p.
9. Millward J. A. Eurasian Crossroads: A History of Xinjiang. – London: Hurst & Company, 2007. – 352 p.
10. Hopkirk P. The Great Game: On Secret Service in High Asia. – London: John Murray, 1990. – 565 p.
11. Sayrami M. The Tarikh-i Ҳамиди: A Late-Qing Uyghur History / Trans. by Eric Schluessel. – New York: Columbia University Press, 2023. – 452 p.

JIZZAX VILOYATI CHO'L HUDUDI TUMANLARINING MUSTAQILLIK YILLARIDA MADANIY HAYOT RIVOJI (DO'STLIK TUMANI MISOLIDA)

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

Guliston Davlat universiteti 1-kurs doktoranti

E-mail: gulchiroyumarqulova@gmail.uz

Tel: +998 90 229 78 58

ORCID:

Jizzax, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Jizzax viloyatining cho'l hududlaridan biri hisoblanadigan Do'stlik tumanida olib borilgan madaniy islohotlar va ularning istiqbolli natijalari haqida so'z yuritiladi. Cho'l hududlaridagi aholining farovon turmushi madaniy hayoti, nashr etilayotgan gazetasi, axborot-resurs narkazlari va musey faoliyati Jizzax viloyati Do'stlik tumani misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jizzax, Do'stlik tumani, madaniy hayot, mustaqillik yillari, "Do'stlik hayoti" gazetasi, "Do'stlik chamani" badiiy havaskorlik to'garagi, "Obod qishloq" davlat dasturi, Do'stlik tuman Axborot-kutubxona markazi.

THE DEVELOPMENT OF CULTURAL LIFE IN THE DESERT DISTRICTS OF JIZZAKH REGION DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE (ON THE EXAMPLE OF DUSTLIK DISTRICT)

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

First-year doctoral student, Gulistan State University

Jizzakh, Uzbekistan

Annotation. This article discusses the cultural reforms carried out in the Do'stlik district, one of the desert regions of Jizzakh region, during the years of independence, and their promising results. The cultural life of the population in the desert regions, the published newspaper, information and resource centers, and the activities of the museum are considered using the example of Do'stlik district of Jizzakh region.

Key words: Jizzakh, Do'stlik district, cultural life, years of independence, "Do'stlik Khayoti" newspaper, "Do'stlik chamani" amateur art circle, "Obod qishloq" state program, Do'stlik district Information and Library Center.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-04>

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek xalqi uchun milliy davlatchilikni tiklash bilan birgalikda mamalakatda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirdi. Mazkur islohotlar respublikamizning barcha viloyatlari va tumanlarida ijrosi ta'minlandi va buning natijasida ijobiy o'zgarishlar va rivojlanishlar kuzatildi. Masalan, Jizzax viloyatining cho'l hududlaridan biri hisoblanadigan Do'stlik tumanida ham mustaqillik yillarida keng qamrovli islohotlar olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, biz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga

asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat." – degan fikrlari xalqimizning turmush tarzini har tomonlama yaxshilash va milliy ruhda rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yilganini anglashimiz mumkin.[5.] 1970-yil 16-oktabrda tashkil topgan Do'stlik tumani Jizzax xalqining cho'lni o'zlashtirishdagi zahmatli mehnatlari va qardosh xalqlarimizning qo'llab-quvvatlashlari natijasida vujudga kelgan.[3;439-b.] Asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan, ayniqsa, paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan mazkur tuman aholisining turmush tarzi og'ir mehnat bilan o'tardi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq Do'stlik tumanining madaniy hayotida ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlandi. Do'stlik tumani tashkil topishi munosabati bilan 1971-yildan beri nashr etib kelinayotgan "Do'stlik hayoti" gazetasi tumandagi aholining ma'naviy-ma'rifiy hayotini boyitishga o'z hissasini qo'shmoqda. Mazkur gazetada tumanda olib borilayotgan islohotlar, rivojlanishlar, yangiliklar bilan birgalikda aholi turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan maqolalar chop etilib bormoqda. Aholiga qulaylik keltirish uchun elektron tarzda ham faoliyatini yo'lga qo'ygan.

Mustaqillik yillarida Do'stlik tumanida turli milliy bayramlar, festivallar va san'at tadbirlari o'tkazila boshlandi. Bu tadbirlar madaniyatni rivojlantirish, xalq an'analarini saqlab qolish va yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqilligimizning dastlabki yilidayoq ya'ni 1991-yilda Do'stlik tumani dehqonlarining irodasi va mehnati tufayli qishloq xo'jaligining barcha sohalarida belgilangan rejalar oshig'i bilan bajarildi. Paxtachilik yutuqlari esa hammasidan ziyod va quvonarli natijalar ko'rsatdi. Mazkur yutuqlarga o'z hissasini qo'shgan zahmatkashlarning barchasi mavsum oxirida xalqimizning boy merosi asosida nishonlanadigan "Hosil bayrami"ni xursandchilikda nishonlashdi. Mazkur bayramda o'zbek, qozoq, rus, tatar, tojik- tumanda istiqomat qiladigan 22millat kishilari ishtirok etishdi. Shu bilan birgalikda mehnatkashlarni tabriklash uchun qo'shni xalqlarimiz vakillari ham tashrif buyurishdi hamda turkiy xalqlarga xos ma'naviy qiyofani baxsh etuvchi ko'pkari musobaqasi uyushtirildi. Maydonda milliy ko'pkari musobaqasida viloyatning barcha nomdor polvonlari, qo'shni Qozog'iston chavandozlari va Tojikiston vakillari ot choptirib, o'z do'stliklarini yanada mustahkamladi.[2;1-b.] Mazkur tadbir orqali Vatanimiz mustaqilligining dastlabki yillaridayoq O'zbekistonning olib borayotgan islohotlarida xalqimizning boy turmush tarzi, madaniy hayotining rivoji, ildizi bir bo'lgan qo'shni xalqlarimiz bilan yahshi qo'shnichilik munosabatlari, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyili asosi amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Mustaqillik sharofari tufayli tumanda mahalliy san'atkorlar va yozuvchilarning ijodiy faoliyati faollashdi. Adabiy va san'at asarlarini yaratish, ko'rgazmalar va chiqishlar orqali milliy madaniyatni rivojlantirishga hissa qo'shildi. Do'stlik tuman madaniyat bo'limi qoshida 2000-yil 29-noyabrida tashkil etilgan "Do'stlik chamani" badiiy havaskorlik to'garagi buning yorqin misolidir. Madaniy hayotning bir qismi sifatida sport faoliyati ham rivojlandi. Turli sport musobaqalari, sport klublari tashkil etilib, yoshlarning jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratildi. Zamonaviy texnologiyalarni madaniy hayotga joriy etish orqali, ta'lim va madaniy tadbirlarda raqamli platformalar faol qo'llanila boshlandi. Bu yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratdi va madaniy tadbirlarni keng auditoriyaga yetkazishda yordam berdi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2018-yilda tumanning Manas qishlog'ida "Obod qishloq" davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan qurilish-ta'mirlash, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari natijasida 45 kun ishida ushbu tashlandiq qishloq

tanib bo'lmas darajada o'zgarib, o'z zamonaviy maktablari, sport maydonchalari, madaniyat saroyi, bozori, hammomi va boshqa infratuzilmalarga ega bo'lgan obod qishloqqa aylandi. Bugungi kunga kelib Manasdagi madaniyat saroyida tez-tez "Marjon" milliy xalq ansambli badiiy jamoasining konsert dasturlari, turli uchrashuvlar va davra suhbatlari o'tkazilib turiladi. [1;440-b.] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-oktabrda tasdiqlangan "2018-2019-yillarda Jizzax viloyati Do'stlik tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida" gi 851-son Qarori asosida tuman miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida salmoqli ijobiy o'zgarishlar va qurilish ishlari amalga oshirildi.[4;1-b.] Do'stlik shaharchasida Xotira bog'i, Yoshlar forumi, Tuman hokimligi qoshida aholi hordiq chiqarishi uchun ko'ngilochar xiyobon va favvoralar qurildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyunda "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli hamda viloyat hokimining 2019-yil 11-iyunda 226-sonli qarorlari asosida tuman xokimining 2019-yil 13-iyunda 994-sonli qarori tasdiqlanib Do'stlik tuman Axborot-kutubxona markazi tashkil qilindi. Axborot-kutubxona markazi qoshida kitob do'koni tashkil qilinib, kitobxonlar xarid qilishi uchun arzonlashtirilgan kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan. Bugungi kunda jami kitob fondi 25316 ta, gazetalar 9 nomda, jami foydalanuvchilar 17129 nafarni tashkil qiladi.[6.] Shuningdek, tuman aholisini ma'naviy va tarixiy bilimlarini oshirish maqsadida Do'stlik tuman tarixi muzeyi ochildi. Ma'lumot sifatida aytib o'tish joizki, ushbu tarixiy muzey 2024-yil 8-may kunda o'z faoliyatini boshladi. Muzey shinam, zamonaviy ko'rinishda bo'lib u yerda qariyb 53 yillik tuman tarixi yaqqol aks ettirilgan. Muzeydan joy olgan barcha eksponatlar o'z tarixiga ega bo'lib, deyarli barchasi tuman aholisi tomonidan sovg'a tariqasida hadya qilingan. Muzeyda nafaqat Do'stlik tuman aholisining boy tarixiy manbalari joy olgan, balki Qirg'iziston prezidenti tomonidan sovg'a qilingan qirg'izcha milliy gilam va qadimiy qamchi ham tarixiy muzeydan joy olgan. Bundan tashqari tuman tarixi aks ettirilgan kitoblar mavjudligi ham quvonarli hisoblanadi. Eng asosiysi Muzeyning tashkil qilinishi tuman aholisi uchun kelgusi avlod vakillari uchun ajoyib meros sifatida qarshi olindi. Xulosa qilib aytganda, Jizzaxning olis va ulkan cho'l hududlaridan hisoblangan Do'stlik tumani mustaqillik yillarida olib borilayotgan islohotlar natijasida rivojlanib, aholining madaniy turmush tarzi yahshilanib, ma'naviy-ma'rifiy sohalari rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdurahmonova M Mirzacho'lnoma-T.:Adabiyot,2021.440-bet.
2. Jo'raqulov K. Do'stlik dalasida otlar gurrosi."Jizzax haqiqati" gazetasi № 142(2949) 1991-yil 26-noyabr. 1-bet.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti-T.;2000.439-bet.
4. 851-сон 23.10.2018. 2018-2019-yillarda Jizzax viloyatining Do'stlik tumanini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida <https://lex.uz/ru/docs/-4013352>
5. <http://isrs.uz/oz/uzbekiston-yangiliklari/shavkat-mirziyoyev-jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>
6. <https://www.dostlik-akm.uz/page/kutubxona-tarixi>

ROSSIYA TEMIR YO'L TRANSPORT TIZIMI: SANOAT INQILOBI SHAROITIDA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Begaliyeva Aysha Karpijanovna

O'zMU Tarix fakulteti tadqiqotchisi

E-mail: aysha.1958@mail.ru

Tel: +7 702 550 9127

Olma-ota, Qozog'iston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat inqilobi davrida islohotdan keyingi Rossiyada temir yo'l transport tizimining rivojlanish xususiyatlari va sur'atlari aniq faktologik materiallar hamda statistik ma'lumotlarga asoslanib tahlil qilingan. Temir yo'llar qurilishi mamlakatning asosiy sanoat tarmoqlari tez o'sishini rag'batlantirgan va butunrossiya bozorining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: temir yo'llar, islohotlardan keyingi Rossiya, temir yo'l transporti, sanoat inqilobi, iqtisodiyotni qayta qurish.

THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM OF REFORMED RUSSIA: FEATURES OF DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF THE INDUSTRIAL REVOLUTION

Begaliyeva Aysha Karpijanovna

Researcher of the History Faculty of NUUz

Alma-Ata, Kazakhstan

Annotation. This article analyzes the nature and pace of development of the railway transport system in post-reform Russia during the industrial revolution, based on specific factual material and statistical data. The construction of railways is examined as a crucial factor that stimulated rapid growth in the country's main industries and exerted a significant influence on the formation of an all-Russian market.

Key words: railways, post-reform Russia, railway transport, industrial revolution, economic restructuring.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-05>

Kirish. Rossiyadagi sanoat inqilobi islohotdan keyingi dastlabki o'n yilliklarda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha nihoyatda notekis rivojlandi. Yirik mashina sanoatining eng yuqori sur'atlar bilan o'sishi yetakchi sanoat shahar markazlarida kuzatildi.

Rossiyadagi sanoat inqilobining xususiyati va rivojlanish sur'atlariga mavjud jahon iqtisodiy tizimi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Sanoat inqilobi davrida sanoat tuzilmasini qayta qurish xalqaro ixtisoslashuv xususiyatiga bog'liq edi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish infratuzilmasi - temir yo'l transporti, kema qatnovi, bug' energetikasi va boshqalar ichki bozorning shakllanishida asosiy vositalarga aylandi. Islohotdan keyingi Rossiyada temir yo'llarning ishga tushirilishi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga kuchli turtki bo'ldi.

XIX asrning uchinchi choragida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishida juda katta o'zgarishlar yuz berdi, bu esa dunyoning yetakchi mamlakatlarining ishlab chiqarish-iqtisodiy tuzilmasida chuqur o'zgarishlarga olib keldi. Mashina texnikasining izchil rivojlanishi va mehnat unumdorligining o'sishi ishlab chiqarishni tarmoq va hududiy joylashtirishda tub o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu jarayonda temir yo'l transporti muhim o'rin egalladi. Temir

yo'llar og'ir sanoatning asosiy tarmoqlarini jadal o'sishiga turtki bo'lgan qudratli omilga aylandi.

Asosiy qism. Transport inqilobi temir yo'llarning keng tarqalishiga olib keldi. Bu davrda temir yo'l qurilishi xalqaro miqyosda ishlab chiqarishni ommaviy kengaytirishning asosiy sohasi bo'ldi.

1860-yildan 1880-yilgacha jahon temir yo'l tarmog'i 108 ming kilometrdan 373 ming kilometrgacha, ya'ni 3,5 barobar o'sdi. Temir yo'llar katta mablag'lar sarf qilinadigan va og'ir sanoat mahsulotlari juda ko'p iste'mol qilinadigan eng yirik soha edi.

Temir yo'llar tufayli alohida davlatlar o'rtasida samarali iqtisodiy aloqalar ta'minlandi. Temir yo'l arteriyalari minglab kilometr uzoqlikdagi shaharlar, dengiz portlari va hatto qit'alarni bog'lay boshladi [1].

Bu davrda jahon temir yo'l qurilishida yetakchi o'rinni ingliz kapitali egallagan bo'lib, u temir yo'l investitsiyalari uchun relslar, parovozlar va sarmoyalar yetkazib berardi. Bu davrda temir yo'l qurilishining eng kuchli sur'atlari AQShda kuzatildi. 1860-1880-yillarda Amerika temir yo'l tarmog'i 3 barobar o'sdi - 49 mingdan 150 ming kilometrgacha yetdi.

Islohotlardan keyingi Rossiyada temir yo'l transport tizimining joriy etilishi haqiqatan ham zamonaviy sanoatning darakchisi, zamonaviy ilg'or mashina sanoatini yaratishning rag'batlantiruvchisi bo'ldi.

Krepostnoylik huquqi bekor qilingandan so'ng Rossiya iqtisodiyotini qayta qurish murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'ldi.

Bu davrda tashish xarajatlari shunchalik yuqori ediki, asosiy ommaviy tovarlarni uzoq masofalarga tashish imkoniyati yo'q edi. Ayniqsa ot-ulovda tashish xarajatlari juda yuqori edi. Masalan, 200-400 km masofaga otda don tashish narxi uning ishlab chiqarish joyidagi narxiga teng bo'lardi. 50-yillarning o'rtalarida bir pud Donetsk ko'mirini (antratsitni) 600-800 chaqirim masofaga tashish narxi ko'mir qazib olish joyidagi narxidan 8-10 barobar yuqori edi [2]. 60-yillarning ikkinchi yarmida Donetsk ko'mirini 350 km gacha bo'lgan masofaga otda tashish uchun to'lov ko'mir qazib olingan joydagi narxidan 5 barobar yuqori edi [3]. Shuning uchun Rossiya iqtisodiyoti uchun bug' transportini joriy etish orqali yuk tashishni arzonlashtirish masalasi nihoyatda dolzarb edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, islohotdan keyingi Rossiya xalqaro iqtisodiyotga tobora ko'proq jalb etildi. 60-yillarning ikkinchi yarmida Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarda joylashtirish osonlashdi. Faqat 1860-1870-yillardagi o'n yil ichida Rossiya eksporti 2 barobarga - 181 million rubldan 360 million rublgacha oshdi [4].

XIX asrning 60-yillari boshida keng jamoatchilik doiralarida, eksportchi-pomeshchiklar, savdo-sanoat doiralari va matbuotda hukumatga keng temir yo'l tarmog'ini zudlik bilan qurish bo'yicha talablar kuchaydi [5].

Islohotdan keyingi Rossiya uchun temir yo'l masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. 1865-yilda podsho Rossiyasida 3,5 ming chaqirim temir yo'l bo'lgan bo'lsa, Angliyada 22 ming kilometr, Fransiya va Germaniyada 14 ming kilometrdan, AQShda esa 56 ming kilometr temir yo'l bor edi [6].

Bu davrda hukumat doiralarida jahon tajribasini hisobga olgan holda xususiy temir yo'l qurilishiga xorijiy kapital oqimini rag'batlantirish dasturi ishlab chiqildi. Temir yo'l masalasini

muhokama qilish uchun temir yo'l siyosati rejasi va tamoyillarini ishlab chiqish bo'yicha Maxsus komissiya tuzildi.

1865-yil iyun oyida Temir yo'llar va jamoat binolari bosh boshqarmasi Temir yo'llar vazirligiga aylantirildi [7].

Xususiylar temir yo'l qurilishini moliyalashtirishning doimiy manbaini yaratish maqsadida podsho hukumati 1867-yilda davlat byudjetidan rasman ajratilgan maxsus kredit "temir yo'l fondi"ni tashkil etdi. Uni to'ldirishning asosiy manbai London va Parij pul bozorlarida sudxo'rlik bilan past kurslarda chiqariladigan, umumiy summasi 600 million rubllik daromadning hukumat kafolati bilan temir yo'l obligatsiya zayomlari edi. Bu fond mablag'laridan podsho xazinasi xususiylar temir yo'llarning aksiyalarini sotib olar, temir yo'l jamiyatlarining muassislari va boshqarmalariga turli xil ssudalar, subsidiyalar va "yordam"lar berar, davlat buyurtmalariga haq to'lar, zavodlarga relslar va harakatlanuvchi tarkib ishlab chiqarganligi uchun mukofotlar berardi.

1868-1872-yillardagi sanoat yuksalishi davrida chet el pul bozoridagi qulay vaziyat Rossiyaning temir yo'l sohasiga chet el ssuda kapitalining keng jalb etilishiga ko'maklashdi.

Rossiyada temir yo'l qurilishining konsessiya davri 15 yil, 1866-yildan 1880-yilgacha davom etdi. Bu davrda uzunligi 15 ming chaqirim bo'lgan xususiylar temir yo'llar qurish uchun 53 ta konsessiya berildi. Asosiy kapitali 717 million rubl bo'lgan 59 ta aksiyadorlik temir yo'l kompaniyasi tashkil etildi.

Biroq, 1880-yilda temir yo'llarning umumiy qiymati 1,8 milliard rubl bo'lsa-da, xususiylar temir yo'llarning qurilish kapitalarida xazinaning bevosita ishtiroki 80 foizni tashkil etdi. Temir yo'l jamiyatlarining xazina oldidagi qarzlari yig'indisi 1,1 milliard rublga, ya'ni ular qurilishining umumiy qiymatining 60 foizidan ortig'iga yetdi.

Islohotdan keyingi dastlabki o'n yilliklarda jadal temir yo'l qurilishi Rossiyaning rivojlanayotgan kapitalistik iqtisodiyoti uchun inqilobiy ahamiyatga ega bo'ldi. 1861-1880-yillarda temir yo'llar uzunligi 14 barobar oshib, 21 ming verstga yetdi. Natijada, markazi Moskvada bo'lgan Yevropa Rossiyasining birinchi keng tarmoqli temir yo'l tarmog'i yaratildi. U o'zaro bog'langan to'rtta asosiy temir yo'l tuguniga bo'lindi: Moskva, Boltiqbo'yi, Azov-Qora dengiz va G'arbiy tugunlar.

Janubiy tog'-kon sanoati rayonida temir yo'l tarmog'ining barpo etilishi Rossiya iqtisodiyoti uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu yerdagi birinchi temir yo'l liniyasi 1863-yilda qurilgan 71 km uzunlikdagi Grushevsko-Aksay temir yo'li edi. Ushbu yo'l qurilishini Donskoy qo'shinlari boshqarmasi amalga oshirdi, chunki liniya ularning yeridan o'tardi. Grushevsko-Aksay tog'-zavod temir yo'li ishga tushirilgach, undan yoqilg'i yuklarining katta-katta partiyalari tashila boshladi va bu yuklarning oqimi to'xtovsiz ortib bordi. 1863-yildan 1868-yilgacha bo'lgan birinchi besh yillikning o'zida tashilgan antratsit miqdori 3,5 barobar, ya'ni yiliga 1,7 million puddan 6 million pudgacha oshdi [8].

70-yillarda Janubiy Rossiyadagi temir yo'llar Donbassning toshko'mir sanoatini jadal rivojlantirishni rag'batlantirishning kuchli vositasiga aylandi.

Temir yo'l qurilishi Donbass ko'mir sanoatida gryunderlik "isitma"sining avj olishiga sabab bo'ldi. 70-yillarda yuzlab yangi shaxtalar va shtolnyalar qurildi, ko'plab tog'-kon sanoati korxonalari va kompaniyalari tashkil etildi. 1880-yilga kelib Janubiy tog'-kon sanoati rayonida 338 ta shaxta mavjud bo'lib, ular yiliga 86 million pudgacha ko'mir qazib olardi.

1878-yil oktyabr oyida Perm - Chusovaya - Nijniy Tagil - Yekaterinburg uchastkasida harakatni boshlagan, uzunligi 729 verst bo'lgan Ural kon-zavod temir yo'li Ural mintaqasining iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Shu vaqtgacha yagona transport vositasi daryo oqimi bo'lib, bu o'lkaning sanoat taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qilardi. Ural temir yo'li ochilgandan so'ng, Ural yuklarining asosiy qismi shu yerga yo'naltirila boshlandi.

G'arbiy Uralning toshko'mir sanoati rivojlanishi Ural kon-zavod yo'lining qurilishi bilan bog'liq. Temir yo'l ochilgandan keyingi olti yil ichida konlarning unumdorligi oldingi davrga nisbatan 8 barobar oshdi va o'sishda davom etdi. Toshko'mirning asosiy iste'molchilari Ural, Orenburg, Samara-Zlatoust temir yo'llari bo'ldi.

Ural temir yo'lining qurilishi ot-ulov transportining rivojlanishiga keskin ta'sir ko'rsatib, uni ancha qisqartirdi. Birinchi navbatda Sibir yo'lida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Faqat qishda u temir yo'l bilan "ulkan va shoshilinch bo'lmagan yuklarni" tashishda raqobatlasha olardi, yilning qolgan qismida tranzit yuklarning aksariyati temir yo'l orqali jo'natilardi.

XIX asrning 80-yillari boshiga kelib, temir yo'l tizimi Yevropa Rossiyasining 59 ta guberniya va viloyati, Janubiy Ural, Polshaning rus qismining keng hududlari, Finlyandiya, Shimoliy Kavkaz va Kavkazorti hududlarini qamrab oldi. Yevropa Rossiyasi hududining 45 foizidan ortig'i temir yo'llar ta'sir doirasiga kirdi [9].

Xulosa. Temir yo'l tarmog'ining jadal rivojlanishi Rossiya iqtisodiyotiga, butun Rossiya bozorining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi; hududiy mehnat taqsimotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi va ishlab chiqarishning eski usullari tubdan isloh qilindi. Temir yo'l transporti mamlakatning sanoat geografiyasini o'zgartirdi. Temir yo'llardan chetda qolgan hududlar hisobiga boshqa iqtisodiy rayonlar kengaydi, savdo yo'llarining yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi.

70-yillarda temir yo'l stansiyalari yaqinidagi yangi savdo-sanoat markazlari, fabrika qishloqlari ayniqsa jadal rivojlana boshladi. Mehnatkash aholining "harakatchanligi" iqtisodiy hayotning zaruriy shartiga aylandi. Temir yo'llar ishchilarning mamlakatning yangi rivojlanayotgan hududlariga ommaviy ko'chib o'tishini ancha yengillashtirdi.

Biroq 70-yillarning o'rtalarida temir yo'l xo'jaligidagi kamchiliklar namoyon bo'ldi. Rossiyaning aksiyadorlik kompaniyalari o'rtasida taqsimlangan temir yo'l tarmog'i iqtisodiy, texnik va foydalanish jihatidan yaxlit tizim emas edi. Hukumat tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar shuni ko'rsatdiki, Rossiya temir yo'llari turli xil qurilish texnik shartlariga, temir yo'l polotnosi, stansiyalar, stansiya yo'llari signalizatsiyasi va boshqalarning profillari hamda turlariga ega edi. Eng muhim tranzit yo'nalishlar turli texnik jihozlangan temir yo'l uchastkalaridan iborat edi. Xususiy temir yo'llardagi "tarif urushlari" og'ir oqibatlariga olib keldi, bu esa davlatning ko'p hududlarida savdo va sanoat hayotining normal kechishiga xalal berdi. Shu bilan birga, xususiy temir yo'l qurilishi keskin kamaydi. 70-yillarning oxiridan boshlab temir yo'l xo'jaligini markazlashtirish va davlat tasarrufiga o'tkazish nuqtai nazaridan tubdan qayta tashkil etish masalasi dolzarb bo'lib qoldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Техника в ее историческом развитии (70-е годы XIX – начало XX в.). –Москва: Наука, 1982. -С. 218.

2. Чупров А.И. Железнодорожное хозяйство. –Москва: тип. А. И. Мамонтова и К°, 1910. –С.16-17.
3. Фомин П.И. Горная и горнозаводская промышленность Юга России. Т.1. –Харьков: Тип. Б. Бенгис, 1915. -104, 122.
4. Соловьева А.М. Промышленная революция в России в XIX в. –Москва: Наука, 1990. – С.134.
5. РГИА. Ф.1272. Оп.3. Д.19. Л.3.
6. Соловьева А.М. Железнодорожный транспорт России во второй половине XIX в. – Москва: Наука, 1975. –С. 95.
7. История железнодорожного транспорта России. Т. I. 1836-1917. – Санкт-Петербург: Петербург. гос. ун-т путей сообщения, 1994. -С. 93.
8. Головачев А.А. История железнодорожного дела в России. - Санкт-Петербург: тип. Р. Голике, 1881. –С. 3-5.
9. Соловьева А.М. Железнодорожный транспорт России во второй половине XIX в. – Москва: Наука, 1975. -С. 120.

IQTISODIYOT FANLARI

KICHIK VA O'RTA BIZNES FAOLIYATINI STATISTIK BAHOLASHNING DAVLAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Nazarov Nazar,

Phd, Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti doktoranti
E-mail: nazarbek.2728@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta biznes faoliyatini statistik baholashning davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati o'rganilgan. Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rni, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari tahlil qilingan. Shuningdek, kichik va o'rta biznes faoliyatini statistik baholashning davlatning iqtisodiy siyosatini belgilashda, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda va aholining yashash turmush darajasini yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, o'rta biznes, davlat iqtisodiyoti, statistik baholash, tadbirkorlik, davlat siyosati.

THE ROLE OF STATISTICAL EVALUATION OF SMALL AND MEDIUM BUSINESS ACTIVITIES IN THE NATIONAL ECONOMY

Nazarov Nazar,

PhD student, Doctoral student at the Institute for
Advanced Training and Statistical Research

Annotation. This thesis studies the importance of statistical evaluation of small and medium business activities in the economy of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the role of small and medium businesses in the economy, the factors influencing their development, and the measures of state support. Furthermore, the thesis examines the significance of statistical evaluation of small and medium business activities in shaping state economic policy, developing the national economy, and improving the living standards of the population.

Key words: small business, medium business, national economy, statistical evaluation, entrepreneurship, state policy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-06>

Hozirgi globallashuv davrida yirik korxonalar bilan bir qatorda, kichik va o'rta biznesning (KO'B) roli yanada kuchaymoqda. Bu, ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda yaqqol ko'zga tashlandi, chunki ko'plab yirik korxonalar qisqarishga duch kelgan bir paytda, kichik biznes moslashuvchanligi va xarajatlarni tez nazorat qilish imkoniyati bilan iqtisodiy faoliyatni tiklashda muhim bo'ldi.

Kichik va o'rta biznes (KO'B) mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Ular yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy rivojlanishni ta'minlash va bozorni diversifikatsiya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli, KO'B faoliyatini statistik baholash davlat siyosatining

samaradorligini aniqlashda, iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni to'g'ri yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 10-noyabrdagi "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-sonli farmoni mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lib, unda kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yangicha tizim yaratib, tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlarning turini kengaytirish va bu orqali tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirib, aholi uchun bo'sh ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, milliy iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish, hududlar kesimida tadbirkorlikni rivojlantirish kabi masalalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan [1].

Kichik biznesni statistik jihatdan chuqur va tizimli baholash – bu sohaning rivojlanish darajasini, muammolarini, potensial imkoniyatlarini aniqlash va asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim vositadir.


Shuningdek, kichik biznesning zaruriyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda raqobat muhitini yaratadi;
- innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy yangilanishni tezlashtiradi;

- yirik sanoat korxonalariga yordamchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi (masalan, subpudratchilik);

aholining past daromadli qatlamlari uchun ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytiradi [2].

Kichik biznes – bu iqtisodiyotning tayanch ustunlaridan biri bo'lib, uni har tomonlama rivojlantirish uchun statistika asosida chuqur tahlil va baholash zarur. Ma'lumotlar asosidagi yondashuv nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ilg'or rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini ham beradi. Shu bois, davlatlar va tadqiqotchilar uchun kichik biznesni statistik baholash dolzarb va zaruriy ilmiy-amaliy yo'nalishdir.



1-rasm. Kichik biznesni statistik baholashda erishish mumkin bo'lgan asosiy natijalar

Kichik biznes qancha ish o'rni yaratgani, ularning yoshlar va ayollar orasida qanday taqsimlangani ko'rsatiladi.

Yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM) ulushi, eksportdagi hissasi, soliq tushumlari kabi ko'rsatkichlar asosida uning iqtisodiy og'irligi aniqlanadi.

Qaysi hududlarda kichik biznes rivojlangan, qay biri orqada qolmoqda – bu ma'lumotlar orqali mahalliy iqtisodiy siyosat shakllantiriladi.

Raqamli va aniq statistik ko'rsatkichlar asosida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqiladi (imtiyozli kreditlar, soliq yengilliklari va hk.).

Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholashda bandlik darajasi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bandlik – bu iqtisodiyotdagi ishlayotgan aholi sonini, shu jumladan kichik biznes sohasida yaratilgan ish o'rinlarini o'lchaydi [3]. Kichik biznes iqtisodiy faollikni ta'minlashda katta o'rin tutadi, chunki ular ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratadi va ayniqsa, rasmiy sektorda ishga joylashish imkoniyatlari cheklangan hollarda, shaxsiy tadbirkorlikka qarashli faoliyatlar ko'p hollarda bandlikni oshiradi.

Kichik biznes, ayniqsa, yangi ish boshlovchilar uchun imkoniyat yaratadi. Yosh tadbirkorlar ko'pincha startaplar va innovatsion sohalarda faoliyat yuritadilar, bu esa bandlikni yoshlar orasida taqsimlashga yordam beradi. Statistik tahlil orqali yoshlar orasidagi bandlik darajasi, o'zgarishlar va sohaning rivojlanish sur'atlari aniqlanadi.

Ayollar uchun kichik biznes ko'plab imkoniyatlar yaratadi, ayniqsa, oilaviy biznesda va mahalliy savdoda. Statistik baholash orqali ayollar orasida bandlik darajasi, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ulushi va iqtisodiy mustaqillikka erishishdagi roli aniqlanadi.

Ushbu yo'nalishda statistik baholashda quyidagi ko'rsatkichlarning ahamiyati katta:

- kichik biznesda ishlayotgan ishchilar soni;
- yangi ish o'rinlarining yaratilishi;
- kichik biznesga kirish va undan chiqish ko'rsatkichlari;
- yoshlar va ayollar orasidagi bandlik taqsimoti.

Kichik biznes milliy iqtisodiyotning mustahkam poydevorini tashkil etadi va ular mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga (YAIM) katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik biznesning iqtisodiy ulushini aniqlash orqali ularning iqtisodiy ahamiyati va og'irligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Kichik biznesning YAIMdagi ulushi o'zgarib turadi va bu ko'rsatkich har bir davrda statistik tahlil orqali aniqlanadi. Masalan, kichik biznesning o'sishi yoki qisqarishi, ularning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'lanishi haqida ma'lumotlar olish mumkin. Bu ko'rsatkich, shuningdek, iqtisodiy siyosat va strategiyalarga ta'sir qiladi [4].

Kichik biznesning eksportdagi hissasi davlatlararo savdoda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston kabi mamlakatlarda kichik va o'rta biznesning eksportga qo'shgan hissasini o'lchash orqali, qaysi sektorlarda rivojlanishning yuqori sur'ati mavjudligini va qaysi mahsulotlar yoki xizmatlar eksportga yaroqli ekanligini aniqlash mumkin.

Kichik biznes soliqlarni to'lash orqali davlat byudjetining shakllanishida o'z hissasini qo'shadi. Soliq to'lovlarining o'zgarishi kichik biznesning iqtisodiy faoliyatidagi o'zgarishlar va davlat iqtisodiyotiga ta'sirini ko'rsatadi [5].

Kichik biznesning hududiy taqsimlanishini tahlil qilish, ularning qaysi hududlarda rivojlanishi va qaysi hududlarda rivojlanishning sust bo'lishi haqida ma'lumot beradi. Hududiy rivojlanish, shuningdek, mahalliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda asosiy omillardan biridir.

Kichik biznes o'z faoliyatini hududiy bo'linishda turli darajalarda amalga oshiradi. Ayrim hududlarda, ayniqsa, shaharlarda, kichik biznes ko'proq rivojlanib borishi mumkin. Bunday hududlar ko'pincha infratuzilma, moliyaviy resurslar va talabning yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, qishloq joylarida kichik biznes ko'pincha mehnat resurslarini yaxshilash, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishga yordam beradi.

Rivojlanmagan yoki orqada qolgan hududlar ko'pincha kichik biznesni rivojlantirishda muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarda infratuzilma, bozor imkoniyatlari va kapitalga kirish oson emas, bu esa kichik biznesni rivojlantirishni qiyinlashtiradi.

Xulosa. Kichik va o'rta biznesni statistik baholash davlat iqtisodiyotidagi ahamiyati, uning rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu esa davlat siyosatini shakllantirishda, iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishda va moliyaviy qo'llab-quvvatlashni to'g'ri yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi.

Hududiy rivojlanishni statistik tahlil qilish, mahalliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda yordam beradi. Masalan, qaysi hududlarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari va subsidiya tizimlari joriy etilishi kerakligini aniqlash mumkin.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun davlat siyosati juda muhim. Statistik ko'rsatkichlar asosida kichik biznesga yordam beradigan dasturlarni ishlab chiqish, ularning samaradorligini oshirish va ularni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-sonli farmon, 2023-yil 10-noyabr.
2. Nazarov, N. "O'ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLANISHI." Молодые ученые 2.35 (2024): 30-32.
3. Nazarov, N. G. (2024). STATISTICAL INDICATORS OF ECONOMIC PRODUCTIVITY OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(14), 109-112.
4. Nazarov N. STATE SUPPORT MEASURES FOR ENHANCING THE EXPORT POTENTIAL OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 15. – С. 119-122.
5. Nazar, PhD Nazarov. "STATISTICAL RESEARCH METHODS OF BUSINESS ENTITIES IN FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN."

FILOLOGIYA FANLARI

SALJUQIYLAR DAVR ADABIY MUHITI RIVOJIDA TERMIZIY ALLOMALAR MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek

tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)

Tel: +998 99 131 51 93

E-mail: jamahmatovkaromiddin@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Saljuqiylar davrida shakllangan adabiy muhit, uning rivojiga Termiziy allomalarning ilmiy-ma'naviy merosi qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi. Termiziy allomalarning asarlari orqali bu davrda shakllangan fikriy maktablar, ruhiy-ma'naviy qadriyatlar va adabiy an'analarning taraqqiyoti o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Saljuqiylar, Termiziy allomalar, ma'naviy meros, adabiy muhit, tasavvuf, madaniyat, ilmiy maktablar.

THE ROLE OF THE SPIRITUAL LEGACY OF TERMEZIAN SCHOLARS IN THE DEVELOPMENT OF THE LITERARY ENVIRONMENT DURING THE SELJUK ERA

Jamahmatov Karomiddin Aynillo ugli

Doctoral Researcher (DSc) at Alisher Navoi Tashkent State

University of Uzbek Language and Literature

Annotation. This article analyzes the literary environment formed during the Seljuk period and examines how the spiritual and scholarly heritage of Termezian scholars influenced its development. Through the works of these scholars, the evolution of intellectual schools, spiritual and moral values, and literary traditions of that time is studied.

Key words: Seljuks, Termezian scholars, spiritual heritage, literary environment, Sufism, culture, scholarly schools.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-07>

Sulton Valad o'zining yetuk ilmiy salohiyati, aqli, tashqi ko'rinishi, ilmiy chanqoqligi, shaxsiy fazilati va ijodiy yo'nalishda otasi Mavlono Jaloliddin Rumiy va bobosi Bahouddin Valadga o'xshasa-da ilmiy-ijodiy va ruhiy tarbiya borasida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyga o'xshash tomonlari ko'p edi. Biz ushbu maqolada Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlari bilan Sulton Valad asarlaridagi adabiy ta'sir, badiiy va tasavvufiy motivlarning orifona tasvirlaridagi o'xshashlik, ijodkor g'oyalarining o'zro mutanosibligi, asarlarining manbalari genezisi, lisoniy xususiyatlari haqida tahliliy mulohazalarimizni bayon etishni maqsad qildik, chunki bu mavzuni ochib berish orqali Termiz ilmiy adabiy maktabining namoyanadalari merosining tarqalish jug'rofiyasiga oydinlik kiritamiz. Darhaqiqat, bugungi kunda olimlar tomonidan olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar natijasida 200 dan ortiq Termiziy mutafakkirlar dunyoning turli mamlakatlarda yashab ijodiy faoliyat olib borgan. Bu borada termiziyshunos olimlardan M. Kenjabek[6; 3-513-b.] va J. Cho'tmatovning[3; 4-389-b.] tadqiqot

ishlari tahsinga sazovor. Bundan tashqari "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari" katalogida o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan 34 ta termizlik mutafakkirning mamlakatimizda va 43 ta xorijiy mamlakatda saqlanayotgan 300 ga yaqin asarining 1419 ta qo'lyozmasi tavsifi o'rin olgan. [10; 3-26-b.]

Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, Termiziy mutafakkirlarning boy ilmiy-adabiy merosi dunyoning 43 ta mamlakatida saqlanib kelayotgan ekan. Ayniqsa, dunyoda o'zining boy merosi bilan keng shuhrat qozongan Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Adib Sobir Termiziy kabi ulug' darg'alarning asarlari ko'plab nusxalarda saqlanib kelishi ilmiy jamoatchilikka ma'lum. Bular qatori XII-XIII asrlarda Termiz zaminida yashagan – Sayyid Burhoniddin Termiziy (1165-1241) notakror asarlari va shaxsiy fazilati orqali ko'plab kishilarga ustozlik qilgani ayni haqiqat. Sayyid Burhoniddin Termiziy hayoti va ilmiy merosi borasida mahalliy olimlarimiz alohida maqolalar yozgan bo'lsa ham, biroq muallif hayoti va ilmiy merosini to'liq qamrab oluvchi tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan. Xorijlik olimlar esa bu zot haqida bir-muncha ilmiy ishlar yozganini ko'rish mumkin. Jumladan, turkiyalik va eronlik olimlar Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayoti va ma'naviy merosini keng qamrovda tadqiq etib kelmoqda. Mutafakkirning "Maorif" asari fors tilida yozilgan bo'lib, tasavvufshunos olim doktor Badiuzzamon Furuzonfar Istanbuldagi qo'lyozma nusxasi asosida ilk bor tadqiqi, tahqiqi va tas'hihini nashrga tayyorlagan. Badiuzzamon Furuzonfar tadqiqi asosida turk olimi Ali Riza Karabulut (1940–2018) 1995-yilda turk tiliga tarjima qilgan.

"Maorif" nomi bilan tanilgan ushbu asar Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning turli xil sabablar bilan aytilgan so'zlari va va'z-nasihatlaridan iborat. Mutafakkir asarni yozishda quyidagi manbalardan foydalanganini ko'rish mumkin:

1. *Qur'oni Karim;*
2. *Sihohi sitta;*
3. *Sahl ibn Abdulloh Tustariyning tafsiri;*
4. *Bahouddin Valad asarlari;*
5. *Tasavvuf ahli tomonidan yozilgan asarlar;*
6. *Mutasavvif shoirlarning she'rlari.*

Muallif o'z asarida ko'plab dalillarni Hasan Basriy, Hakim Termiziy, Horis Muhosibiy, Junayd Bag'dodiy, Mansur Halloj, Sahl ibn Abdulloh, Tustariy, Ibn Ato, Homid Termiziy, Bahouddin Valad, Sanoiy G'aznaviy, Shayx Attor, Robiyai Basriy, Ja'far Xuldiy va Usmon Mag'ribiy kabi ulug' zotlardan misol keltiradi.

"Maorif" asarining mavzu mundarijasini o'rganar ekanmiz, alloma aqoid, tasavvuf, tafsir, mantiq, siyrat, axloq kabi mavzularga o'ziga xos uslub bilan kirib boradi. Har bir mavzuni tushintirishda hayotiy voqealarga asoslanib yondashadi.

Bugungi kunga qadar mazkur asarning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud. Birinchisi, Uskudor Salimog'a kutubxonasining №567 raqamli katalogida saqlansa, ikkinchisi esa Ko'niya shahridagi Mavlono muzeyining №2118 raqami ostida saqlanib kelinmoqda. Asarning eng qadimgi nusxasi Mavlono muzeyidagi №2118 raqamli nusxasidir. Ushbu nusxa 1288-yilda Arg'un ibn Aydemir ibn Abdulloh nomli kotib tomonidan ko'chirilgan. Yuqorida ta'kidlangan nusxalar asosida adabiyotshunos olim.

Badiuzzamon Furuzonfar 1960-yilda Tehron universiteti bosmaxonasida nashr qildiradi. Turk olimi Abdulboqiy Gulpinarli 1973-yili fors tilidan turk tiliga tarjima qiladi.

Shuni aytish lozimki, Jaloliddin Rumiylar "Fiyhi mo fiyhi" ("Ichindagi ichindadir") asarini yozishda otasining va ustozining "Maorif" asaridan ta'sirlangan. "Fiyhi mo fiyhi" asarida Sayyid Burhoniddin Termiziy bilan bog'liq ayrim tasavvufiy qarashlar va manqibalar mavjud. Rumiylar "Masnaviy ma'naviy" asarida shunday deydi.

پخته گرد و از تغیر دور شو
رو چو برهان محقق نور شو

[5; 246-b.]

*"Pishgulu o'zgarma hech, manzur bo'l,
Sen chu Burhoni Muhaqqiq, nur bo'l".*

Jaloliddin Rumiylar Burhoniddin Termiziyni nafaqat "Masnaviy ma'naviy" asarida zikr etgan balki g'oyaviy qarashlaridan keng ta'sirlangan. Ruhiiy tarbiya borasida didaktik uslubda yozilgan, tasavvufiy axloqni tarannum etgan "Fiyhi mo fiyhi" asarida ham ko'p bora Termiziyni tilga oladi. "Bahouddin Valad va Xojagiy Javhargar o'rtasidagi voqea, shuningdek, ustoz bayon etgan "o'zlikni anglash, nafs pokligi, fano va boqo" borasidagi mavzularda Sayyid Burhoniddin Termiziydan iqtibos keltiradi. "Sayyid Burhoniddin shunday marhamat etardi. "Bir kishi kelib birov seni maqtaganini eshitdim, dedi. Men u qanday kishi va qanday ma'naviy maqomi borki, meni holimni bilarkan va meni tanir ekan? Agar meni qol bilan (tashqi ko'rinish va so'z bilan) bilgan bo'lsa, meni yaxshi bilmagan ekan, zeroki, bu so'z, bu harf, bu ovoz, lab va og'iz ham boqi qolmas. Bular zohir bo'luvchi narsalardir xolos. Amalu fe'l ham xuddi shunday. Agar mening zotimni (asliyatimni) tanigan bo'lsa, uning madhi mening haqimda to'g'ri ekanligi isbotidir". [4; 30-b.]

Bunda mutafakkir insonning asl javhari Allohning huzuridan olib keltirilganligini ishora etib, bizni yaratgan Yaratuvchini inson o'zligini anglash bilan tanishligini ishora qilgan. Rumiylar "Fiyhi mo fiyhi" asaridagi bosh konsepsiya ham shu. Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asaridagi g'oyalar ham o'zlikni anglashga, ma'naviy yetuklikka chorlashga, ilohiy ma'rifatni bilishga undaydi. Burhoniddin Termiziy tasavvufdagi bosh g'oya ubudiyat ekanligini ta'kidlab, ibodatdan maqsad esa "nafsni tarbiyalash" ekanligini izhor etadi. Ya'niki, inson o'z nafsini tanisa, yaratgan Robbisini taniydi. "Ibodotning mag'zi nafsning mag'lub bo'lishidir. Boshqa barchalari ibodatning qobig'idir. Nafsni yoqib-eritmagan ro'za va boshqa har qanday ibodat ibodat hisoblanmaydi. Ibodatda nafsga aziyat berish ibodatning shartidir. Avliyolarning nafslari qalbdadir. Dushmanlarning qalblari esa to'liq nafsdir. Mujohada – nafsdan Alloh taoloning roziligi yo'lida foydalanishdir. Mujohada – Allohning yo'lida insonlarga sadoqat sabablarini uzib qalb oynasini Allohning muhabbati bilan jilovlashdir". [7; 41-b.]

Sayyid Burhoniddin Termiziy "Maorif" asarida Jaloliddin Rumiyni otasidek ulug' zot bo'lishini xohlaydi. Burhoniddin Mavlono Jaloliddin Rumiylar xitoban shunday dedi: "Alloh taolo seni otangning (Bahouddin Valad) maqomiga yetkazsin. Zero, otangning maqomi ustun edi, Alloh seni darajangni uning maqomidan ustun qilsin". [7; 46-b.] "Fiyhi mo fiyhi" asarining boshqa bir o'rnida ibodat jarayonida o'qiydigan "at-tahiyot" duosini sharhini xuddi Burhoniddin Termiziy sharhlagani kabi so'fiyona sharhini keltiradi.

Burhoniddin Termiziyning "Maorif" asarining ko'plab joylarida Hakim Termiziyning asarlaridan foydalanilgani hamda tasavvufiy qarashlaridan keng ta'sirlanganini ko'rish mumkin. "At-tahiyot" borasidagi sharhlarning o'zaro ham mazmunligi Hakim Termiziyning "As-solatu va maqosiduhu" ("Namoz va uning maqsadlari") asarida shunday keltiradi. "Johiliyat

davrida mushriklarning kichik butlari bo'lib, qayerga borsalar, o'zlari bilan olib ketar va ularning yuzlarini artib qo'yishib: «Sening boqiy hayoting bor», deyishar edi». [1; 22-b.]

Burhoniddin Termiziy esa shunday keltiradi: Hasan Basriy¹ roziyallohu anhu aytadilar: Johiliyat davrida bir qancha butlar bor edi. Ular butlariga: "Cheksiz hayot sizlar uchun bo'lsin"², – deyishardi. Muallif o'z fikrini teranroq bayon etish hamda tasdiqlash maqsadida iqtibos va darj kabi san'atlardan foydalangan. Mutasavvif shoirlar va olimlarning asarlarida Qur'oni karim, Hadisi sharif va so'fiylar maqollaridan misollar keltirish tarixiy an'anadir. Mutafakkir mana shu uslub asosida "Morif" asarini yozadi. Asar mavzu mundarijasi boshqa tasavvufiy asarlar qatori odob-axloqqa qaratilgan bo'lib, kitobning ikkinchi qismida "Muhammad" va "Fath" surasining tasavvuf ahliga xos tafsirini keltiradi.

Umuman olganda, "Fiyhi mo fiyhi" asarining genezisi Qur'on, Hadisi sharif, Bahouddin Valad va Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning "Maorif" nomli asarlari tashkil etadi.

Jaloliddin Rumi asarni yozishda tarixiy shaxslar, ulug' zotlar manoqibining xronologiyasi, tasvirlar o'xshashligi, iqtiboslarning o'zaro mutanosibliigi va g'oyalar hammazmunligiga alohida e'tibor qaratgan. *Valiy, murshid, mujohada, nafs, mushohada, ishq, mahbub, majzub, aql, muhabbat, g'azab, g'aybat, ne'matlar, kamolot, imyon* kabi tasavvufga xos bo'lgan mavzular har ikki mutafakkir asarida mazmunan hamohangligi bilan ajralib turadi.

Sulton Valad³ o'z asarlarida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning *مثل سلطان الواصلين سيد برهان الدين محقق ترمذی* (Haq vaslini topganlarning sultoni Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy), [8; 21-b.] – unvoni bilan eslaydi.

Sulton Valadning "Maorif" nomli asari Bahouddin Valad, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy, Mavlono Jaloliddin Rumiyning payravligida yozilgan bo'lib, Mavlaviya tariqatining muhim nazariy manbalaridan sanaladi.

Sulton Valad turkiy va forsiy adabiyotda o'zining boy ma'naviy merosi bilan keng shuhrat topgan. Bu zot buyuk mutasavvif olim, zullisonayn shoir, mavlaviya tariqatining murshidi va olimidir. Mutafakkir 1226-yili Turkiyaning Karmana shahrida Jaloliddin Rumiylar oilasida dunyoga keladi. U dastlabki ilmlarni bobosi – Bahouddin Valad, otasi – Jaloliddin Rumiylar

¹ Hasan Basriy hazratlari tobein naslining ulug'laridan bo'lib, zuhd va taqvo bilan mashhur bo'lgan avliyolardandir. U 21-hijriy yilda Madinada tug'ilib, 110-hijriy yilda Basrada vafot etgan. (Hilyatul avliyo, 2/131-161; Tabaqotul kubro, 1/25)

² Ya'ni johiliyat davridagi arab mushriklari o'z butlariga sig'inib, ularga ibodat qilardi. Shu bilan birga ulardan najot so'rardi. Alloh taolaga hamd aytish, unga ibodat qilish, najot so'rash o'rniga, johilliklari tufayli butlarini o'zlariga iloh qilib olgandi.

³ Jaloliddin Rumiyning munosib vorisi, o'g'li Sulton Valad Sharq mumtoz shoirlari ichida "Mavlaviya" tariqatini yoyishga salmoqli hissa qo'shgan. U 1226-yil Ko'niya shahrida dunyoga kelgan. Jaloliddin Rumiylar yoshligidan o'g'lini otasi Sultonul ulamo Bahouvalad tarbiyasiga topshiradi. Bobosidan ilm yo'lida fayzu futuh olgan yosh Sulton Valad, keyin Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy ilmiy-irfoniy suhbatlaridan bahramand bo'ladi. Rumiylar farzandi tarbiyasiga befarq bo'lmasdan, uni zamonaning ko'plab ustozlariga shogirdlikka beradi. Sulton Valad "Masnaviyi ma'naviy" va "Maorif" asarlarining irfoniy qarashlaridan ta'sirlanib, "Valadnoma", "Rubobnoma", "Ibtidonoma", "Intihonoma" kabi orifona ma'nolarga boy asarlar yozadi. Bundan tashqari ilmiy va adabiy ahamiyatga ega bo'lgan "Ilmnoma" asari ham bor. Sulton Valad o'z asarlarida Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hazratlarini yuksak hurmat bilan tilga oladi. Buyuk mutafakkirning asarlari mavzu-mundarijasi islomiy odob-axloqqa qaratilgan. U "Mavlaviya" tariqati qarashlarini nazariy jihatdan butun kitobxonga tushuntirgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam na'ti, chahoryorlar madhi, avliyolar siyrati va pandnoma mazmunli she'rlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Fors va turk tilida ijod qilganligi uchun zullisonayn shoir, deb qaraladi. Bu zot umrining oxirigacha taqvo-parhezni mahkam tutib, ijod qilishdan to'xtamadi. Sulton Valad 1312-yil Ko'niya shahrida vafot etadi.

va ustoz – Sayyid Burhoniddin Termiziydan oladi. Tasavvuf, kalom, mantiq, islomiy fiqh, aqoid, falsafa, she'riyat, balog'at, tafsir va hadis ilmlarida o'z zamonasining ko'zga ko'ringan olimlaridan edi. Mavlaviya tariqatining ijodatini otasining shogirdi – Hisomuddin Chalabiydan oladi. Valad tarbiyasida Sayyid Burhoniddin Termiziy bilan birgalikda Shams Tabreziyning ta'siri kuchli bo'lgan. Sulton Valad qalamiga mansub asarlar garchi aksariyati fors tilida yozilgan bo'lsa-da, shoirning devonida turkcha-forscha, rumcha-forscha aralash baytlarni uchratish mumkin. Uning "Ibtidonoma" (1291-y), "Rubobnoma" (1301-y), "Intihonoma" kabi masnaviy janrida yozgan asarlari ma'no-mazmun jihatidan mavlaviya tariqatining qonun-qoidalari, rashhalari, sayru sulugini va shu tariqat arboblarning manobini bayon etib beradi. "Maorif" nomli asari esa nasriy bayonda yozilgan bo'lib, Burhoniddin Termiziyning ma'naviy qarashlari ko'proq ko'zga tashlanadi. Shoirning "Rubobnoma" asarida 156 baytni tashkil qiladi. Mazkur asardagi turkcha she'rlar 1301-yilda Kichik Osiyoda yozilgan. Shoirning turkiy devonini birinchi marotaba 1925-yili Valad Chalabiy Izbudaq "Devoni turkiyi Sulton Valad" nomi ostida she'rlarini jamlab devon holiga keltiradi. Turk adabiyotshunosi Majdud Mansur o'g'li 1958-yili esa "Sulton Valadning turkcha manzumalari"ni tayyorlab nashr ettiradi. Ushbu asar adabiyotshunoslikda "ilk saljuqiylar she'rlari" nomi bilan ham tilga olinadi. Sulton Valad turkiy tilda yozgan ushbu asari turkiy adabiyotning Kichik Osiyoda yanada rivojlanishiga hamda Mavlaviya tariqatining keng yoyilishiga sababchi bo'ldi. Shoirning turkcha g'azallari ko'proq ilohiy muhabbatni tarannum etadi. G'azallari tili sodda, ravon, xalqchil va ohangdorligi yuqoridir. "Qaro qoshlar" nomli g'azalida shoir takror san'atidan foydalanib, sodda so'zlar orqali oshiqning ma'shuqqa bo'lgan dardi dilini oshkor etadi.

*Qaro qoshlar, qaro ko'zlar jonim oldi, jonim oldi,
Musulmonlar nedir bu, kim menga keldi, menga keldi?...*

*Yoki,
Seni yuzing quyoshdir, yo'qsa oydir,
Jonim oldi, ko'ngil dag'i ne aytur?..
Valad yo'qsil edi sensiz jahonda,
Seni topdi, demakki endi boydir.*

Yoki otasi Mavlono Jaloliddin Rumi haqida aytadiki, uning valiyi barhaq ekanligini biling, tariqat yo'lida sizga nima buyursa shuni qiling.

*Mavlonodur avliyoi barhaq, biling,
Ul neni buyursa gar, uni qiling.
Tangridan rahmatdir aning so'zlari,
Tinglasa ko'rlar – ochilgay ko'zlari.
Qay kishikim bu so'zla yo'l olgay,
Tangri aning mukofotin tom bergay... [2; 56-b.]*

Darhaqiqat, Sulton Valad o'z davrida sarmahsul ijodkor bo'lib, uning asarlari bugungi kunga qadar mavlaviya tariqatining sir-asrorlarini keng kitobxonlarga yetakazishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, Sayyid Burhoniddin Termiziy va Jaloliddin Rumiylarning asarlarini tushunish uchun Sulton Valadning asarlariga murojaat qilish kerak. Chunki shoirning asarlari ushbu ulug' zotlarning asarlari tilini sharhlash uchun kalit vositasini bajaradi. Mavlaviya tariqatining muhim tasavvufiy manbasi sifatida Sulton Valadning "Maorif" nomli

asarini keltirish mumkin. Ushbu asar orqali Kichik Osiyo, Xuroson diyorlarida Mavlaviya tariqati tarqalib keng shuhrat qozondi.

Sulton Valadning “Maorif” asari genezisini asosan Qur’on oyatlari, Hadisi sharif namunlari, mazhabboshilar ra’yi, mutasavvif zotlar qarashlari, ustozlarining asarlari mazmuni hamda shaxsiy tafakkuri va ijodiy yondoshuvi tashkil etadi. Sulton Valad va Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlaridagi o’xshashlik jihatlari birinchi o’rinda asarlardagi istifoda etgan manbalar bo’lsa, ikkinchidan uning va’z-nasihatlaridan olingan ruhiy ta’sir, uchinchidan har ikki “Maorif” asarida qullanilgan ijodiy uslub, to’rtinchidan keltirilgan ibratli qissalarning o’xshashligi, beshinchidan lisoniy bayonning mutanosibli, oltinchidan Burhoniddin Termiziyni ko’p bora “ustoz”, “ma’naviy murshid” va mavlaviya tariqatining ulug’ mutafakkiri sifatida tilga olinganligi.

Misol uchun Sulton Valad “Maorif” asarining birinchi faslida holning muhimligi haqida so’z yuritgan bo’lsa, Burhoniddin Termiziy esa ruhiyatni poklash uchun zikrning muhimligini ta’kidlaydi. G’azabni jilovlash mavzusidagi hazrat Ali (r.a.) bilan bo’lgan voqeaning o’xshashligi, adabiyotning bosh g’oyasi bo’lgan axloqiyot mavzusining muhim tayanchi – Payg’ambarimiz (s.a.v) “maqomi mahmud”ga ko’tarilishi yoki samo’ (so’fiylarning o’ziga xos raqsi) borasida Sulton Valad asarining uchinchi faslida shunday deyilgan: “Samo’dan uning maqsadi ishrat emas balki, ilohiy qurbdir”. [9; 21-b.] Termiziy nazdida esa samo orqali banda mukoshafa va mushohada maqomiga erishishni aytadi.

Sulton Valad “Morif” asaridagi badiiy obrazlarning barchasi tasavvufiy motivlarni ifoda etish uchun qullanilgan. Valiy zotlarni – daryo kabi oqib turuvchi va insonlarga manfaat yetkazuvchi shaffof suv desa, avom xalqni esa – sahro, cho’l, biyobonga o’xshatadi. Chunki sahroda aziyat bor. Daryoda esa ham tabiat uchun ham xalq uchun manfaat bor.

Ushbu ikki asarda keltirilgan she’riy parchalarda ham o’xshashlik seziladi.

Burhoniddin Termiziyning “Maorif” asarida,
“*قوھ از دارون با فوqavu tab’ az berun ba barg,*
Dev az xurish bahizavu قامued noshto. [11; 5-b.]

Mazmuni: Ruh botinda och, tabiatimiz esa yayrashda, shayton esa to’q, Jamshed hamon nonushtada.

Sulton Valad “Maorif” asarida esa,
“*قوھ از دارون با فوqavu tab’ az burun ba barg,*
Dev az xurish tuxmavu قامued noshto. [9; 41-b.]

Ushbu bayt orqali inson ruhiy olami bilan jismaniy olami o’rtasidagi farqlar bayon qilingan. Nafsi ammora semirishni xohlasa, ruh esa mu’tadillikni xohlaydi. Inson ruhi doimo ishq uchun foqa (och kishi) kabidir, shayton esa oshiqlarni sarson qilib, yo’lini tusish bilan ovora, oshiq inson Jamshed kabi bu yo’ldan yetarlicha boxabar.

Valad tavid orqali insonlarni sog’lom e’tiqodga chorlab, Allohning qudratini har bir yaratilardan ko’rish imkoni barchada bor ekanligini ko’p bora takrorlaydi. Arabcha keltirilgan ushbu fikrlari buning isbotidir.

الحق أظهر من الشمس، فمن طلب البيان بعد العيان فهو في الخسران
[9; 41-b.]

“Alloh taoloning qudrati quyoshdan ko’ra oshkor va zohirdir. Har kim yana quyoshning borligiga dalil izlasa, o’zi ziyon qilguvchidir”.

Hadislarni sharhlashda mutafakkir uslubiy, lisoniy va estetik mahorat jihatidan ko'zlangan maqsadga erishgan. Har bir hadis matnidan so'ng, tarjimasi bilan birgalikda undan ko'zlangan botiniy ma'no – so'fiyona xarakterni ko'rsatib berilgan.

إذا أحببت عبدا كنت له سمعا

(*Agar bir bandani sevsam men uni eshitadigan qulog'i bo'laman*). Ya'niki, agar banda meni ixlos bilan ibodat qilsa, o'zganing muhabbatini qalbida joy bermasa, uning qalbini o'zgadan poklayman va uni o'zimga mahbub etaman. Mavlaviya tariqatida boshqa tariqatlar kabi ishq mavzusi aql bilan birga naql va hissiyotga tayaanadi. Bu tariqatda foniy bo'lmoq, naqshbandiylar kabi boqiylik sari yo'l olmoq kabiidir.

Foni zi xudu ba do'st boqi,

In turfa ki nestandu hastand. [9; 66-b.]

Mazmuni: O'zligidan kechib, do'stga yetishgan zotlar doimiy hayot topadilar, bularning aksi esa olamda yo'qdek yashaydilar.

Lisoniy jihatdan qaralganda, Burhoniddin Termiziy qullagan ismlar, oriflar hayotiga xos bo'lgan voqealar bayoni, majoziy so'zlar va sifatlar Valadning "Maorif" asarida kengroq qilib yoziladi. Mutafakkir inson ruhini quyoshga qiyoslab jismini yulduzlarga o'xshatadi. Bu kabi tashbehlar orqali inson olamini bilishga xos bo'lgan tasvirlarni tez ilg'ab olishga yordam beradi. Valad Qur'oni karimni tafsir qilishda xuddi ustoz kabi yo'l to'tganini alohida qayd etish zarur. Oyatlar matni bilan birgalikda tarjimasi va uning irfoniy tafsirini berishi, har bir masalani hadis va ulamolar qavli bilan yoritib borishi, asarning ilmiy qimmatini oshirgan. "Chun ajali olam ba oxir oyad, on ro'z qiyomat ast, osmon ki sar ast, pora-pora shavad va bishkofad" [9,69] (Olamning umri yakuniga yetsa, ana shu kun qiyomatdir, osmon gumbazi parchalanib portlash yuz beradi). Qiyomat mavzusi borasida "Infitor", "Takvir", "Inshiqoq", "Qori'a" kabi suralarning oyatlaridan foylanib, tasvvufiy ruhda fikrini bayon etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Burhoniddin Termiziy va Sulton Valad asarlaridagi mavzular mohiyati va uslubiy qurilishi, manbalar genezisi, bayonlar ifodasi o'rtasida har tomonlama yaqinlikni ko'rish mumkin. Tasavvufiy, falsafiy, tarixiy, fihiy, e'tiqodiy va lisoniy jihatdan ikki asar ham Mavlaviya tariqatining sayru sulukini nazariy jihatdan tushuntirib beruvchi ilmiy-manbalardandir. Sulton Valad ustoz – Burhoniddin Termiziyning tasavvufiy g'oyalaridan shunchalik, ta'sirlanganki, uning har bir asarida Sayyid Burhoniddin Termiziyning "Maorif"da qullanilgan bayonlari ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abu Abdulloh Hakim Termiziy. As-solatu va maqosiduhu (Namoz va uning maqsadlari)/Tarjimon, so'zboshi va izohlar muallifi. M. Joniyev. – Termiz: Kitob nashr, 2024.
2. Adhambek Alimbekov. Turk adabiyot tarixi. – Toshkent: ToshDSHI nashriyoti, 2005.
3. J. Cho'tmatov. Termizning bezavol qal'alari yoxud Termiz tarixi. – Toshkent: Yangi nashr, 2017.
4. Jaloliddin Rumiy. Fiyhi mo fiyhi/ bo tas'hihot va havoshii Badiuzzamon Furuzonfar. – Tehron: Intishoroti Nigoh, 1365.
5. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma'naviy/ bo sa'yu ehtimomi Rinald Nikolson. – Tehron: Shahri kitob, 1380.

6. Mirzo Kenjabek. Buyuk Termiziylar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
7. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy/ so'zboshi, tarjima va izohlar muallifi K.Jamahmatov. – Termiz: Kitob nashr, 2024.
8. Sulton Valad. Valadnoma/ Ba tas'hihi ustod alloma Чалолиддин Хумой. – Tehron: Intishoroti Iqbol, 1376.
9. Sulton Valad. Maorif/ ba ko'shishi Najib Moyil Hiraviy. – Tehron: Intishoroti Mavlo, 1419.
10. Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari. – Toshkent: Fan, 2018.
11. Hoqoniy. Devoni Hoqoniy – Tehron: Tahuriy 1338.

O'ZBEK VA ISPAN TILLARIDAGI FRAZEMALARNING QIYOSIY TAHLILI

Maxamatqulova Zarina

Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Har bir tilning boyligi va o'ziga xosligi, avvalo, uning frazeologik birliklarida – iboralar, maqollar, matallar, idiomalar va boshqa barqaror birikmalarda aks etadi. Mazkur maqolada o'zbek va ispan tillaridagi frazeologik birliklar semantik va struktur jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, bu birliklardagi umumiyliklar va farqlar, ularning xalq mentalitetidagi o'rni, ma'no ko'chish mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, muqobil tarjima, barqaror iboralar, idiomalar.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS IN UZBEK AND SPANISH LANGUAGES

Maxamatqulova Zarina

The teacher of English language

Annotation. The richness and uniqueness of any language are primarily reflected in its phraseological units—stable expressions, proverbs, sayings, idioms, and other fixed word combinations. This article presents a comparative analysis of phraseological units in the Uzbek and Spanish languages from both semantic and structural perspectives. It also examines the commonalities and differences between these units, their role in the national mentality, and the mechanisms of meaning translation.

Key words: phraseological units, equivalent translation, stable expressions, idioms.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-08>

Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlar va mentaliteti bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, turli tillardagi frazemalarni qiyosiy tahlil qilish tilshunoslikda, ayniqsa, tarjima nazariyasi, til o'rgatish va madaniyatlararo kommunikatsiya nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Frazeologik birliklar – bu ma'nosi tarkibiy qismlarining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan farq qiluvchi, barqaror tuzilishga ega bo'lgan iboralardir. Masalan, o'zbek tilidagi **“boshi osmonda”** iborasi kimningdir o'zini juda yuksak tutishini bildirsa, ispan tilidagi **“estar en las nubes”** (bulutlarda yurmoq) iborasi kimningdir xayoli parishonligini anglatadi.

Frazeologik birliklarni har ikki til doirasida quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:

Idiomalar (mazmuni to'la ko'chma ma'noda);

Barqaror iboralar (qisman ko'chma ma'noga ega);

Maqollar va matallar (xalq og'zaki ijodi mahsuli bo'lib, umumlashtirilgan fikrni ifodalaydi).

O'zbek va ispan tillarida frazeologik birliklar madaniyat, urf-odat, turmush tarziga bog'liq holda shakllangan. Ko'pincha ular bir xil fikrni ifoda etsada, bunda ishlatilgan obrazlar farqli bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida kimgadir juda xafa bo'lgan odam haqida **“qon bosimi oshdi”** deb aytiladi. Bu ibora insonning ruhiy holatini fiziologik o'zgarish orqali tasvirlaydi. Ispan tilida esa shunday holat **“echar humo por las orejas”** ya'ni “quloqlaridan tutun chiqarmoq” shaklida ifodalanadi. Bu esa metaforik, ya'ni ko'zga ko'rinmas tuyg'uni kuchli tasvir orqali ifodalashga intilishdir.

Yoki inson quvonchdan to'lib-toshib yurgan paytda, o'zbek tilida *"ko'ngli tog'dek ko'tarildi"* iborasi ishlatiladi. Bu yerda "tog'" obrazidan foydalanish orqali quvonchning yuksakligi ifodalangan. Ispan tilida esa shunday holat *"estar como unas pascuas"* (ya'ni "katta bayramdek quvnoq bo'lish") degan ibora orqali beriladi. Bu ibora ispan xalqining diniy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan Pasxa bayrami bilan bog'liq bo'lib, bayramdagi quvonch bilan taqqoslanadi.

Shuningdek, odam xayolchan bo'lganida, o'zbek tilida bu holat *"boshqa dunyoda yuribdi"* tarzida ifodalanadi. Bu ibora insonning fikri hozirgi holatdan uzilib ketganligini bildiradi. Ispan tilida esa bu holat *"estar en las nubes"* ya'ni *"bulutlarda yurmoq"* shaklida aytiladi. Har ikki ibora xayolchanlikni bildiradi, ammo birida mistik obraz ("boshqa dunyo"), ikkinchisida esa tabiat obraz ("bulut") ishlatiladi.

Ko'p gapiradigan odamni o'zbeklar *"choychaqa gap qiladi"* deb ta'riflaydi. Bu ibora milliy choy ichish madaniyati bilan bevosita bog'liq. Ispan tilida esa bu kabi odam *"hablar por los codos"* — *"tirsaklari bilan gapiradi"* deyilganidek tasvirlanadi. Bu yerda esa tana harakati orqali ifoda berilgan, ya'ni ispan xalqining ekspressivlikka moyilligi seziladi.

Yuqoridagi misollar shuni ko'rsatadiki, har ikki til bir xil fikrni ifoda etishda turli obrazlardan foydalanadi. Bu esa o'z navbatida har bir xalqning **mentaliteti, madaniy qadriyatlari va tasavvur doirasi** bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda aynan mana shu madaniy tafovutlarni hisobga olish lozim. Chunki to'g'ridan-to'g'ri tarjima ko'pincha tushunarsiz yoki noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin.

Bu yerda ko'rinadiki, umumiy semantik yondashuv bor, ammo ifoda uslubi har bir tilning obrazli tafakkuri bilan belgilangan.

Shuningdek, tilshunoslikda odam ta'na a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar ham mavjud. Masalan, *bosh* so'zi bilan bog'liq bo'lgan iboralar "boshi qotmoq", "boshi ochiq", "boshdan oyoq", "boshi qotmoq", *yurak* so'zi bilan bog'liq bo'lgan iboralar "yuragidan urmoq", "yuragi dov bermoq", "yuragi urmoq" kabi, bundan tashqari, ko'z komponentli "ko'z-quloq bo'lmoq", "ko'zini yog' bosmoq", "ko'zi to'rt bo'lmoq" kabi bir qancha iboralarni keltirishimiz mumkin. Bunday iboralar tilshunoslikda somatizmlar yoki somatik komponentli frazeologizmlar deb ataladi. Bunday iboralar nafaqat bir til doirasida, balki bir nechta tillarni qiyoslash, taqqoslash orqali ham o'rganilgan. A.Isayev, O.Nazarov, Sh.Usmonova, H.Alimovalar kabi tilshunos olimlar somatik komponentli iboralarni tadqiq etishgan.

O'zbek tilida "ko'z", "yurak", "og'iz", "qo'l" kabi tana a'zolari ko'p ishlatilsa, ispan tilida esa "cabeza" (bosh), "manos" yuy (qo'l), "ojos" (ko'z), "nariz" (burun) obrazlari keng tarqalgan.

Masalan:

O'zbekcha: *Yuragi hovuchiga sig'maslik* – juda qo'rqmoq;

Ispancha: *Tener el corazón en la boca* – yuragi og'ziga chiqmoq.

Bu frazemalarning semantik asoslari o'xshash bo'lsa-da, obrazlar o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Inson tana a'zolari asosida shakllangan frazeologik birliklarga somatik iboralar deyiladi. Ko'rinadiki har ikkala tilda ham somatik iboralar juda ko'p uchraydi. Yuqorida guvohi bo'lganimizdek, obrazli iboralar ifoda planiga ko'ra ko'proq tana a'zolari yordamida shakllanadi.

Har bir millatning o'zligini va madaniy belgilarini o'zida aks ettiruvchi bir qancha frazeologik birliklar mavjud bo'lib ular quyidagi frazeologik birliklarda o'z aksini topadi.

Ba'zi frazemalar faqat ma'lum bir millatning madaniy markerligi asosida shakllanadi va o'z xalqiga xos ijtimoiy-madaniy kontekstda namoyin bo'ladi.

O'zbekcha: *Bir piyola choy ustida gaplashmoq* – samimiy suhbat qilish;

Ispancha: *Hablar por los codos* – haddan tashqari ko'p gapirish (so'zma-so'z: tirsak bilan gaplashmoq).

O'zbek tilida choy ichish madaniyati frazemalarda o'z ifodasini topsa, ispan tilida jestlar va tana harakati asosiy obraz bo'lib xizmat q

Ko'plab o'xshash iboralar grammatik tuzilishi jihatidan ham qiyoslanadi:

O'zbekcha	Ispancha	Tuzilishi
Qora kunlar uchun	Para los días difíciles	+ uchun / para
Qo'liga tushmoq	Caer en sus manos	+ga tushmoq / caer en

Ko'rinadiki, har ikki tilda ham predikativ barqarorlik saqlanadi, lekin so'z tartibi, yordamchi fe'llar farqli.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ispan tillaridagi frazeologik birliklar xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini ifoda etuvchi muhim vositalardir. Ular orqali ikki til orasidagi umumiylik va farqlarni ko'rish, madaniy tafakkurni tahlil qilish, tarjima jarayonlarida muvofiqlikni ta'minlash mumkin.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha:

Har ikki tilda ko'plab obrazlar (tana a'zolari, tabiat hodisalari) faoldir;

O'xshash semantik g'oyalar turli frazeologik shakllarda ifoda etiladi;

Milliy mentalitetga xos iboralar ko'proq tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diradi;

Ispan va o'zbek tillari frazemalari madaniy tafovutlarni aks ettiruvchi, ammo shu bilan birga insoniy tajribalarni umumlashtiruvchi vositadir.

Kelajakda bu yo'nalishda frazemalarning tarjimasi, ularning o'quv jarayonidagi o'rni, va til o'rgatishda qo'llanilishi kabi yo'nalishlarda izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abjalova, M. ve Rashidova, U. (2023). Til Korpuslarida Frazemalar Bazasini Yaratish Omillari. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi / International Journal of Turkic Dialects (TÜRK LAD). 7. Cilt, 2. Sayı, 273-278.
2. Ёўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд., 1998.
3. G'afur G'ulom. Shum bola. –Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
4. Каримов Н. Ғафур Ғулom. – Тошкент: Ғафур Ғулom номидаги нашриёт - матбаа ижодий уйи, 2003.
5. Mardiyeva M. Frazеologik birliklarni tarjima qilishning muqobil usullari haqida //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 674-676.
6. Sh.Rahmatullayev. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1992.
7. Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov v boshqalar. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent, 2022.

STRATEGIES AND EVALUATION IN SIMULTANEOUS INTERPRETING

Yuldasheva Kamola

PhD researcher of Tashkent University
of Textile and Light Industry,
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: kyuldasheva248@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0933-6235

Annotation. The article provides an in-depth examination of simultaneous interpretation (SI), regarded as one of the most complex and demanding forms of interpreting. Unlike consecutive interpreting, SI involves delivering the translation in real-time, almost simultaneously with the speaker's speech, without requiring pauses or interruptions. This characteristic makes SI particularly suitable for international conferences, high-level diplomatic meetings, live broadcasts, and other real-time communication scenarios.

The work starts with outlining the theoretical underpinnings of SI, highlighting its distinction from other interpreting modes in terms of time constraints, cognitive load, and linguistic challenges. The practical implementation of SI is discussed through three main variants: interpreting by ear, interpreting from written text, and reading pre-translated text simultaneously. The need for interpreters to maintain both speed and accuracy without access to dictionaries or extended preparation time places immense pressure on their linguistic, cognitive, and emotional capacities.

Key words: simultaneous interpretation, oral translation, interpreter, interpreting strategy, psycholinguistics, grammatical challenges, semantic equivalence, error analysis, real-time translation.

SINXRON TARJIMADA STRATEGIYALAR VA BAHOLASH

Yuldasheva Kamola Saydali qizi

TTYeSI O'zbek va xorijiy tillar kafedrası
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqola sinxron tarjima (SI) jarayonini chuqur tahlil qiladi, bu esa tarjima shakllari ichida eng murakkab va talabchanlaridan biri hisoblanadi. Ketma-ket tarjimadan farqli o'laroq, sinxron tarjima nutq bilan bir vaqtda, deyarli real vaqt rejimida amalga oshiriladi va bu jarayon nutq egasining pauza qilishi yoki to'xtashi talab etilmaydi. Aynan shu xususiyati tufayli SI xalqaro konferensiyalar, yuqori darajadagi diplomatik uchrashuvlar, jonli efirlar va boshqa real vaqtli muloqot holatlari uchun ayni muddao hisoblanadi.

Maqola avval Sining nazariy asoslarini yoritishdan boshlanadi. U sinxron tarjimani boshqa tarjima turlaridan ajratib turuvchi omillar – vaqt cheklovlari, kognitiv yuklama va tilshunoslikdagi murakkabliklarga e'tibor qaratadi. Sining amaliy qo'llanilishi uchta asosiy ko'rinishda muhokama qilinadi: quloq orqali tinglab tarjima qilish, yozma matndan o'qib tarjima qilish va oldindan tarjima qilingan matnni bir vaqtda o'qish. Tarjimonlar tezlik va aniqlikni bir vaqtda saqlab qolishi, lug'atlardan yoki uzoq tayyorgarlikdan foydalana olmasligi ularning til, aqliy va emotsional salohiyatiga katta bosim yuklaydi.

Kalit so'zlar: Sinxron tarjima, tarjima strategiyasi, psixolingvistika, semantik tenglik, xatolar tahlili, real vaqt rejimidagi tarjima.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-09>

INTRODUCTION

Simultaneous interpreting is primarily used during various international and intergovernmental meetings, conferences, seminars, press briefings, and other gatherings. However, today it is also widely applied in other settings, such as live interpretation of films

produced in one language into another, simultaneous interpreting of live interviews or speeches broadcast via TV or radio channels. Like all forms of interpretation, simultaneous interpreting has its own advantages and limitations, which have been thoroughly explored and addressed in the relevant academic literature.

MAIN PART

As noted, simultaneous interpretation is performed at the same time as the speaker delivers their speech. Unlike consecutive interpretation, it does not require the speaker to pause for translation. According to many researchers, this feature provides several key advantages:

1. **Time Efficiency:** The duration of an event is significantly reduced as the speaker's message is conveyed without interruption.
2. **Uninterrupted Communication:** Since the speaker doesn't need to pause, they can observe audience reactions and adapt accordingly.
3. **Audience Engagement:** Listeners can simultaneously observe the speaker's tone and emotional expression while receiving the interpretation.
4. **Media Broadcasting:** Simultaneous interpreting enables immediate live media coverage, allowing not only on-site participants but also global audiences to access the speech in real time.

Simultaneous interpreting demands not only high linguistic knowledge, experience, and skill from interpreters but also great responsibility. Interpreters must deliver content without delay, maintaining accuracy and coherence. Clients of simultaneous interpretation also carry responsibilities, including:

- Understanding the technical requirements and providing interpreters with proper equipment.
- Sharing information about the event in advance and hiring at least two interpreters.
- Offering appropriate remuneration, recognizing the high cognitive load involved.
- Accepting that no interpretation is flawless—even experienced professionals may omit or misrender segments.

During interpreting, several challenges can arise, such as numbers, proper names, complex noun phrases, culture-specific terms, idioms, phrasal verbs, and single-word technical terms. Conference interpreters frequently acknowledge the difficulties of dealing with numbers, for instance.

Many researchers view "strategy" in simultaneous interpreting as a set of skills or techniques used to overcome challenges. Baker defines a translation strategy as a procedure to solve a translation problem [4, p.188]. Common strategies in interpreting from Arabic to Uzbek (and similarly structured languages) include:

- **Waiting Strategy:** Interpreters pause briefly to gather sufficient context before translating a segment. This is especially useful in languages where the verb comes at the end of the sentence, like German, Dutch, or Uzbek.
- **Anticipation Strategy:** Interpreters predict what will come next based on context and cues.
- **Stalling Strategy:** Used when interpreters need extra time to process or understand a segment.

According to H. Bühler (1986), who proposed quality criteria for conference interpreting, interpretation should be evaluated based on:

- **Content:** Accuracy and completeness of information.
- **Language Use:** Fluency, coherence, grammatical accuracy, and proper terminology.
- **Delivery:** Pleasant voice, neutral accent, and clarity.

Interpreters must ensure that the source and target texts are communicatively aligned. Evaluation includes examining semantic shifts, paraphrasing, and lexical/grammatical equivalence. Errors in interpreting are classified into three main types:

1. **Omissions** – segments are missing in the target text.
2. **Additions** – unnecessary information not present in the original is added.
3. **Substitutions** – content is altered due to misunderstanding, mishearing, or overcompensation.

Each type of error can be broken down further (e.g., minor vs. major semantic substitutions), and not all errors equally affect meaning. Researchers emphasize the importance of understanding the cause of errors for both interpreter training and evaluation purposes.

In assessment, linguistic and communicative mismatches are categorized according to whether they affect the meaning or are stylistic issues. For example, misusing a word with a similar form but different meaning, or reordering a sentence in a way that distorts emphasis, may have varying impacts depending on context.

Together with researchers of translation errors, we consider the typology of G. Barik's errors described above to be too general. It is not possible to form an idea of how to overcome some errors with the help of this typology. Many types of errors identified by G. Barik can be interpreted as certain types of inaccuracies, for example, additions or substitutions. In the typology of errors, it is important to take into account the division into language levels, as well as the presence of errors at the level of form and content. When using the classification of errors proposed by G. Barik, it is difficult to determine whether certain additions or shortcomings are related to the level of language structure or whether they also affect the meaning of the message or not. According to D. Gil, the clarity of information determines the quality of the translated speech [3; 34]. So, the most important areas of analysis for us are the content of the translation and the structure of the language. Accordingly, when analyzing the translation, two types of ambiguities should be taken into account: ambiguities related to the content of the information and ambiguities related to the presentation of the translation and its distortions.

The group of traditional ambiguities includes cases of inappropriate use of words in terms of style (normative stylistic ambiguities). For example, The last picture showed Gore casting his ballot on election day. On Tuesday evening he conceded defeat. 1.The last picture shows Gore voting on Election Day. On Tuesday evening he conceded defeat. 2.He was last seen casting his ballot. On Tuesday evening Gore was seen conceding defeat.

Simultaneous interpretation is one of the most demanding and crucial types of interpreting. It plays a vital role in modern international communication across political, economic, and cultural domains. Its key advantages lie in real-time delivery, uninterrupted flow of speech, and enabling direct interaction between speaker and audience.

However, it also presents numerous linguistic and non-linguistic challenges. These include syntactic complexity, cultural nuances, time pressure, and psychological stress. Therefore, interpreters must possess not only linguistic fluency but also quick thinking, strong memory, emotional resilience, and intercultural awareness.

This article analyzed psychophysiological strategies in simultaneous interpretation, linguistic challenges, and common error types. It offers scientifically grounded suggestions for overcoming such issues. To improve simultaneous interpretation practice, targeted training, experience, and proper working conditions are essential. Lastly, acknowledging and appropriately valuing the labor of interpreters remains crucial to the field's advancement.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Бейкер М. Курс переводоведения / Пер. с англ. – М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 432 с.
2. Bühler H. Linguistic (semantic) and extralinguistic (pragmatic) criteria for the evaluation of conference interpretation. // *Multilingua*. – 1986. – Vol. 5, No. 3. – P. 231–235.
3. Gil D. Meaningful Translation and Cognitive Clarity: Linguistic and Contextual Challenges. // *Journal of Language and Translation Studies*. – 2010. – Vol. 12, No. 2. – P. 32–38.
4. Barik H.C. A description of various types of omissions, additions and errors of translation encountered in simultaneous interpretation. // *Meta: Journal des traducteurs*. – 1971. – Vol. 16, No. 3. – P. 199–210.
5. Gile D. Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 1995. – 278 p.
6. Джонсон Дж. Практика синхронного перевода: Пособие для переводчиков. – М.: Р. Валент, 2012. – 240 с.
7. Jones R. Conference Interpreting Explained. – London: Routledge, 2002. – 160 p.
8. Педерсен Б. Психофизиология устного перевода: от теории к практике. – СПб.: Наука, 2015. – 304 с

YURIDIK FANLARI

ZO'RLIK ISHLATIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA KRIMINOLOGIK TAVSIFI

Salimjonov Axadjon Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: axadjontsul@gmail.com

Tel: +998 97 000 78 08

Annotatsiya. Ushbu tezisda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tavsifi, mazkur jinoyatlarning sabablari, ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar hamda ularni oldini olish va profilaktika masalalari tahlil qilinadi. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish haqida fikr yuritiladi. Zo'ravonlik jinoyatlarining asl ildizlari, sabablari hamda ularni oldini olish masalasi, mazkur jinoyatlarga qarshi kurash haqida olimlarning qarashlari, fikr va mulohazalari tahlil qilinib guruhlashtiriladi.

Kalit so'zlar: zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar, zo'ravonlik, jabrlanuvchi, viktimlik, jazo tayinlash, zo'ravonlik belgilari.

THE CONCEPT AND CRIMINOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CRIMES COMMITTED WITH VIOLENCE

Salimjonov Akhadjon Alisher ogli

Master's student at Tashkent

State University of Law

Annotation. This thesis analyzes the criminological characteristics of crimes committed with violence, their causes, the conditions enabling their commission, as well as issues related to their prevention and prophylaxis. It discusses the application of modern approaches in the prevention of violent crimes. The study classifies and analyzes scholars' views, opinions, and considerations on the root causes, underlying factors, and preventive measures against violent crimes.

Key words: violent crimes, violence, victim, victimology, sentencing, signs of violence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-10>

Kirish

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar – jinoyat huquqida zo'rlik ishlatib shaxsning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy erkinligiga, mulkka, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga, boshqaruv tartibiga, jamoat xavfsizligiga, jamoat tartibiga qarshi sodir etiladigan jinoyatlardir. Ular ko'pincha qasddan odam o'ldirish; terroristik akt; xalqaro himoya huquqi bor shaxsga tajovuz qilish; qasddan sog'liqqa og'ir, o'rtacha, yengil shikast yetkazish, jismoniy azob berish, noqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish; shaxsni garovga olish; boshliqqa nisbatan zo'rlik ishlatish kabilardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida bevosita zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etish mumkin bo'lgan quyidagi qilmishlar jinoyat sifatida belgilangan: [11]

- qasddan odam o'ldirish (JK 97-m.);
- kuchli ruhiy hayajonlanish oqibatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-m.);

- onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-m.);
- zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-m.);
- o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish (JK 103-m.);
- qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-m.);
- qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-m.);
- qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-m.);
- qiynash (JK 110- m.);
- o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (JK 112-m.);
- jinoiy ravishda homila tushirish, abort (JK 114-m.);
- ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlash (JK 115-m.);
- nomusga tegish (JK 118-m.);
- Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-m.)
- ayolni jinsiy aloqa qilishga majburlash (JK 121-m.);
- ayolni erga tegishga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (JK 136-m.);
- zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy ravishda ozodlikdan mahrum qilish (JK 138-m.);
- haqorat qilish (JK 140-m.);
- bosqinchilik (JK 164-m.);
- tovlamachilik (JK 165-m.);
- talonchilik (JK 166-m.).

Bu kabi jinoyatlarning kelib chiqish sabablari borasida turli olimlar turlicha fikrlar bildirgan bo'lsada, ularni umumiyLashtirgan holda bir qancha asosiy sabablarni keltirish mumkin. Jumladan quyidagilarni shular qatoriga kiritish mumkin: Jinoyatchining shaxsidagi salbiy belgilar va undagi jinoyatga moyillik; viktimologik sabablar; o'zaro kelishmovchiliklar; jamiyatdagi noto'g'ri shakllangan tushunchalar; hududda mazkur jinoyatlar darajasining yuqoriligi; tengdoshlarining ta'siri (peer pressure); spirtli ichimliklar va giyohvandlik moddalariga ruju qo'yish. Shu o'rinda zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda sohada yana bir qancha chora-tadbirlar qilinishi lozim. Jumladan, jamoatchilikning mazkur jinoyatlarga qarshi kurashishda faol emasligi, ko'plab holatlarga ko'z yumilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilmasligi (asosan oilaviy zo'ravonlikda), ommaviy axborot vositalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida ochiq va tezkor axborot almashish darajasi sustligi, mahalla va boshqa jamoat joylarida zo'ravonlik holatlarini oldini olish borasida profilaktik ishlar amalga oshirilmamasligi, aholining huquqiy savodxonligi ustida qilinayotgan ishlar amalda ko'zlangan natijani bermayotganligi va shunga o'xshash boshqa holatlar zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada takomillashtirish lozimligini ko'rsatib bermoqda.

Mazkur tezisda bilishning umum-ilmiy dialektik metodidan foydalanilgan. Bundan tashqari jinoiy-statistik, siyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalaniladi. Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Asosiy qism

Kriminologiyada zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar asosan quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganiladi:

- hayotga va sog'liqqa qarashi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- oiladagi zo'ravonlik;
- shaxsiy erkinlikka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- mulkka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar;
- jamoat tartibiga qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar.

Quyida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning har bir guruhini alohida tarzda kriminologik jihatdan tahlil qilamiz.

Hayotga va sog'liqqa qarashi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar.

Hayot va sog'liqqa qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga quyidagilar kiradi: qasddan odam o'ldirish (JK 97-modda), kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JK 98-modda), onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi (JK 99-modda), zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 100-modda), Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, qasddan odam o'ldirish (JK 101-modda), Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 104-modda), Qasddan badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 105-modda), Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazish (JK 106-modda), Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og'ir shikast yetkazish (JK 107-modda), Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og'ir shikast yetkazish (JK 108-modda), Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (JK 109-modda), Qiynash (JK 110-modda).

Yuqoridagi jinoyatlar ichida qotillik - ya'ni qasddan odam o'ldirish jinoyati ijtimoiy jihatdan xavfi ancha yuqori bo'lgan jinoyat hisoblanib, qotillik jinoyati davlatda xavfsiz ijtimoiy jamiyat qurish borasida muammolar borligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatda jinoyatchilikning umumiy ko'rsatkichlari pasayishiga erishilganiga qaramasdan, ayrim og'ir hududlarda jinoyatchilikning ko'rsatkichi oshganligi hamda ayrim turdagi jinoyatlarning sodir etilishi kuzatilmoqda.

Ya'ni respublika miqyosida qasddan odam o'ldirish va o'ldirishga suiqasd qilish jinoyatlari soni 2015-yilda – 766 ta, 2016-yilda – 743 ta, 2017-yilda – 593 ta, 2018-yilda – 503 ta, 2019-yilda – 351 ta, 2020-yilda – 445 ta, 2021-yilda – 496 ta, 2022-yilda – 397 ta, 2023-yilda – 363 ta tashkil qilgan. [17]

Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish 2015-yilda – 1478 ta, 2016-yilda – 1775 ta, 2017-yilda 1600 ta, 2018-yilda 1350 ta, 2019-yil sentabr oyigacha esa 633 ta sodir etilgan. [18]

Jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. Mazkur jinoyatlarga Nomusga tegish (JK 118-modda), Jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish (JK 119-modda), Shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etish (JK 121-modda) kiradi.

Ushbu jinoyatlarni sodir etishning asosiy motivi jinsiy ehtiyojni shahvoniy shaklda qondirish istagi hisoblanadi. Ba'zan zo'rlik sodir etgan shaxsning jinsiy motivlari bezorilik motivlari bilan, kattalarga taqlid qilish, ayolni kamsitish yoki uni obro'sizlantirish, ustidan

kulish, undan o'ch olish istagi bilan qo'shilib ketadi. Ko'pincha zo'ravonning jinoyatkorona xatti-harakatidagi asosiy motiv zo'ravonlikka, tajovuzkorlik, shafqatsizlik va o'zining jinsiy ehtiyojini qondirish istagiga aylanadi.

Nomusga tegish jinoyatlari tuzatib bo'lmaydigan salbiy oqibatlar, jabrlanuvchilarga chuqur jismoniy, ma'naviy va psixologik jarohatlar yetkazilishi sababli yuqori darajadagi ijtimoiy xavfli karakter kasb etuvchi jinoyatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida nomusga tegish va nomusga tegishga urinish jinoyati sodir etganlar soni 2015-yilda – 549 ta, 2016-yilda – 481 ta, 2017-yilda – 376 ta, 2018-yilda – 222 ta, 2019-yilda – 213 ta, 2020-yilda – 272 ta, 2021-yilda – 383 ta, 2022-yilda – 361 ta, 2023-yilda – 452 tani tashkil etgan.

14 yoshga to'lmagan bola bilan zo'rlik ishlatib, jinsiy aloqaga kirishish jinoyatini sodir etganlar soni esa 2019-yilda – 52, 2020-yilda – 35, 2021-yilda – 57, 2022-yilda – 73 nafarni tashkil etgan. [14]

Statistika ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2023-yilda nomusga tegish va nomusga tegishga urinish jinoyati sodir etganlar soni 2019-yildagiga nisbatan qariyb ikki barobarga ko'paygan. Bu esa o'z navbatida jamiyatda yurish-turish normalari, yoshlarning dunyoqarashi, insonlarning hayotga bo'lgan qarashlari, jamiyatdagi qadriyatlarning o'zgarishi hamda internet orqali turli xildagi mafkura va madaniyatlar qorishmasining jamiyatga ko'rsatgan ta'siri natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Oiladagi zo'ravonlik. So'nggi yillarda yurtimizda oila va undagi muhitni sog'lom va mustahkam qilish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan bo'ladigan zo'ravonliklarni oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprelda qabul qilingan 829-sonli "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himioya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga 126-1-moddasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 59-2-moddasi kiritildi. [19]

Jinoyat kodeksining 126-1-moddasida xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, shuningdek basharti boshqa jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yuz oltmish soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi matbuot xizmatining ma'lum qilishicha, 2023-yilning 12 aprel kunidan yil oxirigacha Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan 203 nafar shaxs sudlanib, ularning 59 nafariga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, 144 nafariga esa ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlangan.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59-2-moddasi bilan esa

8928 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Ularning 5229 nafariga jarima jazosi, 3699 nafariga ma'muriy qamoq jazosi qo'llangan. [20]

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki 9 oylik muddat davomida yurtimizda 203 nafar shaxs Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bilan sudlangan, 8928 nafar shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59-2-moddasi bilan javobgarlikka tortilgan.

Oiladagi jinoyatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kelib tushgan murojaatlarni o'rganishda 106 ta jinsiy, 234 ta iqtisodiy, 18777 ta ruhiy, 13658 ta jismoniy zo'ravonlik hamda 7174 ta tazyiq holatlar aniqlangan.

Qo'llanilgan himoya orderlari natijada 20769 ta holatda oila yarashtirilgan, 15142 tasida nizo bartaraf etilgan, 921 tasida oilada ajrim holati kuzatilgan, 2222 ta holatda nizo bartaraf etilmagan. [21]

Oilada sodir etiladigan jinoyatlarni o'rganish davomida "Google" platformasi orqali so'rovnoma (keying o'rinlarda so'rovnoma deb yuritiladi) o'tkazildi va unda mavzuga doir turli xil savollar respondentlar e'tiboriga havola qilindi. Mazkur so'rovnomada 18-24 yoshlar oralig'ida bo'lgan jami 70 nafar yoshlar ishtirok etdilar va o'zlarining mavzuga doir fikr va mulohazalarini bildirib o'tdilar.

Jumladan respondentlar e'tiboriga havola qilingan "Yoshligingizda ota-onangiz tomonidan kaltaklanganmisiz?" degan savolga ishtirokchilarning 11.4% qismi bu holat tez-tez uchrab turganligi haqida fikr bildirishgan. Respondentlarning 54.3% qismi yoshlik chog'larida ota-onasi tomonidan kaltaklanganligini tan olib, biroq bu holatlar juda kam bo'lganligini bayon qilgan. So'rovnomada qatnashgan 70 nafar ishtirokchining deyarli uchdan bir qismi, ya'ni 34.3% ota onasi tomonidan umuman kaltaklanmasdan voyaga yetganligini aytib o'tgan. (1-ilogava qarang)

Mulkka qarshi zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar. Mazkur jinoyatlarga bosqinchilik (JK 164-modda), talonchilik (JK 165-modda) va tovlamachilik (JK 166-modda) kiradi.

Mulkka qarshi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, bu turdagi jinoyatlar natijasida shaxsiy va xususiy mulkka moddiy zarar yetkaziladi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etgan shaxslarning o'z vaqtida aniqlanmasligi va javobgarlikka tortilmasligi va bir tomondan, ularning g'ayriqonuniy boylik orttirishiga, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmasdan tekinox'rlarcha hayot kechirishiga imkon yaratsa, boshqa tomondan, bu holatlar jinoyat sodir etgan shaxslar uchun javobgarlik va jazoning ta'minlanmasligiga, jabr ko'rgan shaxslarga jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zararining qoplanmasligiga va odamlar ongida ichki ishlar organlarining o'z vazifalarin bajarmayotganligi haqida fikrlar shakllanishiga hamda provard-natijada davlatga ishonchning yo'qolishiga olib keladi. [2]

O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan talonchilik va bosqinchilik jinoyatlari soni 2015-yilda – 1780 ta, 2016-yilda – 1516 ta, 2017-yilda – 1189 ta, 2018-yilda – 589 ta, 2019-yilda – 401 ta, 2020-yilda – 534 ta, 2021-yilda – 1344 ta, 2022-yilda – 913 ta, 2023-yilda – 762 tani tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan tovlamachilik jinoyatlari soni 2015-yilda – 426 ta, 2016-yilda – 412 ta, 2017-yilda – 305 ta, 2018-yilda – 201 ta, 2019-yilda – 152 ta, 2020-yilda – 206 ta, 2021-yilda – 354 ta, 2022-yilda – 364 ta, 2023-yilda – 477 tani tashkil etgan. [22]

Qurolli bosqinchilik va talonchilik - bu shaharlarga, shahar atrofi hududlariga va shahar tipidagi posyolkalarga xos jinoyatlardir. Ularning yarmidan ko'pi kechki va tungi vaqtlarda ko'chalarda, bog' va xiyobonlarda sodir etiladi. Odatda, bu odamlar kam yuradigan ko'chalar, gavjum bo'lmagan hovlilar va yoritilmagan jamoat joylari, shuningdek, uylarning podyezdlari va liftlar bo'ladi.

Rus olimi A.I. Dolgov o'zining kriminologiya darsligida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlar — bu jismoniy kuch qo'llash yoki bunday kuchni qo'llash tahdidi bilan sodir etilgan jinoyatlar majmuasidir. Ularning asosiy va bevosita maqsadi inson hayotidan mahrum qilish, uning sog'lig'iga zarar yetkazish, jismoniy erkinligini cheklash, tananing (shu jumladan jinsiy daxlsizlikning) erkinligiga qarshi harakat qilishdir. Shuningdek, bu tushuncha ma'lum hududda va ma'lum vaqt ichida zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar majmuasini ham o'z ichiga oladi." [1; 235-b]

Zo'ravonlik nafaqat jismoniy yoki ruhiy salomatlikka zarar yetkazishi bilan ijtimoiy xavfli, balki jabrlanuvchini o'z e'tiqodi va qadriyatlariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirishga moyil qilib qo'yishi bilan ham jamiyat uchun katta xavfdir.

«Zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar deganda jinoyat qonunida nazarda tutilgan, shaxsga qasddan jismoniy zarar yetkazadigan harakatlarni, shuningdek boshqa zarar yetkazish tahdidlarini, insonga majburlovchi ta'sir ko'rsatishni, uning tazyiq ostida bo'lishini, shaxsiy daxlsizlikning buzilishini tushunamiz. Zo'ravonlik natijasida hayotdan mahrum qilish, somatik yoki inson psixikasiga zarar yetkazish, shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va erkinligining buzilishi, uning ijtimoiy maqomining salbiy o'zgarishi yuzaga kelishi mumkin», - deb yozadi Yu.M. Antonyan. [2; 54-b]

Adabiyotlarda zo'ravonlikning bir nechta turlari va shakllari farqlanadi:

Psixologik zo'ravonlik - bu bevosita psixologik jarohat yetkazadigan harakatlar: tahdidlar, haqoratlar, tuhmat, tovlamachilik, obro'sizlantirish, majburlash va zo'rqlash, to'sqinlik qilish, insonning irodasini cheklash va boshqalar;

jismoniy zo'ravonlik – insonni hayotidan mahrum qilish, uning jismoniy salomatlik holatiga zarar yetkazish bilan bog'liq harakatlardir. [3; 24-b]

Rus olimi N.F. Kuznevtsova o'zining kriminologiya darsligida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni birlashtiruvchi asosiy belgi - bu shaxsga nisbatan jismoniy yoki psixik zo'ravonlikning turli jinoyat maqsadlariga erishish vositasi sifatida qo'llanilishidir deb aytib o'tadi. Bu orqali olim, shaxsga nisbatan zo'rlik asosan ikki xil shaklda jismoniy va psixologik shaklda bo'lishi mumkinligiga ishora qilgan. [4; 302-b]

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilikning sabablariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, jinoyatchilik darajasiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

- Ijtimoiy omillar: aholining soni, migratsiya, ijtimoiy nazoratning zaifligi, oilaviy va jamiyatlardagi muammolar (masalan, oilaviy zo'ravonlik, ajrimlar), ijtimoiy tengsizlik;
- Iqtisodiy omillar: ishsizlik, iqtisodiy inqirozlar, daromadlarning noteng taqsimlanishi, moliyaviy qiyinchiliklar;
- Siyosiy omillar: siyosiy beqarorlik, korrupsiya, huquq-tartibot organlarining samaradorligining pastligi;

- Madaniy va psixologik omillar: ijtimoiy qadriyatlar, madaniyat, shaxsning psixologik xususiyatlari (agressivlik, impul'sivlik), jinoyatni normal qabul qiluvchi subkulturalar mavjudligi;

- Atrof-muhit va infratuzilma: yetarlicha yoritilmagan ko'chalar, jamoat joylarining zaif nazorati, jinoyatchilik sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hududlar bilan alohida tartibda ishlanmasligi.

Stanton E.Samenov o'zining "Inside the criminal mind" asarida quyidagicha yozadi "Jinoyat sabablarining asl ildizi uni sodit etishga bo'lgan imkoniyatning mavjudligidir." [5; 78-b] Amerikalik kriminolog olimning yuqoridagi fikrlariga qisman qo'shilish mumkin bo'lsa-da lekin amaliyot uning fikrlarini mutlaq rad etadi. Sababi jinoyat sodir qilish jismoniy harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lgan har qanday shaxsning qo'lidan kelishi mumkin. Jinoyatlarni butunlay nazoratga olishning imkoni mavjud emas.

Jinoyatchilikning sabablari va sharoitlari o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud bo'lib, bu esa "jinoyatchilik determinantlari" degan umumlashtirilgan tushunchani qo'llashga imkon beradi. Bu tushuncha har ikkala — sabablar va sharoitlarni — o'z ichiga oladi. Sharoitlar o'z-o'zidan jinoyat va jinoyatchilikni yuzaga keltira olmaydi. Biroq sabablar mavjud bo'lmasdan ular shakllanmaydi va ro'yobga chiqmaydi. "Sabab-sharoit" o'zaro ta'siri tizimi ichida sifat jihatidan muhim farq saqlanib qoladi: bu — sabablar jinoyatchilikni yuzaga keltiradi, sharoitlar esa jinoyat sodir bo'lishiga ko'maklashadi. Sabablar, mazmunan, ijtimoiy-psixologik xarakterga ega bo'ladi. Sharoitlar esa iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa mazmunlarga ega bo'ladi. Sabablar jinoyatchilikni yuzaga keltiradi, sharoitlar esa uni ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ular tarkibiy va mexanizm xususiyatlariga ko'ra o'rin almashishi mumkin.

Professor V.P. Emelyanov jinoyatlarning sabablari borasidagi o'z izlanishlari natijasida quyidagi xulosaga kelganini bayon qiladi: "Faqat iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy va biologik omillarning ma'lum bir majmuasi jinoyat deb ataluvchi reaksiyani keltirib chiqaradi. Jinoyatchilikning sababi — bu ijtimoiy va biologik tabiatga ega bo'lgan turli hodisalarning sintezidir" [6; 33-b]

Chezare Lombroso jinoyatlarning sabablari haqidagi fikrlarini quyidagicha bayon qilgan: "Har qanday jinoyat ko'plab sabablar natijasidir; va ko'p hollarda bu sabablar o'zaro bog'langan va aralashgan bo'lsa-da, biz ularning har birini alohida ko'rib chiqishimiz kerak." [7; 135-b]

1896 yilda Enriko Ferri bu yondashuvni yanada rivojlantirgan. Uning yozishicha: "Insonning barcha harakatlari uning fiziologik va ruhiy holati hamda o'sib ulg'aygan jismoniy va ijtimoiy muhit mahsulidir, shuning uchun men jinoyatchilik omillarini uch toifaga bo'ldim: antropologik yoki individual, jismoniy va ijtimoiy." [8; 306-b]

Bu vaqtda boshqa bir kriminolog olim N.P. Dubinin "Inson ijtimoiy xulq atvor bilan tug'ilmaydi, balki uning xulq-atvori va dunyoqarashi yillar davomidagi hayotiy tajribalarida shakllanadi" degan fikrni ilgari suradi. [9; 64-b]

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olish borasida so'nggi yillarda yurtimizda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning 03.01.2025 yildagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar

profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi bilan belgilangan mas'ul idoralar va muassasalar uchun 2025-yilda "Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish" ustuvor vazifa etib belgilandi va quyidagi ishlash mexanizmlari joriy etildi: [13]

2024-yilda jinoyat sodir etilgan har bir mahallada kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jinoyatlarni barvaqt profilaktika qilishning mahallalar kesimida choraklik manzilli chora-tadbirlarini belgilagan holda mahalla — tuman — viloyat darajasida uning ijrosi uchun bevosita mas'ul rahbarlarni biriktirish va aniq sohaviy javobgarlikni yuklash;

kriminogen vaziyat og'ir mahallalarda ilmiy-amaliy yondashuvlar asosida joylarga chiqqan holda maqsadli o'rganishlarni o'tkazish orqali huquqbuzarliklarga sabab bo'layotgan asl omillarni aniqlash va barham berish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish;

mahallalarda yoshlar, ayollar va ishsizlar tomonidan, shuningdek, oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishda "mahalla yettiligi" har bir vakilining aniq mas'uliyatini belgilash, ushbu toifadagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga yangicha ish uslublarini tatbiq qilish;

aholining huquqiy ongi, ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jinoyat sodir etilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muammolarni hal etishga jamoatchilik vakillari, nuroniylar va mahalla faollarini keng jalb etib borish;

mahallalar jamoat joylari va yashash xonadonlarida xavfsiz muhit yaratish, fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga har qanday tajovuzlarning oldini olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasiga zamonaviy raqamli texnologiyalar va texnik vositalarni keng joriy etish;

mahallalarda jinoyatchilikning barvaqt oldini olish bo'yicha har bir mas'ul idora va muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning natijalari yuzasidan qat'iy so'rov tizimini yo'lga qo'yish hamda ushbu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan rahbarlarga ta'sir choralarni ko'rib borish.

Xulosalar

Bugungi globalashuv va texnologik rivojlanish davrida zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilikning ko'payish darajasi ularning profilaktikasi va oldini olish borasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi, ularni huquqiy jihatdan tartibga solish kerakligini ko'rsatadi. Jumladan, zo'ravonlik jinoyatlarini har tomonlama tahlil qilish orqali zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni jinoiy-huquqiy va kriminologik nuqtayi nazardan kengroq o'rganish, bu borada yanada chuqurroq tahlillar amalga oshirish, zarur bo'lsa zo'avonlikka moyil shaxslar reestrini tashkil qilish ishlarini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi. Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatchilik va ularni oldini olish masalalarini tahlil qilish natijasida quyidagicha takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, yoshlar o'rtasidagi zo'ravonliklarni barvaqt oldini olish maqsadida maktab, litsey va oliygohlarda "Zo'ravonlik nima?", "Zo'ravonlikka qarshi qanday munosabat bildirish kerak?" kabi mavzularda muntazam dars va treninglar o'tkazilishini yo'lga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, mahallalarda yashovchi oilalarning mustahkamligini oshirish va ularning tinchligini ta'minlash maqsadida viloyat/shahar/tuman kesimida "*Eng faol mahalla*",

“Huquqbuzarlikdan holi mahalla” kabi tamoyillar asosida mahallalarni rag'batlantirish va unda istiqomat qiluvchi faol shaxslarga turli xil imtiyozlar, jumladan bepul sayohat chiptalari, har oylik bepul tibbiy ko'rikdan o'tish va davolanish uchun, sanatoriyalar uchun yo'llanmalar berish, foizsiz kreditlar ajratish, ipoteka kreditlari berish, tadbirkorlikka jalb qilish, yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy ishlar va shunga o'xshash bir vaqtning o'zida ham oila ham davlat uchun samarali bo'lgan imtiyozlar joriy etish zarur.

Uchinchidan, nazariyaga va keyinchalik bosqichma-bosqich tarzda qonunchilikka “status zo'ravonligi” tushunchasini kiritish va uni quyidagi tahrirda bayon etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Status zo'ravonligi — *bu mansab, ijtimoiy mavqe, xizmat yoki boshqa rasmiy yoki norasmiy ierarxik ustunlikdan foydalanib, boshqa shaxsga nisbatan jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki iqtisodiy bosim o'tkazish, shuningdek tazyiq yoki kuch ishlatish orqali unga zarar yetkazish yoxud huquq va erkinliklarini cheklash shaklida ifodalanuvchi zo'ravonlik.*

To'rtinchidan, Jinoyat kodeksining atamalarining huquqiy ma'nosi keltirilgan sakkizinchi bo'limiga quyidagi atamani kiritish:

Zo'ravonlik — *shaxsga nisbatan nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali shaxsning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).*

Beshinchidan, Amaldagi jinoyat kodeksining 66¹-moddasi birinchi qismiga ko'ra Jinoyat kodeksining 126¹-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismlarida (oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi belgilangan. [11]

Biroq amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'plab holatlarda bu turdagi jinoyatlarda jabrlanuvchi o'rtacha og'irlikdagi tan jarohati olgan bo'lsada, ayblanuvchi (zo'ravon) o'zining turmush o'rtog'i bo'lganligi bois ruhiy bosimlar natijasida majburlikdan yarashmoqda. Shuni inobatga olib, mazkur moddaning ushbu qismini quyidagicha yangi tahrirga o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Jinoyat kodeksining 126¹-moddasining birinchi, ikkinchi, uchinchi qismlarida (oilaviy (maishiy) zo'ravonlik) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqrar bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.”

Adabiyotlar/Литература/References:

1. А. И. Долговой. Криминология: Учебник для вузов/Под общ. ред. д. ю. н., К82 проф.— 3-е изд., перераб. и доп. — М.: Норма, 2005. - 912 с.
2. Niyozova, S.S., Salayev, N.S Kriminologiya (maxsus qism) [Matn]: Darslik – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 360-b.

3. Шляпникова О. В., Логинова О. Л. Категория насилия как объект криминологического исследования // Криминальное насилие: общие проблемы и опыт борьбы в Республике Саха (Якутия). С. 24—32.
4. Н.Ф. Кузнецовой, проф. В.В. Лунеева. – 2-е изд., перераб. И доп. – М.: Волтерс Клувер, 2004. – 640 с.
5. Inside the criminal mind. Stanton E.Samenow.. revised edition: Crown publishers, 2004. ISBN 140004619X, 9781400046195. P-78.
6. Емельянов В.П.Преступность лиц с психическими аномалиями. Саратов, 1980.С.33.
7. Cesare Lombroso. Causes and Remedies -. Stanford University libraries Cecil. H Green library Stanford, California 94305-6004 (415) 723-1493 P 471.
8. Ферри Э. Уголовная социология. Т. 1. М., 1910. С. 306..
9. Коммунист. 1980. № 11. С. 64.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
11. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
12. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // <https://lex.uz/docs/-97664> .
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 03.01.2025 yildagi PQ-1-son <https://lex.uz/uz/docs/-7330260> .
14. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan statistika ma'lumoti.
15. <https://kun.uz/55216986> .
16. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/12/domestic-violence/> .
17. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan statistika ma'lumoti.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari, 2016-yil 9-mart 01/3-01-26-139-son va 2019-yil 28-oktabrdagi 01/4-01-19-1156-son xatlari.
19. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son. <https://lex.uz/docs/-6430272>
20. Oliy sud matbuot xizmati rahbari Aziz Obidov o'zining telegram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasida ma'lum qilgan . <https://t.me/AzizAbidov/4556>
21. Gazeta.uz axborot yangiliklar veb-saytining 2021 yil 27-apreldagi sonidagi "2021 yilda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining 87 foizi oilada sodir etilgan" nomi ostidagi maqolasi. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/04/27/violence/>
22. <https://siat.stat.uz/reports-filed/807/table-data> Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan statistika ma'lumoti.

1-ilova



ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Акратова Хилола Убайдуллаевна
студент магистратуры Ташкентского
государственного юридического университета
E-mail: akramovakhilola@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В условиях стремительной цифровизации экономических отношений вопросы правовой защиты потребителей в сфере электронной коммерции приобретают особую актуальность. Настоящее исследование направлено на комплексный анализ правовых механизмов защиты прав потребителей в цифровой торговле, выявление системных проблем и разработку научно обоснованных предложений по совершенствованию законодательного регулирования. Применение системно-структурного и сравнительно-правового методов позволило установить недостатки существующей правовой базы и предложить концептуальные подходы к их устранению.

Ключевые слова: цифровая торговля, защита прав потребителей, электронная коммерция, правовое регулирование, маркетплейсы, цифровая экономика.

LEGAL MECHANISMS FOR PROTECTING CONSUMER RIGHTS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION OF TRADE RELATIONS: ANALYSIS OF THE CURRENT STATE AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Akramova Khilola Ubaydullaevna
Master's student of Tashkent
State Law University
Tashkent, Uzbekistan

Annotation. In the context of rapid digitalization of economic relations, issues of legal protection of consumers in the field of electronic commerce are becoming particularly relevant. This study aims to comprehensively analyze legal mechanisms for protecting consumer rights in digital commerce, identify systemic problems, and develop scientifically grounded proposals for improving legislative regulation. The application of system-structural and comparative legal methods made it possible to identify shortcomings in the existing legal framework and propose conceptual approaches to eliminate them.

Key words: digital commerce, consumer rights protection, electronic commerce, legal regulation, marketplaces, digital economy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-11>

Глобальная цифровизация экономики кардинально изменила характер торговых отношений. По данным Центрального банка Республики Узбекистан, объем электронных платежей в стране с 2020 по 2023 года вырос с 1002,5 миллиардов сум до 13263,8 миллиардов сум, что свидетельствует о масштабной трансформации потребительского поведения [8]. Однако правовое регулирование не успевает за темпами технологического развития, создавая правовые пробелы и коллизии.

Особую остроту проблема приобретает в контексте защиты прав потребителей, которые в условиях дистанционных торговых отношений оказываются в более уязвимом положении по сравнению с традиционными формами торговли [3; С.79-84.]. Асимметрия информации, сложности идентификации контрагентов, проблемы доказывания нарушений создают системные риски для потребителей.

Научная значимость исследования обусловлена необходимостью теоретического осмысления новых правовых явлений в сфере цифровой торговли и разработки концептуальных основ их регулирования [3; С.79-84.]. Практическая значимость связана с потребностью в совершенствовании законодательства и правоприменительной практики

Существующие исследования носят преимущественно отраслевой характер и не учитывают системного воздействия цифровых технологий на правоотношения между участниками торгового оборота. Требуется научного осмысления феномен "цифрового потребителя" как субъекта права с особым правовым статусом.

Методологическую основу исследования составляет системно-структурный подход, позволяющий рассматривать правовые механизмы защиты прав потребителей как элемент целостной системы правового регулирования цифровой экономики [11]. Применение сравнительно-правового метода обеспечило возможность анализа зарубежного опыта и выявления оптимальных моделей регулирования [12; С.234-236.].

Эмпирическую базу исследования составили:

- анализ 4 318 обращений потребителей в Комитет по развитию конкуренции и защите прав потребителей Республики Узбекистан за 2023 год [4];
- изучение судебной практики по спорам в сфере защиты прав потребителей в электронной коммерции;
- контент-анализ пользовательских соглашений ведущих маркетплейсов ("Uzum", "Sello", "Olcha").

Проведенное исследование позволило сформулировать концепцию "цифрового потребителя" как субъекта права, характеризующегося:

- дистанционным характером взаимодействия с продавцом;
- повышенной информационной зависимостью от цифровых платформ;
- ограниченными возможностями предварительной оценки товара;
- особым характером доказательственной базы при защите нарушенных прав.

В ходе исследования выявлены следующие системные проблемы:

Нормативные пробелы:

- отсутствие специального регулирования ответственности операторов маркетплейсов;
- электронная торговля посредством социальных сетей;
- недостаточная регламентация процедур досудебного урегулирования споров.

Правоприменительные проблемы:

- сложности идентификации нарушителей в цифровой среде;
- недостаточность электронных доказательств;
- длительность процедур рассмотрения споров.

Предлагается трехуровневая модель регулирования:

Первый уровень (базовый) - совершенствование Закона "О защите прав потребителей" путем введения специальных норм о цифровой торговле.

Второй уровень (специальный) - развитие положений Закона "Об электронной коммерции" в части ответственности операторов платформ и процедур защиты прав потребителей.

Третий уровень (саморегулирование) - создание системы отраслевых стандартов и этических кодексов участников цифрового рынка.

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

Законодательные инициативы

1. Внесение изменений в Закон "О защите прав потребителей":

- введение понятия "цифровой потребитель";
- установление особенностей защиты прав при дистанционных покупках;
- регламентация процедуры "цифрового возврата" [1; С. 221].

2. Совершенствование Закона "Об электронной коммерции":

- введение обязательного страхования ответственности.

2. Институциональные преобразования

Предлагается создание Центра цифровых прав потребителей при Комитете по развитию конкуренции и защите прав потребителей с функциями:

- мониторинга нарушений в цифровой торговле;
- медиации споров между потребителями и операторами платформ;
- разработки методических рекомендаций.

3. Технологические решения

Рекомендуется внедрение:

- единой системы электронной идентификации продавцов;
- блокчейн-платформы для фиксации нарушений;
- искусственного интеллекта для анализа жалоб потребителей.

Заключение

Проведенное исследование подтверждает гипотезу о необходимости формирования комплексной системы правовых механизмов защиты прав потребителей в цифровой торговле. Предложенная модель правового регулирования может служить концептуальной основой для совершенствования законодательства Республики Узбекистан в данной сфере.

Научная новизна исследования заключается в разработке концепции "цифрового потребителя" и обосновании трехуровневой модели правового регулирования. Практическая значимость связана с возможностью использования предложений при подготовке законодательных актов и совершенствовании правоприменительной практики.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Агibalова Е. Н. Цифровые права в системе объектов гражданских прав // Юридический вестник Дагестанского государственного университета. 2020. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovye-prava-v-sisteme-obektov-grazhdanskih-prav> (дата обращения: 01.06.2025).

2. Гражданский кодекс Республики Узбекистан // URL: <https://lex.uz/ru/docs/180550>
3. Джураева, Нилуфар. 2024. «Потребитель в цифровом пространстве: правовые механизмы защиты при онлайн-покупках». *Общество и инновации* 5 (10/S):79-84. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp79-84>.
4. Деятельность Комитета по развитию конкуренции и защите прав потребителей в первом полугодии 2023 года// URL: <https://raqobat.gov.uz/ru/dokumenty/analiticheskie-materialy/#otchet>
5. Закон Республики Узбекистан "О защите прав потребителей" от 26.04.1996 г. № 221-I // URL: <https://lex.uz/ru/docs/14643>
6. Закон Республики Узбекистан "Об электронной коммерции" от 29.09.2022 г. № ЗРУ-792 // URL: <https://lex.uz/ru/docs/6213428>
7. Закон Республики Узбекистан "О платежах и платежных системах" от 01.11.2019 г. № ЗРУ-578 // URL: <https://lex.uz/docs/4575788>
8. Объем торговли электронной коммерции (годовой) по данным Интегрированной информационной системы «СТАТИСТИКА». <https://siat.stat.uz/reports-filed/2833/line-data>
9. Постановление Президента Республики Узбекистан "О совершенствовании администрирования электронной коммерции и создании благоприятных условий для ее дальнейшего развития" от 17.11.2021 г. № ПП-14 // URL: <https://lex.uz/ru/docs/5732741>
10. LegalTech, FinTech, RegTech etc.: правовые аспекты использования цифровых технологий в коммерческой деятельности: коллективная монография / рук. авт. кол. и науч. ред. М. А. Рожкова. – Москва : Статут, 2021. – 310 с.
11. Савельев А.И. Электронная коммерция в России и за рубежом: правовое регулирование. – М.: Статут, 2023. – 512 с.

ONLAYN KREDIT SHARTNOMALARINING FUQAROLIK-HUQUQIY TABIATI VA RAQAMLI MUHITDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qahorova Saodat Sohib qizi

TDYU Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Kiber huquq yo'nalishi talabasi

E-mail: qahhorovasaodat027@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda onlayn kredit shartnomalarining fuqarolik-huquqiy tabiati va ularning raqamli muhitdagi huquqiy xususiyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik, elektron hujjatlar va elektron imzoga oid qonunchiligi asosida onlayn shartnomalarning yuridik kuchi asoslab berilgan. Shuningdek, elektron identifikatsiya, raqamli rozilik va xavfsizlik mexanizmlarining amaliy qo'llanilishi yoritilgan. Tezisdan Litva, Estoniya va Singapur davlatlarining qonunchilik tajribasi o'rganilib, ularning ilg'or amaliyotlari asosida O'zbekiston uchun huquqiy takomillashtirish yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: onlayn kredit, fuqarolik shartnomasi, raqamli shartnoma, elektron imzo, biometrik identifikatsiya, elektron hujjat, fuqarolik kodeksi, shartnomaviy huquq, xorijiy tajriba, iste'molchi huquqlari.

THE CIVIL-LEGAL NATURE OF ONLINE CREDIT AGREEMENTS AND THEIR SPECIFIC FEATURES IN THE DIGITAL ENVIRONMENT

Qahorova Saodat Sohib qizi

Student of the Cyber Law program,

Faculty of Master's and Distance Education,

Tashkent State University of Law

Annotation. This thesis analyzes the civil law nature of online loan agreements and their legal characteristics in the digital environment. Based on the legislation of the Republic of Uzbekistan on civil, electronic documents and electronic signatures, the legal force of online contracts is substantiated. The practical application of electronic identification, digital consent, and security mechanisms is also covered. The thesis examines the legislative experience of Lithuania, Estonia, and Singapore, and proposes directions for legal improvement for Uzbekistan based on their best practices.

Key words: online loan, civil contract, digital contract, electronic signature, biometric identification, electronic document, civil code, contract law, foreign experience, consumer rights.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-12>

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy xizmatlar ko'lamining kengayishi, xususan, onlayn kreditlash tizimining jadal rivojlanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. An'anaviy kredit shartnomalaridan farqli o'laroq, elektron platformalar orqali tuziladigan kredit shartnomalari yuridik texnika, isbotlash tartibi, shartnoma erkinligi, hamda shaxsni identifikatsiyalash usullarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu esa shartnomaviy huquq, elektron hujjatlar, elektron imzo, va iste'molchi huquqlarini himoya qilish tizimida yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Bugungi kunda texnologiyalarning rivojlanishi odatda moliyaviy texnologiya yoki fintech deb ataladigan axborot texnologiyalari bilan moliyaviy xizmatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Fintex orqali yuzma-yuz uchrashmasdan to'lovlarni amalga oshirishda tranzaksiyalar tezlashadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida (1996-yil, 29-avgustdagi №257-I) kredit va qarz shartnomalari, shuningdek, umumiy shartnomaviy munosabatlar asoslari belgilangan. Kredit shartnomasi bo'yicha bank yoki boshqa kredit tashkiloti qarz dorga muayyan summani qaytarish majburiyati ostida beradi (FK, 759-modda).

Onlayn kreditlar ham mazmunan fuqarolik-huquqiy shartnoma bo'lib, u ixtiyoriylik, tenglik va erkinlik prinsiplariga asoslanadi. Biroq, ular **elektron shaklda** va ko'pincha **real vaqt rejimida** tuziladi, bu esa isbotlash, rozi bo'lish, xavfsizlik, va shaxs identifikatsiyasi kabi jihatlarda o'ziga xos huquqiy yechimlarni talab etadi.

Onlayn kredit shartnomalari, odatda, **mobil ilova yoki veb-platforma** orqali tuziladi. Kredit beruvchi tashkilot shartnoma shartlarini (oferta) taklif qiladi, mijoz esa rozilik tugmasini bosish orqali aksept bildiradi. Bu jarayon, huquqiy jihatdan, O'zbekiston Fuqarolik kodeksining 366–373-moddalaridagi **oferta va aksept mexanizmi** asosida shakllanadi.

Biroq bu yerda **"sukut bilan rozilik" (konkludent harakatlar)** o'rniga **raqamli rozilik** (opt-in modeli) amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 10-martdagi 28/4-sonli "Raqamli moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish standartlari"ga ko'ra, shartnomaning har bir sahifasi bilan tanishib chiqmasdan rozilik tugmasini bosishga ruxsat berilmaydi.

Fuqaroni identifikatsiyalash va E-imzo orqali shartnoma tasdiqlash amaliyoti elektron shartnomalarning qonuniy kuchini oshiradi. Yangi texnologiyalarda **biometrik autentifikatsiya** (Face ID, Touch ID) yoki **PIN-kod orqali tasdiqlash** kabi mexanizmlar ham qo'llaniladi. Bu tizimlar orqali tuzilgan shartnomalar, "soddalashtirilgan elektron imzo" shaklida bo'lsa-da, amaliyotda qabul qilinmoqda. Ammo bu tizimda firibgarlik holatlari ham yuzaga kelmoqda. Masalan, Ombudsman tomonidan ushbu yo'nalishdagi murojaatlar bo'yicha fuqarolar manfaatida Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga 5 ta da'vo arizalari kiritilib, banklar bilan tuzilgan kredit shartnomalari haqiqiy emas deb topildi. 1 nafar fuqaro nomiga olingan kredit mablag'lari uning foydasiga qaytarilib, ma'naviy zarar undirilishiga erishildi. "Click" kompaniyasi yoki Markaziy bank xodimi sifatida tanishtirgan shaxslar fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalangan holda, onlayn kreditlar rasmiylashtirgan. Ayrim holatlarda esa bir shaxs nomiga 5-6 ta tijorat banklaridan kreditlar rasmiylashtirilgan. Ushbu murojaatlar yuzasidan Ichki ishlar organlari tergovchilari tomonidan tijorat banklariga ushbu fuqarolar kredit mablag'laridan o'zlari foydalanmaganligi hamda fuqaroviy da'vogar deb topilgani, shuningdek, aybdor shaxslar topilguniga qadar kredit qarz dorigi hamda unga foizlar hisoblashni to'xtatib turish yuzasidan topshiriqlar yuborilgan. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 36-moddasida tergovchining o'z yurituvidagi ish bo'yicha qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va qarorlari barcha korxonalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiy ekani belgilangan. Lekin, shunga qaramay, banklar tomonidan firibgarlik natijasida aldangan fuqarolardan kreditni to'lash talab qilib kelinmoqda.¹ Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki onlayn kredit rasmiylashtirish jarayoni birgina bank moliya sohasiga aloqador emas balki shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi, fuqarolarning daxlsizligi nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega jarayon bo'lib kelmoqda. Raqamli muhitda ushbu

¹ https://aniq.uz/uz/yangiliklar/2024-yilda-kredit-rasmiylashtirishga-oid-firibgarlik-holatlari-qanchaga-oshgani-malum-buldi?utm_source=

tizimning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib bugungi kunda elektron tarzda tuzilgan va elektron imzo bilan tasdiqlangan shartnomalar ham yozma shaklda tuzilgan shartnomalar bilan bir xil yuridik kuchga ekanligi belgilab berilgan. Ushbu shartnomalar tuzilishida asosan yuqorida aytganimiz kabi oferta tarzida tanishdim yoki roziman kabi tugmalarni bosish bilan shartnoma ikkinchi tomondan qabul qilinadi. Bu holat esa iste'molchilarning shartnomani to'liq o'qib chiqmasliklariga yoki muhim shartlari masalan o'zlarining huquq va majburiyatlarini bilmasliklari holatiga olib kelishi mumkin. Onlayn kredit berish faoliyatining huquqiy muammolaridan biri mana shunday holatlar hamdir. Xorijiy davlatlar tajribasida masalan, Litvada onlayn kreditlar "Vartotojū kredito įstatymas" (Consumer Credit Law) orqali tartibga solinadi. Litsenziyasiz kreditlash taqiqlanadi, elektron shartnomalarga nisbatan **raqamli rozilik** va **oldindan ogohlantirish talablari** mavjud. Bu holat jismoniy shaxslarning mas'uliyatini va majburiyatlarini bilishni yanada mustahlamlaydi. Estoniya "e-Residency" tizimi orqali xorijiy shaxslarga ham raqamli kredit xizmatlaridan foydalanish imkonini yaratadi. Kredit shartnomalari faqat **elektron identifikatsiya (e-ID)** orqali rasmiylashtiriladi. Aynan mana shunday murakkab bosqichli identifikatsioya va outentifikatsiya tizimlarining joriy qilinishi esa firibgarlik holatlarini oldini oladi.

Onlayn kredit shartnomalari O'zbekiston fuqarolik huquqi doirasida to'liq qonuniy huquqiy kuchga ega. Biroq, ularning raqamli shaklda tuzilishi elektron imzo, shaxsni identifikatsiyalash, shartnoma tuzish tartibi va xavfsizlik jihatlari bo'yicha o'ziga xos huquqiy yondashuvlarni talab etadi. Xalqaro tajriba, ayniqsa Litva, Estoniya va Singapur kabi raqamli davlatlar amaliyoti, O'zbekistonda ham bu sohaga oid maxsus qonunchilikni ishlab chiqish va takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. <https://cbu.uz/uz/press>
3. <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.06.2016 yildagi "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 185-son 16.08.2024-y., 09/24/507/0619-son.//
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.09.2022 yildagi "Elektron tijorat to'g'risida" O'RQ-792-son qonun // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2025-y., 03/25/1057/0351-son.//
6. Lithuanian Consumer Credit Law – e-seimas.lrs.lt

SOTSIOLOGIYA FANLARI

INTERNETGA QARAMLIKNING ZAMONAVIY TA'LIMGA TA'SIRI

Artikbayeva Nazokat Baxtiyor qizi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti

E-mail: uzromedia11117@gmail.com

Tel: +998 88 142 15 13

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada internetga qaramlikning yoshlar va zamonaviy ta'lim tizimiga sotsiologik va pedagogik ta'siri o'rganilgan. Raqamli vositalarga haddan tashqari bog'lanish natijasida o'quvchilarda diqqatning pasayishi, mustaqil fikrlashning susayishi, ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi kabi salbiy holatlar yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, internet vositasida ochiq ta'lim, global hamkorlik va inklyuzivlik imkoniyatlari mavjud. Muallif ushbu ikki tomonlama hodisaga kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar. Internetga qaramlik, raqamli ta'lim, yoshlar, sotsializatsiya, pedagogika, sotsiologiya, zamonaviy jamiyat, inklyuzivlik.

THE IMPACT OF INTERNET ADDICTION ON MODERN EDUCATION

Artikbayeva Nazokat Bakhtiyorovna

PhD Researcher, Academy of Public Administration

under the President of the Republic of Uzbekistan

Annotation. This article explores the sociological and pedagogical impact of internet addiction on youth and modern education. Excessive dependence on digital tools leads to declining attention, reduced critical thinking, and weakened social connections. However, the internet also offers opportunities for open education and inclusion. The author argues for a comprehensive approach to this dual phenomenon.

Key words: Internet addiction, digital education, youth, socialization, pedagogy, sociology, modern society, inclusiveness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-13>

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida internet hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. U nafaqat ijtimoiy muloqot, balki ta'lim, ish, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalarida ham asosiy vositaga aylanmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida masofaviy ta'limning kengayishi bilan internetga bo'lgan ehtiyoj yanada ortdi. Biroq, bu vositadan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanish ko'plab ijtimoiy va psixologik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu muammolardan biri — yoshlar orasida tobora keng tarqalayotgan **internetga qaramlik** holatidir.

Tezisdan internetga qaramlikning zamonaviy ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, uning sotsiologik ildizlari, yoshlarning bilim olishdagi motivatsiyasi, ijtimoiy rol va munosabatlaridagi o'zgarishlar o'rganiladi. Shuningdek, internetning ijobiy imkoniyatlari, raqamli pedagogikaning imkoniyatlari va sog'lom internet madaniyatini shakllantirish yo'llari ham tahlil qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi — internetga qaramlik fenomenining zamonaviy ta'limga ijtimoiy, psixologik va pedagogik ta'sirini aniqlash, sabab-oqibat aloqalarini ochish hamda unga qarshi kompleks choralarni taklif qilishdan iborat.

Metodologik yondashuvda sotsiologik nazariyalar, xususan, struktural-funksionalizm, interaksionizm va konflikt nazariyalaridan foydalanildi. Asosiy ma'lumotlar esa O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududlarida olib borilgan so'rovlar, ilmiy maqolalar, xalqaro tadqiqotlar natijalariga tayanadi.

Internetga qaramlik (ing. *Internet addiction*) so'nggi 25 yillik davrda alohida ilmiy muammo sifatida e'tirof etila boshlandi. Bu tushuncha dastlab 1996 yilda amerikalik olim Kimberli Yang tomonidan kiritilgan bo'lib, u internetdan haddan tashqari foydalanishni klinik simptomlar bilan solishtirib, uni qaramlik sifatida baholagan [1; 25–26-6.].

Internetga qaramlik bu — foydalanuvchining internetdan foydalanishni to'xtatishga urinishiga qaramay, uni doimiy va nazoratsiz ishlatishi, real hayotdagi sotsial va professional funktsiyalarni bajara olmaslik holatidir. Bu holat o'ziga xos simptomlar bilan namoyon bo'ladi:

- **Vaqtini yo'qotish hissi** — foydalanuvchi necha soat onlayn bo'lib qolganini sezmaydi;
- **Real hayotdan chekinish** — ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi;
- **Salbiy oqibatlarga qaramay davom ettirish** — salomatlikka, ta'limga zarar yetkazilsa ham, foydalanish davom etadi.

Sotsiologik yondashuvda internetga qaramlik nafaqat individual holat, balki ijtimoiy institutlar faoliyatining zaiflashuvi bilan bog'liq tizimli muammo sifatida qaraladi. Talcott Parsonsning funksionalistik yondashuvi asosida aytish mumkinki, oila, maktab, jamoat tashkilotlari — sotsializatsiya institutlari — o'z vazifalarini to'liq bajarmasa, yoshlar virtual olamda o'ziga yangi identitet izlay boshlaydi.

Shuningdek, interaksionistik nazariyalarga ko'ra (J. Goffman, G. Mead), yoshlar onlayn platformalarda o'zining "ideal" qiyofasini yaratadi, real hayotdagi zaifliklarni yashiradi. Bu esa real ijtimoiy aloqalarning susayishiga olib keladi [2; 48-6.].

Internetga qaramlikni kuchaytiruvchi omillar:

1. **Oilaviy muhit:** Ota-onaning internetdan foydalanishni nazorat qilmasligi, o'zlari ham ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lishi farzandda bu xatti-harakatni mustahkamlaydi.
2. **Ta'limdagi raqamli boshqaruvning zaifligi:** Darslarda raqamli texnologiyalardan faqat "ko'rgazmali" tarzda foydalanilib, ularning ta'sirchanligiga e'tibor berilmaydi.
3. **Bo'sh vaqtini to'ldira olmaslik:** Yoshlar uchun ijtimoiy, sport, san'at yo'nalishidagi muqobil mashg'ulotlarning yetarli emasligi.
4. **Pandemiya va izolyatsiya:** COVID-19 davrida masofaviy ta'lim tufayli yoshlar bir necha soat davomida faqat onlayn muhitda yashashga o'rgandi [3; 17-6.].

Bu omillar shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlik sotsial muhitda yuzaga keluvchi, institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisadir. Uning ta'siri keyingi bobda ta'limga qanday tarzda aks etayotgani bilan izohlanadi.

Zamonaviy ta'lim raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'liq shakllanmoqda. Biroq bu texnologiyalar shaxsga qanday ta'sir qilayotgani chuqurroq tahlilni talab qiladi. Internetdan haddan ortiq foydalanish natijasida o'quvchilar va talabalar orasida **internetga qaramlik** holati kuchayib borayotgani turli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli texnologiyalar orqali istalgan vaqtda axborotga erkin kirish mumkin bo'lgani holda, bu imkoniyatlar noto'g'ri boshqarilganda bilim olish motivatsiyasi zaiflashadi. Talabalar dars paytida diqqatini saqlab turolmaydi, chunki ular onlayn ijtimoiy tarmoqlardan o'zini uzolmaydi. Zhumabayeva olib borgan tadqiqotlarda Qozog'iston talabalari orasida 62% ishtirokchi "dars vaqtida telefonni tekshirish odatga aylangani"ni tan olgan [2; 118-6.].

Bunday xatti-harakatlar o'z navbatida dars mazmunini tushunmaslikka, baholash tizimiga befarqlikka va natijada bilim sifati pasayishiga olib keladi.

Internetga haddan ziyod bog'lanish insonning tafakkur faoliyatini sun'iy yengillik tomon yo'naltiradi. O'quvchi mustaqil fikr yuritish o'rniga, tayyor javoblar, "chatGPT", "Google" kabi qidiruv tizimlariga suyanadi. Bu esa **tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuv** kabi muhim kompetensiyalarni susaytiradi [4; 80-6.].

Bu jarayon, ayniqsa, oliy ta'limda o'quv rejaları ijrosining sifatsiz bajarilishiga sabab bo'lmoqda. Studentlar o'quv topshiriqlarni o'zlashtirish emas, balki qisqa yo'l bilan "bajarish"ga urinadilar. Bu esa akademik halollik tamoyillariga zid keladi.

Akademik halollik — zamonaviy ta'lim tizimining asosiy ustunidir. Biroq raqamli vositalar, ayniqsa internetga qaramlik kuchaygan sharoitda, bu prinsiplar zaiflashmoqda. Talabalar referatlar, kurs ishlari, hatto dissertatsiyalarni sun'iy intellekt yoki "copy-paste" orqali tayyorlamoqda. Buning asosiy sababi — vaqtni boshqarolmaslik va virtual muhitda haddan ziyod "yashash"dir [3; 52-6.].

Internetga qaramlikning ta'limga ta'siri faqat kognitiv emas, balki psixologik jihatdan ham salbiydir. Doimiy onlayn holat: uyqusizlik, e'tiborning tarqoqligi, bosh og'rig'i, charchoq, emotsional labillikni kuchaytiradi. Bunga qo'shimcha ravishda — internetdan ajralish holatlarida g'azablanish, zo'ravonlik, yolg'izlik tuyg'usi va ijtimoiy izolyatsiya kuchayadi [5; 106-6.].

Yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardagi hayotni real hayotga taqqoslash, o'zini past baholash, doimiy tanqidga uchrash, "FOMO" (fear of missing out — biror narsani o'tkazib yuborish qo'rquvi) holatlari psixologik muvozanatni izdan chiqarmoqda.

Internetga qaramlik yoshlar orasida **real muloqotga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi**. Bu esa ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Jamoa bilan ishlash ko'nikmasi, empatiya, o'zaro hurmat, muloqot madaniyati kabi yumshoq ko'nikmalar (soft skills) yetarli darajada shakllanmaydi. Bu holat nafaqat ta'lim sifati, balki kelajakdagi mehnat bozori talablariga javob berish salohiyatini ham zaiflashtiradi [4; 84-6.].

Jamiyatda shaxsning shakllanishi va ijtimoiy hayotga moslashuvi bir necha asosiy institutlar — oila, maktab, jamoa, OAV kabi tuzilmalar orqali amalga oshadi. Sotsiologiyada bu jarayon **sotsializatsiya** deb nomlanadi. Internet, ayniqsa mobil va tezkor internet vositalarining kengayishi, bu jarayonda yangi vosita sifatida paydo bo'ldi. Endilikda yoshlar uchun asosiy ijtimoiy tajriba manbai — virtual olam bo'lib qolmoqda.

Oila — birlamchi sotsializatsiya instituti hisoblanadi. Bola ilk qadriyatlarni, me'yor va axloqiy tamoyillarni oilada o'zlashtiradi. Biroq internetga qaramlik oilaviy muloqotni zaiflashtirmoqda. Ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional aloqalar yitmoqda. O'zaro muloqot o'rnini mobil aloqa, tarmoqdagi "like", "comment", "repost" kabi shakllar egallamoqda. Bu holat natijasida farzand o'zining real hissiyotlarini internet orqali izhor qilmoqda, bu esa uning sotsializatsiyasini sun'iy lashtiradi [4; 82-83-6.].

Ba'zi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, oilada internet foydalanishi ustidan nazorat past bo'lgan o'quvchilarda internetga qaramlik alomatlari yuqori bo'lgan (masalan, har kuni 5 soatdan ko'proq onlayn bo'lish, tungi internetdan foydalanish, ovqatlanish vaqtida ham telefon ishlatish va h.k.).

Maktab shunchaki bilim beruvchi emas, balki shaxsni ijtimoiylashtiruvchi muhim maydon hisoblanadi. Biroq internetga qaram yoshlar maktab muhitiga yetarli darajada moslasha olmaydi. Ular sinfdoshlar bilan aloqa qilish o'rniga, internetdagi virtual do'stlariga ustuvorlik beradi. O'qituvchilar bilan muloqot darajasi pasayadi, darsdan qochish, e'tiborsizlik, dars vaqtida telefon o'ynash kabi holatlar avj oladi [2; 121-6.].

Ayni paytda, ayrim maktablarda raqamli vositalarni haddan tashqari ko'p qo'llash, ularni pedagogik maqsadsiz ishlatish holatlari ham kuzatilmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalarni boshqarish madaniyati shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Internet orqali ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lish fuqarolik jamiyati institutlarida ishtirok o'rnini bosolmaydi. Ko'ngilli faoliyat, mahalla va yoshlar tashkilotlari, madaniy markazlarda ishtirok yoshlarning real hayotdagi sotsializatsiyasi uchun muhimdir. Ammo internetga qaramlik yoshlarning bunday jamoaviy faollikda qatnashishiga to'sqinlik qilmoqda [3; 49-6.].

Shu bilan birga, ijobiy holatlar ham mavjud. Masalan, raqamli inklyuziv muhit orqali nogironligi bo'lgan yoshlar, chekka hududdagilar yoki ayollar ijtimoiy aloqalarga, ta'limga, madaniy muloqotga kirishmoqda. Internet ularga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu inklyuzivlik, tenglik, ochiqlik tamoyillariga ijobiy hissa qo'shadi [3; 52-6.].

Internet orqali yoshlar o'zlari istagan rollarni sinab ko'rishadi, turli virtual guruhlariga qo'shilishadi, ba'zida esa o'ziga bo'lmagan obrazlar bilan chiqishadi. Bu sotsiologiyada "ikkinchi identitet" deb ataladi. Agar bu tajriba konstruktiv bo'lsa, foydali. Biroq u real hayotdagi muammolardan qochish vositasiga aylansa, shaxsda ruhiy inqirozga olib keladi.

Yoshlar orasida "men" obrazining buzilishi, onlayn "ideal hayot"ni real hayot bilan taqqoslash, o'zini past baholash, ijtimoiy ajralish holatlari kuchaymoqda [5; 108-6.].

Internetga qaramlik yoshlarning oila, maktab va jamoa kabi asosiy ijtimoiy institutlar bilan bo'lgan munosabatlarini zaiflashtirmoqda. Oila ichidagi muloqot kamayib, ota-onaning nazorati sustlashadi, bu esa farzandlarning internetda haddan ortiq vaqt o'tkazishiga olib keladi. Maktabda esa o'quvchilarning sinfdoshlar va o'qituvchilar bilan real muloqoti cheklanib, ta'lim jarayoniga befarqlik kuchayadi.

Shuningdek, yoshlar jamoat tashkilotlarida kam ishtirok etadi, real ijtimoiy faollik o'rnini virtual aloqa egallaydi. Biroq internet ijtimoiy inklyuzivlik uchun ham yangi imkoniyatlar yaratadi — ayniqsa nogironlar, chekka hududdagi yoshlar va ayollar uchun. Shu bois, internetga ijtimoiy muammo sifatida qarash bilan birga, uning imkoniyatlarini ham to'g'ri yo'naltirish zarur.

Internetga qaramlik muammosi mavjud bo'lsa-da, raqamli texnologiyalar yoshlar uchun keng ijobiy imkoniyatlar yaratadi. Ular ochiq ta'lim resurslariga kirish, ilmiy va madaniy tajriba almashish, xorijiy tillarni o'rganish, onlayn kurslar orqali o'zini rivojlantirish imkoniga ega.

Shuningdek, internet ijtimoiy faollikni oshiradi — yoshlar ko'ngillilik, fuqarolik tashabbuslari, ekologik va ijtimoiy loyihalarda onlayn tarzda qatnashmoqda. Ta'lim tizimi esa raqamli vositalardan to'g'ri foydalanishga yo'naltiruvchi metodikalarni joriy etishi zarur: vaqtni boshqarish, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilishi kerak.

Oilada ochiq muloqotni qo'llab-quvvatlash, bolalarning internetdan foydalanishini sog'lom tarzda nazorat qilish, raqamli savodxonlikni oshirish orqali sog'lom internet madaniyati vujudga keladi. Bu esa yoshlarning ijtimoiy moslashuviga, intellektual va ruhiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Internetga qaramlik bugungi raqamli jamiyatda faqat individual muammo emas, balki ijtimoiy institutlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tizimli holatga aylanmoqda. Bu holat ta'lim sifati, o'quvchilarning psixologik salomatligi, sotsializatsiyasi va real ijtimoiy aloqalariga salbiy ta'sir qilmoqda.

Biroq, internet to'g'ri yo'naltirilsa, yoshlar uchun ochiq ta'lim, global hamkorlik va inklyuzivlik imkoniyatlarini yaratadi. Shu bois, internetdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishda oila, maktab va jamiyat institutlarining uzviy hamkorligi zarur. Sotsiologik yondashuvga tayangan holda, muammoni chuqur anglash va unga qarshi kompleks choralar ishlab chiqish zamonaviy ta'limning muhim vazifasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. **Xolmatova, D.** O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va yoshlar: imkoniyatlar va tahdidlar. *Yoshlar Sotsiologiyasi Jurnali*, 2022, 4(1), 45–59-6.
2. **Zhumabayeva, A.** Qozog'iston yoshlarining internet qaramligi va ta'lim jarayoniga ta'siri. *Qozog'iston Pedagogika Jurnali*, 2021, 7(2), 112–130-6.
3. **Orozbekova, S., & Atabekov, A.** Raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy aloqalar: xavf va imkoniyatlar. *Sotsiologik Tadqiqotlar Jurnali*, 2019, 6(2), 78–91-6.
4. **Safarov, I.** Internetga bog'liqlik va yoshlarning ruhiy salomatligi. *Tibbiyot va Psixologiya Jurnali*, 2020, 3(4), 103–117-6.
5. **Young, K. S.** Internet addiction: The emergence of a new clinical disorder. *CyberPsychology & Behavior*, 1998, 1(3), 237–244.

INSON KAPITALINING YANGI O'ZBEKISTONDAGI IJTIMOY O'RNI

Raxmatullayeva Shaxlo Kadirjanovna

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat
siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sh.rakhmatullaeva@dsba.uz

Tel: +998 93 583 87 87

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Inson kapitali Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning markaziy omillaridan biriga aylandi. U ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori, raqamli transformatsiya kabi asosiy sohalar bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tezisda inson kapitalining mohiyati, turlari, ijtimoiy struktura va taraqqiyotdagi o'rni sotsiologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ayniqsa, faol, passiv va manfiy kapital tushunchalari orqali ijtimoiy muvozanat va adolat tamoyillari ochib beriladi. Mahalla instituti va davlat siyosati orqali inson kapitalining rivojlanishidagi ijtimoiy determinantlar o'rganiladi. Xulosa sifatida, inson kapitali Yangi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotida strategik resurs ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, sotsiologik tahlil, raqamli jamiyat, davlat siyosati, mahalla, ijtimoiy adolat, innovatsiya, inklyuziya.

THE SOCIAL ROLE OF HUMAN CAPITAL IN NEW UZBEKISTAN

Rakhmatullaeva Shakhlo Kadirzhanovna

Independent researcher at the Academy of Public

Administration under the President

of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

Annotation. Human capital has become one of the central pillars of the socio-economic reforms implemented in the era of New Uzbekistan. It is closely linked to key sectors such as education, healthcare, the labor market, and digital transformation. This thesis examines the essence, types, and sociological role of human capital. Concepts such as active, passive, and negative capital are used to reveal principles of social balance and justice. Social determinants of human capital development through mahalla institutions and state policy are also explored. The conclusion highlights human capital as a strategic resource for sustainable development in New Uzbekistan.

Key words: human capital, sociological analysis, digital society, state policy, mahalla, social justice, innovation, inclusion.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-214-5/ydif-14>

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida inson omiliga berilayotgan e'tibor bevosita inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan har bir islohot va dastur markazida inson – ularning bilim darajasi, sog'ligi, malakasi, ijtimoiy faolligi turibdi. Inson kapitalining kuchli bo'lishi mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitalining mohiyatini chuqur o'rganish, uning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Inson kapitali konsepsiyasi ilk bor iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa-da, keyinchalik bu tushuncha ko'plab ijtimoiy fanlarda markaziy mavzulardan biriga aylandi. T.

Shults va G. Bekker inson kapitalini inson salohiyatining iqtisodiy qiyofasida ifodalagan bo'lsa, P. Burdyo va J. Koulman uni ijtimoiy munosabatlar, madaniy meros, va jamoaviy faollik bilan bog'lab talqin qilganlar. Bugungi kunga kelib, inson kapitali ijtimoiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlikning eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda [1; 15-b.].

Sotsiologik yondashuvda inson kapitali quyidagicha tasniflanadi:

- Faol kapital: Innovatsion fikrlashga ega, yuqori malakali, mehnat bozorida raqobatbardosh.

- Passiv kapital: Malaka va bilimdan chetda qolgan, ijtimoiy faollik past bo'lgan qatlam.

- Manfiy kapital: Jamiyat uchun xavfli, destruktiv xatti-harakatlarga moyil bo'lgan qatlamlar (jinoyatchilik, ekstremizm).

So'nggi yillarda inson kapitalining yangi shakllari paydo bo'ldi: raqamli kapital (texnologik savodxonlik), ijtimoiy-emotsional kapital (empatiya, muloqot ko'nikmalari), va madaniy kapital (tarixiy, axloqiy meros bilan bog'liq qadriyatlar).

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi inson kapitalini kuchaytirish masalasini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan. Xususan:

- Umrbod ta'lim konsepsiyasi asosida xalq ta'limi, kasbiy ta'lim va oliy ta'lim integratsiyasi.

- Sog'liqni saqlash tizimini digitallashtirish va profilaktika asosidagi yondashuvni kengaytirish.

- Raqamli infratuzilmani har bir hududga yetkazish va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

- Mahalla institutining ijtimoiy xizmatlar markazi sifatida takomillashtirilishi.

Bundan tashqari, ayollar va yoshlar bilan ishlash, nogironligi bo'lgan shaxslarning integratsiyasi, va ijtimoiy nogironlikni kamaytirish bo'yicha ko'plab dasturlar qabul qilinmoqda.

Inson kapitalining rivojlanishida yetakchi davlatlar tajribasi Yangi O'zbekiston uchun muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) ta'lim sifati va sog'liqni saqlash tizimlari yuqori darajada raqamlashtirilgan va ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillariga asoslanadi [8; 45–46-6.]. Janubiy Koreya inson kapitalini rivojlantirishda texnik ta'lim va fan-texnika sohasidagi innovatsiyalarga tayangan [6; 21-6.]. Singapurda esa «odamga investitsiya» strategiyasi asosida har bir fuqaroning salohiyatini to'liq yuzaga chiqarish maqsad qilingan [9; 18-6.]. Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilib, «Har bir inson – islohotlar subyekti» degan g'oyaning amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Inson kapitalining holatini baholash uchun xalqaro miqyosda bir nechta indikatorlar ishlab chiqilgan: Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), Global raqobatbardoshlik indeksi, Ta'lim sifati reytingi, Sog'liq indikatorlari va boshqalar [6; 13-6.]. O'zbekistonda esa bu boradagi statistik tahlillar hali yetarli darajada shakllanmagan bo'lsa-da, Davlat statistika qo'mitasi, Oliy ta'lim vazirligi va Bandlik agentligi tomonidan ko'rsatkichlar asosida baholash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda [7; 7-6.]. Sotsiologik tahlil metodlari – so'rovnomalar, kuzatuvlar, fokus-guruhlar va kontent-tahlil vositalari – inson kapitalining sifatli o'sishini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, yoshlar, ayollar, keksalar kabi ijtimoiy guruhlar orasida farqlarning o'rganilishi ilmiy asoslangan siyosat ishlab chiqish uchun muhimdir [2; S98-6.].

6. Hududlararo tafovut va ijtimoiy inklyuziya masalalari O'zbekistonda inson kapitalining rivojlanishida hududlararo nomutanosiblik muammosi mavjud. Aholining markaziy hududlardagi vakillari ko'proq ta'lim, sog'liqni saqlash va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlariga ega bo'lsalar, chekka va tog'li hududlardagi fuqarolar hali ham bu borada muammolarga duch kelmoqda [5; 4-6.]. Bu nomutanosiblik ijtimoiy adolat tamoyillariga zid bo'lib, davlat siyosatida inklyuzivlik va hududiy tenglikka erishishni zarurat sifatida belgilamoqda. «Mahallabay ishlash» tizimi, mobil sog'liqni saqlash xizmatlari, masofaviy ta'lim platformalari ushbu farqlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda [10; 9-6.].

7. Xulosa va tavsiyalar Inson kapitali – bu nafaqat iqtisodiy resurs, balki ijtimoiy taraqqiyot, madaniy barqarorlik, siyosiy ishonch va ma'naviy uyg'onishning asosi hamdir. Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining mintaqaviy tengligi ta'minlansin;
- Raqamli savodxonlikni oshirish orqali raqamli tafovut kamaytirilsin;
- Mahalla instituti ijtimoiy inklyuzivlik markaziga aylantirilsin;
- Ayollar, yoshlar va nogironlar uchun mo'ljallangan maxsus dasturlar kengaytirilsin;
- Ilmiy tadqiqotlar asosida inson kapitali monitoringi tizimi joriy etilsin.

Inson kapitaliga bo'lgan yondashuv faqat iqtisodiy emas, balki sotsiologik, madaniy va axloqiy mezonlar asosida olib borilishi zarur. Zero, inson omili Yangi O'zbekistonning eng muhim strategik resursidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Беккер Г. Человеческий капитал. Теоретический и эмпирический анализ. — М.: ГУ VShE, 2003. — 456 с.
2. Coleman J. Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology. — 1988. — Vol. 94. — P. S95-S120.
3. Schultz T.W. Investment in Human Capital // American Economic Review. — 1961. — Vol. 51. — P. 1-17.
4. Бурдые П. Формы капитала // Экономическая социология. — 2002. — Т. 3. — № 5. — С. 60-74.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги фармони. www.lex.uz
6. Jahon banki. Inson kapitali indeksi (Human Capital Index), 2023-yilgi hisobot. www.worldbank.org
7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar. www.mehnat.uz
8. OECD. Education at a Glance 2022. OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2022.
9. ЮНДП (UNDP). Inson taraqqiyoti indeksi (HDI) bo'yicha hisobotlar. www.undp.org
10. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyati va ijtimoiy xizmatlar statistikasi. www.mahallavaiila.uz

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATION G'OYA VA YECHIMLAR

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 3-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 71 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 3-iyul

ISBN 978-9910-09-214-5

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.